

МАРТ 2022

Тошкент, Ўзбекистон



ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ

МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ

ХАЛҚАРО | ИЛМИЙ-АМАЛИЙ | МАСОФАВИЙ | КОНФЕРЕНЦИЯ
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ

**"ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ
ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА
ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ
ОМИЛЛАРИ"**

**"ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В
СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ:
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ
РАЗВИТИЯ В ФИЛОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ"**

**"DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERN
EDUCATION: CURRENT TRENDS AND
DEVELOPMENT FACTORS IN PHILOLOGY AND
PEDAGOGY"**

Ушбу тўплам замонавий таълимда рақамли технологиялар: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омилларига бағишланган тезисларни қамраб олган.

УЎК 37.018.43:004(062)

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.6413021>

Ушбу тўпламнинг электрон шакли қуйидаги сайтларда

<https://tadqiqot.uz/conf/>

www.conferences.uz

Таҳририят кенгаши

1.Абдуллаева Барно Сайфутдиновна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети проректори, п.ф.д., профессор

2.Шахобиддин Саидович Ашуров

Самарқанд давлат чет тиллари институти проректори, ф.ф.н., доцент

3.Джурасев Рисбой Хайдарович

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, п.ф.д.

4.Асқаров Ахмадали

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, т.ф.д.

5.Ли Ю Ми

(Жанубий Корея) Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети PHD

6.Лутфуллаев Махмуд Ҳасанович

Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, п.ф.д.

7.Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович

Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.

8.Насруллаева Нафиса Зафаровна

Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.

9.Кисилев Дмитрий Анатольевич

Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.

10.Сувонова Нигорабону Низамиддиновна

Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.н.

11.Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич

Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, фалс.ф.д.

12. Муслимов Нарзулла Алиханович

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.

13.Халиков Аъзам Абдусаломович

педагогика Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.

14.Уразова Марина Батировна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.

15.Мирсолиева Мухаббат Тухтасиновна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.д.

16.Мамадалиев Абдумажид

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.

17.Садикова Альбина Венеровна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.

18.Авазов Шериммат

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.

19.Мамаражабова Зулфия Нарбаевна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.

20.Адилова Саодат Хусановна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.

21.Расулов Анвар Баходирович

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи, PHD

22.Абдазимов Азиз Абдусобирович

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи,

23.Рахимова Гулсанам Аширбековна -

Ўзбекистон Миллий Университети Хорижий Филология факультети Табиий йуналишлар бўйича чет тиллар кафедраси мудири

Тўпламга киритилган тезислардаги таълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тугрилигига муаллифлар масъулдир

©Муаллифлар жамоаси

©Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: **Shakhram Fayziev**

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улицв Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr. 1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ЙЎНАЛИШИ

Karimova N. M. KOMMUNIKATIV TA'SIR KO'RSATISHNING O'ZIGA XOS TAMONLARI.....	6
Karimova N.M. TALABALARINI KOMMUNIKATIV FAOLIYATGA TAYYORLASHDA AXBOROT VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING YO'LLARI.....	8
Jumayeva Z.B, Bobojonov D. "HELLADOS" HIKOYASIDAGI OBRAZLAR TALQINI.....	10
Ibragimova N.I. MAKTABDA MATEMATIKA O'QITISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR - TA'LIM SHAKLI SIFATIDA.....	12
Kamolova M. BEHZOD FAZLIDDIN IJODIDA O'XSHATISHLARNING QO'LLANILISHI.....	15
Jabborova S.S. MEHNAT QONUNCHILIGIDA XODIMNI MALAKASINI ANIQLASHDA ATTESTATSIYA VA UNI O'TKAZISHNING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI.....	17
Naimova D.A. O'RTA OSIYOLIK ALLOMALARNING TABIAT VA EKOLOGIYA HAQIDAGI FIKRLARI.....	20
Qosnazarova P. Q. JÁMIYETTE EKOLOGIYALIQ DÚNYAQARASTIÑ JETIKLIGIN TÁMIYNLEWDIÑ SALAMAT RUWXIY ORTALIQQA TÁSIRI.....	23
Samandarova S.A. O'YIN TEXNOLOGIYASI VOSITASIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH.....	25
Sharipova Sh.A. O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINING O'RNI.....	27
Sobirov D.A. MAQSUD SHAYXZODA IJODI TALABALAR NIGOHIDA.....	29
Sobirov.D. IKKI YURT DILBANDI.....	31
Suvonova N.Sh. TARIX FANINI O'RGANISHDA SIVILIZATSIVAVIY YONDASHUV.....	33
Nabiev E.B. XX ASR BOSHLARIDA TURKIYA DAVLATINING ICHKI VA TASHQI SIYOSATI VA UNING JAHON HAMJAMIYATIDAGI O'RNI.....	36
Сапохонов Х, Солиева Х. О. НРАВСТВЕННЫЙ ИДЕАЛ - КРИТЕРИЙ ДУХОВНОГО СОВЕРШЕНСТВА.....	39
Куйлиев Б.Т. СИЁСИЙ ОБРАЗНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ҲОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	42
Ярашова Н.Ж. МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР МУЛОҚОТИДА БОЛАЛИК ЛИНГВОПСИХОЛОГИЯСИ..	44
Umarova U.U. "MUNOSABATLAR. BINAR MUNOSABATLAR" MAVZUSINI O'QITISHDA "DOMINO" METODIDAN FOYDALANISH.....	46
Djurayeva R.K. AKADEMIK LITSEYLARDA MATEMATIKA O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA USULLARINI QO'LLASH.....	48

ФИЛОЛОГИЯ ЙЎНАЛИШИ

Abdunabiyeva M. "BOBURNOMA" DA GEOGRAFIK NOMLARNING ETIMOLOGIYASI.....	51
Abdurakhimova M. CASE STUDY METHODOLOGY IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE.....	54
Oripova K.E. INGLIZ TILIDAGI ANTONIMLARNING SEMANTIK JIHATLARI.....	56

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

Ismatova S.T, Sodiqova B.I. "CHOLIQUSHI" ASARIDA POSTMODERNIZM KO'RINISHLARI VA TAHLILLARI.....	58
Azimova D. O'ZBEK VA INGLIZ BADIY ASAR TARJIMAVIY MUAMMOLARI.....	60
F.F. Boltayev THE PHILOSOPHICAL NATURE OF LANGUAGE IN THE GLOBAL COMMUNICATION SPACE.....	64
Boltayeva M. DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE FOR PROFESSIONAL PURPOSES.....	67
Immatova M. THE USE OF GAMES IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE AT THE UNIVERSITY.....	69
Jumaeva M. THE IMPORTANCE OF LINGUISTICS IN THE THEORY OF TRANSLATION.....	71
Mamirjonova O' ZULFIYA NIGOHIDA BAHOR.....	74
Norbekova G.M. MUHAMMAD RIZO OGHIYNING "EY, SHO'X, KO'Z-U QOSHINGGA OLAM GADO, MAN HAM GADO" RADIFLI G'AZALIDA BADIY SAN'ATLARNING QO'LLANILISHI.....	77
Obidjonov X.X. RASMIY USLUBNING O'ZIGA XOS ASOSIY XUSUSIYATLARI.....	79
Ochilov B.R, Yaxshiyev Sh.Sh. MAKSUD SHAYKHZODA IS A MULTI-DISCIPLINARY POET.....	81
Pratova G.O' O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SO'Z VA IBORALARNING SEMANTIK TASNIFI.....	84
Qipchoqova S.F. BOLALAR NUTQINI O' STIRISHDA BOLALAR ADABIYOTINING ROLI.....	86
Muslixiddinova R. SADRIDDIN AYNIIY - ZULLISONAYN ADIB.....	88
Yoqubboyeva Sh.T. IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA METAFORALARNING TUTGAN O'RNI.....	90
Xayitova Y. GYOTENING "VERTER"INI O'QIB.....	93
Qurbonova M.J. XURSHID DAVRON IJODI LEKSIK XUSUSIYATLARINING INDIVIDUALLIGI.....	95
Yo'ldoshaliyeva M.Y. "BOBURNOMA"DA KELTIRILGAN IJODKORLAR TAVSIFI.....	97
Ачилова М.Ш. РАНГ КОМПОНЕНТЛИ ТИЛ БИРЛИКЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ-МАДАНИЙ ВА КОНЦЕПТУАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ (ИСПАН ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МАТЕРИАЛИДА).....	99
N.Qurbonova HIKOYA JANRI USTASI.....	102
Суяров А.Б. HEMIS TILI ANTPONIMLARINING TARIHIY SHAKLLANIШИ.....	104
Шоназаров А.А. ИМОМ БУХОРИЙ ВА ИМОМ ТЕРМИЗИЙ ФОЙДАЛАНГАН ХАДИСШУНОСЛИК ТЕРМИНЛАРИНИНГ СЕМАНТИК ТАХЛИЛИ.....	107
Якунина А.А. О РОЛИ ЯЗЫКОВОГО ЗНАКА В ПРОЦЕССЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ АКТА МЫСЛИ.....	110
Bobojonov D.J, Sodikova B. I, Ergasheva O'.J. LINGUAPRAGMATIC ASPECTS OF ENGLISH AND UZBEK NEWSPAPER HEADLINES.....	113
Umedova O.S. EVROOSIYO MINTAQASIDA MADANIYATLARARO ALOQANING XUSUSIYATLARI.....	117
Qodirova N.X. BOBUR LIRIKASI HAQIDA.....	121
Тошева Р.С, Илхамов Д.Ф КОМПЮТЕРНОЙ ТОМОГРАФИИ И УЗД В ДИАГНОСТИКЕ ЗЛОКАЧЕСТВЕННЫХ ЛИМФОМ.....	123
Халилова Л.Ф. ДИАЛОГ КАК ОСНОВА ОБУЧЕНИЯ РАЗГОВОРНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ.....	125
Saidova Z.R. MASOFAVIY TALIM SHAROITIDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	127
Каюмова Р.Р. ПИСЬМА С ВОЙНЫ (1941-1945 гг.).....	129

ПЕДАГОГИКА ЙЎНАЛИШИ

KOMMUNIKATIV TA'SIR KO'RSATISHNING O'ZIGA XOS TAMONLARI

Karimova Nargiza Mamatkadirovna

SamDCHTI Pedagogika va psixologiya kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kommunikativ ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos tamonlari mavjudligi jumladan, kishilarning o'zaro ta'sir etish usullari, kishilarning o'zaro ta'sir etishdagi vaziyatlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, kommunikativ ta'sir, ishontirish, o'ziga rom qila olish, taqlid qilish, uqtirish.

Ilm-fan taraqqiyotining uzoq davri shu bilan tavsiflanadiki, olimlar va tadqiqotchilar ko'proq nazariy masalalarni hal qilish, umumiy qonun-qodalarini sharxlash tushuntirish orqali jamiyat va insoniyat taraqqiyotini yoritishga o'rga-nishlari ko'p uchraydi. Bugun biz uchun ijtimoiy taraqqiyot va inson tafakkuri rivojlanishini tezlatuvchi, uning davr va kishilar xulqiga hamohang tarzda ketishini ta'minlab beruvchi tadbqiqiy ishlar va ilmiy izlanishlar zarur. Mamlakatimizda ro'y bera-yotgan tub ijtimoiy-siyosiy islohatlar shuni talab qilmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlod olam sir-asrorlarini chuqur bilishi, qiziqishlari doirasida izlanishlar olib borishga tayyor turishi, Vatanimiz taraqqiyotiga chuqur bilimi bilan o'z hissasini qo'shishi lozim.

Kommunikativ ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos tamonlari mavjud, jumladan, kishilarning o'zaro ta'sir etish usullari. Kishilarning o'zaro ta'sir etishdagi barcha vaziyatlar, asosan to'rtta o'zaro bog'liq munosabatlar orqali amalga oshiriladi: ishontirish, o'ziga rom qila olish, taqlid qilish, uqtirish.

Ishontirish-bu biror fikr yoki xulosani mantiqiy asoslashdir. Ishontirish suh-batdosh yoki guruh ongini o'zgartirib, ma'lum fikr (nuqtai nazarni) qo'llab- quvvatlaydigan va uning asosida faoliyat ko'rsatishni nazarda tutadi.

So'z bilan ishontirish eng qiyin tarbiyaviy vositalardir. Bunda tinglovchilar fikrini o'zgartira oladigan mantiq yoki suhbat ohangini tanlash juda muhimdir.

Ishontirish-ishontiruvchi axborotning mazmunli bo'lishi, tinglovchi esa unga ongli munosabatda bo'lishini nazarda tutadi. Taqlid qilish-inson ruhiyatini o'ziga rom qilishning bir turidir. U asosan individning ma'lum bir hulq-atvor, harakat tarzi, qiliqlari takrorlashini anglatadi. Mashhur psixoterapevt V. L. Levi ichki va tashqi taqlid qilish mavjudligini aniqlagan. U ichki taqlid qilishda boshqa kishi sezgi mantig'i va xulqi intuitiv (ong bilan sezish) ravishda qamrab olinadi, deb hisoblaydi.

Ichki taqlid qilishda kishining tashqi qiyofasi ham hisobga olinadi, lekin ular tabiiydek tuyuladi. Axir, biz ixtiyoriy kishi bilan muloqotda bo'lganimizda, uni xayolan ifodalay olishimizdan ko'proq ma'lumotni o'zimizga olamiz, va sezamiz (Anikeyeva str. 7). Ichki va tashqi taqlid qilishni bilish yosh o'qituv-chiga o'z ustida ishlashga yordam beradi.

Uqtirish-bu bir kishini ikkinchi kishiga yoki kishilar guruhiga ruhiy ta'sir etishi bo'lib, unda so'z ifoda va fikrlarni hych qanday tanqid alomatisiz erkin tushuntiriladi.

Fanda ta'kidlanganidek, uqtirishning mohiyati tinglovchining so'z-lovchiga nisbatan to'la ishonch bildirishdir. Bu holda so'zlovchi tinglovchida aynan o'zidagi tasavvur, qiyofa va sezgilarni gavdalanitiradi. Natijada uning oldida to'la ishonch qozonadi. Uqtirib ta'sir etishning asosiy shakli bir tomondan axborot manbai so'zlovchining obro'ga ega bo'lishi, ikkinchi tomondan esa tinglovchida ishonch hosil qilishi, hych bo'lmaganda, ta'sir ko'rsatishga qarshilik bildir-masligiga erishishdir. Mana shunga amal qilgandagina uqtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin (tekst Anikeyeva str. 9).

Uqtirish, kishilarning muloqotda o'zaro ta'sir etish jarayoni sifatida ixtiyoriy va ixtiyorsiz to'g'ridan-to'g'ri ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Pedagogik jihat-dan to'g'ri qo'llangan uqtirish juda katta tarbiyaviy kuchga ega bo'lishi mumkin.

Kommunikativ o'zaro ta'sir etish samarasini oshiruvchi omillar.

Muloqot texnikasini bilish o'qituvchiga har bir vaziyatda o'z hatti-harakatlarini to'g'ri tashkil etishiga yordam beradi. O'zaro ta'sir uchun tanlangan noto'g'ri pedagogik hatti-harakat yoki noto'g'ri muloqot shaklini qo'llanilishi, ya'ni muloqotga uni amalga oshirish nuqtai nazardan tayyorlanmaganlik, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida kelishmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Kommunikativ o'zaro ta'sir samaradorligini oshiruvchi quyidagi vositalarga to'xtalib o'tamiz: muloqotga moslashish mushaklarning safarbarligi, tashabbuskorlik, rollar pozitsiyasidan oqilona foydalanish, imo-ishora, har bir fikrni oldingisiga nisbatan balandroq tovush bilan boshlash, muloqotning ko'p qatlamliligini e'tiborga olish.

O.Knebel moslashishni "kishilar muloqotining ichki va tashqi shakli" deb tasvirlaydi, bunda u bir-biriga qo'llaydigan ruhiy yurishlarni bir kishining ikkin-chisiga ta'sir etish tanlanuvchanlik xususiyatiga ega ekanligini nazarda tutadi. Bu haqda A. S. Makarenko "Men beri kel" ni 15-20 ohangda aytishga o'rganganimda, va yuz ifodam, gavda va tovushimni 20 dan ortiq, holatga solishga muvaffaq bo'lganimdagina o'zimni haqiqiy mahoratimni seza boshladim. Shundagina kimdir meni oldimga kelib zarur narsani seza olmasligidan qo'rqmaydigan bo'ldim", deb yozgan edi. Kommunikativ moslashish pedagogik muloqotda muhim rol o'ynaydi, chunki pedagogik vaziyatlar odatda juda tez rivojlanadi va butun pedagogik jarayon harakatlanuvchi kommunikativ sistema sifatida gavdalanadi. Uni samarali boshqarish pedagog tomonidan muloqot uchun ketma-ket moslashuvlarni topa olinishiga bog'liqdir. O'qituvchi o'zida har bir yangi pedagogik vaziyatga kommunikativ mos-lashuvlar sistemasini juda tez kirita olish malakalarini o'zida shakllantirish zarur. Ta'sir ko'rsatishning har bir metodi muloqotga moslashish sistemasini bilan birgalikda o'zgacha ohang, ahamiyat, kuch va yo'nalish kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T.: ToshDPU. 2002 (o'quv qo'llanma).
- 2.Karimova V. Akramova F. Psixologiya. T. 2000.
- 3.Karimova V. Psixologiya. (o'quv qo'llanma).T. 2000 y
- 4.G`oziyev E. Muomala psixologiyasi. T. 2001 y

Veb-saytlar ro'yhati:

- 1.www.expert.psychology.ru
- 2.www.psychology.net.ru

TALABALARINI KOMMUNIKATIV FAOLIYATGA TAYYORLASHDA AXBOROT VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING YO'LLARI

Karimova Nargiza Mamatkadirovna
SamDCHTI Pedagogika va psixologiya
kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning o'quv ta'lim vosiatalaridan foydalanishni o'rgatish, anglash faoliyatini jadallashtirish, ularning kuchli va o'jiz jihatlari aniqlash, bu sohada muhim ahamiyat kasb etishi va talabalarda o'z bilimni oshirishga rag'batlantirish eng muhim ekanligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: uqtirish, taqlid qilish, muloqot, kommunikativ ta'sir, ishontirish, o'ziga rom qila olish.

Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlari-mizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohatlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri bularning barchasi zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqdir.

Tabaqalashtirilgan ta'limda o'quvchilarni bilim darajasi, yutuqlarga erishish imkoniyatlarini aniqlash alohida ahamiyatga egadir. Bunday ish yuritish o'qituvchiga o'quvchilarning qobiliyatini hisobga olishga yo'l ochadi, ta'lim oladi-gan fanlarga nisbatan bolalarning istagi-yu intilishini bilishga, munosabatini o'rga-nishga yordam beradi. Pedagogik o'yinlarni tayyorlash va o'tgazish jarayonida pedagog muloqot uchun zarur bo'lgan ijodiylik elementlarining bo'lishiga alohida e'tibor berish lozim, bu birinchidan; ikkinchidan bola bilan bevosita muloqotni tashkil yetish jarayonida; uchunchidan o'z xulq atvori xatti-harakatini boshqarish-da; to'rtinchidan o'zaro muloqot jarayoning o'zi ijodiy harakterga ega.

Biz shuni aniq bilishimiz lozimki, har qanday pedagogik vaziyat amaliy o'yinning ibtidosi sifatida ko'pgina aloqadorlik va o'ziga xos hususiyatlarni tarbiyalashga oid turli-tuman vazifalarni tashkil etish masalasida qiziqish uyg'otish mumkin. Biroq amaliy o'yinlarni tashkil etishda eng muhim o'rinni pedagogik vaziyatning yuksak emosionolligi va muammoligi egallaydi.

Mazkur hususiyatga egabo'lmagan ti pik pedagogik vaziyatlar o'quvchi-larning diqqatini o'ziga tortmaydi, qiziqish va bo'lajak amaliy o'yinlarning muvaf-faqiyatli tarbiyaviy natijasini belgilash jihatidan g'oyat muhimdir.

Mazkur mashg'ulotni tashkil etishda o'qituvchidan o'z oldiga qo'ygan didaktik maqsadlarni his etishga qaratilgan faoliyatida o'quvchilar tanlagan rollar-ning mos kelishi talab etiladi. O'qituvchi amaliy o'yinlarda har dars o'tganida muntazam ravishda foydalanib boradilar. O'qituvchi ma'ruza o'qishda o'quvchilarni qiziqtirish uchun undagi qoidalarni yorqin yoritish natijasida ovozini past-baland yo'g'on- ingichka qilib o'qib beradi. Keyin mavzuni o'quvchilarga o'qitadilar. O'quvchilarning nutqini yaxshilash uchun ularni rollarga bo'ladilar. O'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik texnikasi asoslarini egallashga doir vazifalarni hal etishga o'rgatish yuzasidan biz quydagi amaliy pedagogik o'yinlar turlarini ajratdik:

- pedagogik nutq "texnika" sini rivojlantirishga doir amaliy pedagogik o'yinlar;
- psixologik holat va pedagogik faoliyat texnikasiga doir amaliy o'yinlar;
- pedagogik jamoa rahbari "roli" ga doir amaliy pedagogik o'yinlar.
- o'quvchilarda amaliy pedagogik o'yinlar jarayonida turli xil tarbiyaviy ishlar shakllarini

qo'llash malakalarini hosil qilish.

O'quvchilarni amaliy pedagogik o'yinga tayyorlashni tashkil etish to'rt bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Ijodiy mikroguruhini tanlash;
2. O'yinga jalb qilish;
3. Rollarni taqsimlash;
4. O'qituvchining rejessorlik faoliyati.

Pedagogik amaliy o'yinlarning turi va pedagogik vazifaga bog'liq ravishda o'quvchilarni tanlash mezonini turlicha bo'lishi mumkin.

Bu o'quvchilarning o'zaro psixologik mos kelishi, ayrim hollarda esa yuksak darajadagi desperssiya holatiga bog'liq. Guruh pedagogik o'yin mohiyati bilan yaqindan tanishtiriladi. Bu jarayonda ular muommoli vaziyat, boshlang'ich pedagogik axborot va amaliy o'yin ekispozitsiyasi bilan tanishadilar.

Rollarni bo'lishda o'qituvchi insonning xayotiy pozitsiyasi, xulq-atvor motivlari emotsional holati bilan tanishadilar. Shundan so'ng topshirilgan rol ustida ishlashning individual rejasi tuzilishi lozim. Quyidagi didaktik o'yin mashg'ulotlar keltiramiz.

Kollej o'qituvchisi bir yil mobaynida amaliy pedagogik o'yinlarning olib borilishi natijasida talabalarning ijobiy tomonga o'zgarganliklarini kuzatadilar. Ularning ijobiy tomonlari:

-muomalaga kirishuvi, notiqlik, mehribonlik, bolajonlik, samimiylilik; xushmuomalalik, nazokatlilik va bosiqlik kabi yaxshi tomonlari rivojlanganliklari

Hozirgi kunda davr talabiga javob beradigan, raqobatdosh o'qituvchilar kerakdir. Talabalarning o'quv ta'lim vositalaridan foydalanishni o'rgatish, anglash faoliyatini jadallashtirish, ularning kuchli va ojiz jihatlarini aniqlash, bu sohada muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda o'z bilimini oshirishga rag'batlantirish eng muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T.: ToshDPU. 2002 (o'quv qo'llanma).
2. Uzluksiz talim tizimida bo'lajak mutaxassisning pedagogik -komunikativ faoliyatini shakllantirish muommolari. II qism. Samarqand SamDU. 2001-y-40-b.
3. Karimova V. Psixologiya. (o'quv qo'llanma). T. 2000 y

Veb-saytlar ro'yhati:

1. www.expert.psychology.ru
2. www.psychology.net.ru

"HELLADOS" HIKOYASIDAGI OBRAZLAR TALQINI**Jumayeva Zulfiya Bahromovna**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbari: **Dilshod Bobojonov**

Annotatsiya: Ardoqli gruzin adibi Nodar Dumbadze tomonidan yozilgan "Hellados" hikoyasida Vatanga bo'lagan muhabbat, o'sha davr muhiti, do'stlikning o'ziga xos ko'rinishi, balki qahramonlarning ichki kechinmalari o'smirlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar yorqin tarzda aks ettirilgan.

Shu o'rinda asarning bosh qahramonlaridan biri Yangulining so'zlari bunga yaqqol misol bo'la oladi: "Hellados" - bu naqsh Jamol. Vatan - ichkariroqda, naqd yurakning o'zi-da! - dedida qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

Kalit so'zlar: "Hellados", Yanguli, Jamol, "Poseydon" kemasi Adibning bir qancha kitoblari taniqli tarjimon Nizom Komil tomonidan o'zbekchaga mahorat bilan tarjima qilingan. Tarjimon tomonidan o'zbekchaga o'girilgan ushbu asar Nodar Dumbadze ijodining eng yorqin namunalaridan biridir.

"Hellados" shu birgina so'z ortida yashiringan butun asar talqini yosh o'spirinlar obrazida timsolga aylantirilgan. Yanguli - suxumilik grek Xrista Aleksandridining o'g'li. Cho'pday ozg'in, yelkalari turtib chiqqan, qirraburun, ko'zlari charosdek qop-qora, qo'llari uzunligidan tizzasiga tushib turadigan o'n to'rt yoshli bu mushtumzo'r o'spirin Venetsian ko'chasidagi barcha bolalarga bosh edi. Onasidan erta ayrilgan, otasining e'tiboridan chetda qolgan bu yigitcha zo'ravon, ko'cha bolasi bo'lib, unga qarama-qarshi obraz sifatida birmuncha tarbiyali bo'lgan Jamol ham u bilan bo'lgan o'zaro janjalda bo'sh kelmaydi. Bolalarning ruhiyatida shakllangan g'urur, or-nomus kabi tuyg'ular ular uchun muhim ahamiyat kasb etgandi.

Qisqagina, ammo har qanday o'quvchiga sodda va tushunarli holda bayon etilgan bu asar har qanday insonni qahramonlar o'rnida tasavvur etishga undaydi. Aslida yozuvchining ayni maqsadi ham shu edi, ya'ni hikoyadagi ayni mavzuni o'quvchiga ravon tilda yetkazishdir.

Chalbash daryosi bo'yida joylashgan Venetsian ko'chasini, o'zi voyaga yetgan, bir necha xalqlar et-u tirnoq bo'lib yashaydigan bu hududning haqiqiy egasi sifatida biladigan Yanguli dastlab Jamolni go'yo bir kelgindi sifatida qarshi oladi. Ikkinchi jahon urushidan biroz vaqt oldin ro'y berayotgan bu voqealar muhitida ham o'zgacha bir kayfiyat mavjud. Vatanga bo'lgan hurmat, uni begonalarga berib qo'ymaslik kabi qadryatlarini quyidagicha tantanavor bir shaklda ifodalagan Yanguli bolalarga qarata shunday deydi:

Bolalar! Men, Yanguli Aleksandridi, sizlar saylagan sardor, sizlarga, Venetsian ko'chasining hur farzandlariga murojaat qilaman! Ro'parangizda tibilisilik rangpar laqma va uning jiyani - vatan va qabila xoini, mishiqli Koka turibdi.

Mana bu rangpar kelgindi bizning mehmondo'stligimiz va muruvvatimizdan bahramand bo'lish o'rniga Xudo siylagan yerimizni, dengizimizni, jamiki daryolarimiz, oltin va Kumushlarimizni o'ziniki qilib olmoqchi garchand hech qayerda o'qimaydigan, to'pori va qo'pol ko'cha bolasi bo'lsada Yanguli boshqalar ko'z o'ngida o'zini hurmat va alohida e'tiborga sazovor bir shaxs sifatida gavdalantirishga urinadi.

Keyingi o'rinda Jamol obraziga e'tibor qaratadigan bo'lsak uning ruhiyatida Yanguli bilan mushtlashuv chog'ida beixtiyor ko'zi tushgan chap to'shining ustidagi "Hellados"

degan so'zni ko'rgan chog'idayoq unga nisbatan o'zgacha bir taassurot uyg'onadi. Bir necha bor bo'lgan ma'nosiz mushtlashuvlar va deyarli yarim yillik haqoratli so'zlar bilan bor bisotini namoyish etishdan charchagan bolalarda bu adovat so'ngida bir-birlariga nisbatan iliqlik, do'stona samimiyat uyg'onadi. Va nihoyat Yanguli Jamolni yaqin bir dardkash inson do'st sifatida bilib, unga ochiq haqiqatini, muddaosini aytadi. Qandoq tushuntirsam ekan - deya gap boshladi u nihoyat. - Onam yo'q hatto eslayolmayman ham. Otam uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida.

Men ko'chada, Venetsian ko'chasida kata bo'ldim. Mening Vatanim, mening Elladam bu - Suxumi, ko'cha, Chalbash; bu - Koka, Petya, Kurlika, Fema, Qora dengiz ko'prik. U bir yutinib olib, davom etdi: Bu- Mida qolaversa, sen Yanguli o'zi uchun qadrli bo'lgan, Vatanni anglatgan har narsani va har kimni Jamol uchun sanab o'tadi. Asar Yangulining ayanchli o'limi bilan yakun topsada undagi yagona haqiqat Vatan muhabbati deb atalmish bu mavhum tuyg'uni qalb qo'ri bilan his etish, uni anglashga bo'lgan harakat edi.

Elladaga olib ketadigan "Poseydon" kemasi go'yo Yangulini baridan ajralib qolishiga bir sababchidek edi. Oxir - oqibat u baribir otasining majburlovi, bosimiga qaramasdan, hayotini xatarga qo'yib Kelasuri daryosini kesib o'tmoqchi bo'ladi va halok bo'ladi. Dastlab salbiy obrazni yaratgan Yanguli Jamol uchun ham boshqalar uchun ham naqadar oliyjanob va mard ekanligini isbotlaydi.

Insonni qayta-qayta o'qib mulohaza qilishga chorlaydigan bu hikoya qalblarni jumbushga keltiradi. Beixtiyor ko'z yoshlarga sabab bo'ladi. Vatanni o'z dunyoqarashi bilan anglashga, sevishga, himoyalashga uringan hatto uning uchun jonini fido qilishgacha borgan inson haqiqiy vatanparvardir. Jamolga bu tuyg'uni anglatgan bosh timsol o'sha bitik emasmi?

Aslida xulosa o'rnida shuni aytishim kerakki, muallif uqtirganidek "Vatan -Ichkariroqda". Ha u qallda, eng tiniq tuyg'ularimiz bilan birga. Hamda yosh avlodga Vatan nima ekanligini o'rgatish, singdirish barchamizning vazifamizdir. Bu muqaddas tushunchani faqat purma'no so'zlarda, balandparvoz shior va gaplarda emas, balki amalda isbotlash muhimroqdir. Shunchaki unga sadoqat bilan, chin dildan xizmat qilish har birimizning burchimizdir.

Rasul Hamzatov, Kaysin Quliyev, Muhammad Otaboyev, qirdizistonlik Chingiz Aytmatov kabi ijodiy yutuqlari yuksak cho'qqiga chiqqan adiblar qatorida Lenin mukofotiga sazovor bo'lgan gruziyalik Nodar Dumbadze ham milliy adabiyotning yuksalishi, ikodiy jarayonning keng miqyosda qayta tiklanishiga ulkan hissa qo'shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Hellados" asari Nodar Dumbadze.
2. "Hellados" asari Nizom Komil tarjimai "Tafakkur" jurnali, 1995, 3-4-son
3. www.wikipedia.org.
4. "Поэзия Магомеда Атабаева в контексте дагестанской литературы: аспекты новаторства и национального своеобразия" Минатулаева, Мадинат Магомед Шапиевна, кандидат филологических наук, 2007.

МАКТАБДА МАТЕМАТИКА О'QITISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR - ТА'ЛИМ ШАКЛИ СIFATIDA

Ibragimova Nargiza Ibrohim qizi

Navoiy viloyati Navoiy shahar 3 - FFCHO'ITM matematika va informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada har bir o'qituvchi uchun kognitiv faoliyat motivatsiyasini qanday oshirish, o'quvchilarining ta'lim samaradorligini e'tibor qaratish masalalari doimo dolzarb bo'lib kelganligi, o'qituvchining o'zi o'qitadigan fan bo'yicha darsdan tashqari ishlar maktabdagi o'quv va tarbiyaviy ishlarning ajralmas qismi hisoblanishi, bunday faoliyat esa o'quvchilarning fikrlash, bilish va tadqiqot ishlarini rag'batlantirishga imkon berishi, bilimlarni chuqurlashtirishga hissa qo'shishi, ularning qiziqish doirasini kengaytirishi va o'quvchilarni o'z mavzusiga jalb qilishda katta tarbiyaviy rol o'ynashi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: faoliyat, qiziqish, harakat, kompetensiya, qobiliyat, e'tibor.

Sinfdan tashqari ishlar maktabdagi o'quv va tarbiya ishlarining ajralmas qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil etish shakllaridan biridir. Bu o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish va ularni hayotga tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ish turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi va insonni o'qitish va tarbiyalashda quyidagi imkoniyatlarga ega:

- sinfdan tashqari turli xil ishlar bolaning individual qobiliyatlarini har tomonlama ochib berishga yordam beradi;

- sinfdan tashqari ishlarning har xil turlarida qatnashish bolaning shaxsiy tajribasini boyitadi, uning inson faoliyatining xilma - xilligi haqidagi bilimlari, bola uchun zarur amaliy ko'nikmalarni egallashga yordam beradi;

- sinfdan tashqari turli xil ishlar bolalarning har xil faoliyat turlariga qiziqishini, jamiyat tomonidan tasdiqlangan ishlab chiqarish faoliyatida faol ishtirok etish istagini rivojlantirishga yordam beradi;

- sinfdan tashqari ishlarning turli shakllarida bolalar nafaqat individual xususiyatlarini namoyon etishadi, balki jamoada yashashni, ya'ni bir-biri bilan hamkorlik qilishni, o'rtoqlariga g'amxo'rlik qilishni, o'zlarini boshqa odamning o'rniga qo'yishni va boshqa insoniylik xislatlarni egallaydilar;

- matematika fanidan sinfdan tashqari ish hamma uchun ixtiyoriy, ammo o'quv soatlaridan keyin o'qituvchi bilan o'quvchilarning tizimli darslarini o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bunga quyidagilar kirishi mumkin:

- a) dastur materialini o'rganishda boshqalardan orqada qolayotgan o'quvchilar bilan ishlash, ya'ni, qo'shimcha darslar;

- b) boshqalar bilan taqqoslaganda matematikani o'rganishga qiziqish va qobiliyatini oshirgan o'quvchilar bilan ishlash.

Sinfdan olib boriladigan o'quv va tarbiya ishlari bilan sinfdan tashqari ishlar o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud. O'quv faoliyati, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, darsdan tashqari ishlarning tarqalishiga hissa qo'shadi va aksincha, o'quvchilarga bilimlarni amalda qo'llashga imkon beradi, bu bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, o'quvchilarning yutuqlarini va ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, sinfdan tashqari ishlar o'quv ishini takrorlamasligi kerak.

Matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarning asosiy maqsadlari:

1. O'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini uyg'otish va rivojlantirish.

2. O'quvchilarning dasturiy material bo'yicha bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish.
3. O'quvchilarning matematik qobiliyatlarini maqbul rivojlantirish va o'quvchilarga aniq tadqiqot qobiliyatlarini singdirish.

4. Matematik fikrlashning yuksak madaniyatini tarbiyalash.

5. O'quvchilarning o'quv va ilmiy - ommabop adabiyotlar bilan mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatini rivojlantirish.

6. Matematikaning texnika, ishlab chiqarish, kundalik hayotdagi amaliy ahamiyati haqidagi o'quvchilarning fikrlarini kengaytirish va chuqurlashtirish;

7. Matematika o'qituvchisi va o'quvchilar o'rtasida yaqinroq ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatish va shu asosda o'quvchilarning bilim, qiziqishlari va ehtiyojlarini chuqurroq o'rganish.

8. Matematika o'qituvchisiga matematikani samarali o'qitishni tashkil qilishda yordam beradigan faollikni yaratish: ko'rgazmali qurollar ishlab chiqarishda yordam berish, qoloq va past o'zlashtiruvchi o'quvchilar orasida matematik bilimlarni targ'ib qilish.

9. O'quvchilarda jamoada ishlash tuyg'usini va individual ishni jamoaviy ish bilan birlashtirish qobiliyatini tarbiyalash.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish qisman sinfda amalga oshiriladi deb taxmin qilinadi. Shu bilan birga, sinf faoliyati davomida, o'quv vaqti va dasturi doirasi bilan cheklangan holda, buni yetarli darajada to'liq bajarish mumkin emas. Shuning uchun ushbu maqsadlarning yakuniy va to'liq amalga oshirilishi sinfdan tashqari ishlarda o'tkaziladi.

O'quvchilarning ma'lum bir mavzuga munosabati turli omillar bilan belgilanadi:

- shaxsning individual xususiyatlar (o'qituvchi, o'quvchi);
- fanning o'ziga xos xususiyatlari;
- fanni o'qitish va o'qitish metodikasi;

Matematikaga nisbatan har doim turli toifadagi o'quvchilar mavjud:

- fanga o'ta qiziqadigan o'quvchilar;
- kerak bo'lganda u bilan shug'ullanadi va mavzuga alohida qiziqish bildirmaydi;
- matematikani zerikarli, quruq va umuman sevilmaydigan mavzu deb biladigan o'quvchilar.

Ushbu o'quvchilar guruhini hisobga olgan holda matematikani o'qitish metodikasi yaratilmoqda, sinfda va sinfdan tashqari ishlarning shakllari ishlab chiqilmoqda. uch guruhning har birining o'ziga xos vazni, ular orasidagi miqdoriy nisbati butun o'quv va tarbiyaviy ishlarning sifatiga bevosita mutanosibdir. Ushbu koeffitsientni birinchi guruh foydasiga o'zgartirish har bir matematika o'qituvchisining muhim vazifasidir, shuning uchun ishning shakllari, usullari va uslublarining ushbu o'zgarishga ta'sir darajasi ularni maqsadga muvofiqligi va samaradorligining eng muhim mezonlaridan biri deb hisoblashi mumkin. Shuning uchun ham matematika fanidan sinfdan tashqari ishlar asosiy muammolarni hal qilishga mo'ljallangan bo'lib,:

- matematik qobiliyatlarini namoyish etgan o'quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, matematik fikrlash darajasini oshirish;

- o'quvchilarning ko'pchiligida matematikaga qiziqishning paydo bo'lishi va saqlanishiga hissa qo'shish, ularning bir qismini matematikani sevuvchilar safiga jalb qilish;

- matematikaning insoniyat tomonidan to'plangan boyliklaridan foydalangan holda o'quvchilarning bo'sh vaqtlarida matematik bilimlar bilan shug'ullanishni tashkil etish.

Xullas, tavsiyalarimiz yakunida aytish mumkinki, matematikadan hali hamon davom etib kelayotgan muntazam ravishda sinfdan tashqari ishlarga faqat matematika faniga qiziqishi kuchli o'quvchilarni jalb qilish tendentsiyasiga qo'shilish mumkin emas. matematikadan tizimli ravishda olib boriladigan sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning aksariyat qismini qamrab olishi kerak, bu bilan nafaqat matematikaga ishtiyoqmand o'quvchilar shug'ullanishi

kerak (bu zarur), balki hali matematikaga intiluvchan bo'lmagan, o'z qobiliyatlari va moyilliklarini ochib bermagan o'quvchilar ham shug'ullansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Jumayev A. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. "Xalq ta'limi" jurnali, 2006. 4 - son.

2. Jumayev M. Boshlang'ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg'ulotlari. - T.: "Yangi asr avlodi", 2006.

3. Stoylova I. P., Pishkalo A. M. Boshlang'ich matematika asoslari. - T.: "O'qituvchi", 1991.

BEHZOD FAZLIDDIN IJODIDA O'XSHATISHLARNING QO'LLANILISHI**Kamolova Mashhura**
SamDU 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Behzod Fazliddinning o'xshatishlarni qo'llash mahorati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: uslub, she'r, badiiylik, o'xshatish, poetik mahorat, leksik va grammatik vositalar.

Adabiyotimizga 90-yillarda kirib kelgan yosh shoirlarimizdan biri Behzod Fazliddindir. Shoir she'rlari o'zining ma'no-mundariyasi kengligi, badiiyligi, yangi o'xshatishlarni qo'llash mahoratiga ko'ra boshqa shoirlar ijodidan farq qiladi. B.Fazliddin she'riyatining yana bir farqli jihati shundaki, u ko'pgina yosh shoirlardek muhabbat mavzusini kuylamasdan, falsafiy mazmundagi she'rlarni ijod qiladi. Shoir she'rlari bir qarashda tushunilishi juda osonday tuyulsa-da, chuqur mushohada qilib ko'rilsa, asl qa'rida bir hikmatni anglab olish mumkin. Shoir she'rlarida yaratganga muhabbat, o'zini anglash g'oyalari yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, Behzod Fazliddin xalqona shoirdir. Uning tili barchaga birdek tushunarli. Uning ijodi haqida O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron "Daqqiyunusdan qolgan dunyoda har bir asl oshiq ko'hna muhabbatni yashartirganidek, har bir yangi iste'dod ham eski mavzularni yangilaydi, ko'zimiz o'rganib qolgan dunyoga boshqacha nigoh tashlashga da'vat etadi. Behzodning she'rlarida men ana shu tozarishni, ana shu o'ziga xos nigohni, qolaversa, o'zim mansub bo'lgan avlodning adabiyotga kirib kelgan chog'laridagi bir nafasni sezgandek bo'ldi", degan edi. Haqiqatan ham, shoirning ijodida yangi mavzular salmoqli o'rin egallaydi. Behzod Fazliddin Xurshid Davron ta'kidlaganidek hayotga boshqacha nigoh tashlashga da'vat etadi, shoirning ko'pgina she'rlarida yangi va an'anaviy o'xshatishlarni qo'llaydi. O'xshatishini yuzaga chiqarishda esa leksik va grammatik vositalardan unumli foydalanadi. Bizga ma'lumki, "O'xshatishni hosil qiluvchi vositalar ikki xil bo'ladi: a) leksik vositalar (kabi, yanglig', singari, qadar, misol, misoli, o'xshamoq, deb, xuddi, go'yo, bo'lib, ravishda, monandi, rasmi), b) grammatik vositalar (-dek, -day, -daqa, -larcha, -cha, -paymo, -simon, -ona)" [2.15-18]. Shoirning "Uyg'onish" she'ridagi ushbu misralarni tahlilga tortamiz.

Ko'zlarimdan olovlar sachrar,
Qafasdagi sherday og'rindim.
Huvillagan odamzor ichra,
Hayot seni juda sog'indim.
Kundaligim bir xil: uy, yo'l, ish...
Qanoti yo'q qushga o'xshayman.
Tashvishlarning ortida tashvish...
Bu turishda qachon yashayman. [3.5]

Yuqoridagi she'rda "qafasdagi sherday", "qanoti yo'q qushga o'xshamoq" kabi o'xshatishlar qo'llangan bo'lib, bunda o'xshatishni -day qo'shimchasi hamda o'xshamoq fe'li yuzaga chiqargan. -day qo'shimchasi "O'zbek tilining morfem lug'ati"da -dek qo'shimchasining varianti sifatida ko'rsatilgan. "-day, -dayin ning asosan so'zlashuv uslubiga, -dek ning esa badiiy uslubga moyilligini ko'rsatadi" [1.14]. Behzod Fazliddin qo'llagan o'xshatishlarning ko'pchiligida -day qo'shimchasi faol ishtirok etadi. Nazdimizda, shoir bu yo'l bilan she'rlarini xalq tiliga yaqinlashtirgandek bo'ladi. Keyingi misralarda lirik qahramon o'zining ruhiy holatini "qanoti yo'q qush"ga qiyoslaydi va ahvolining juda tang ekanligini, ilojisiz qolganligini shu o'xshatish orqali ochib beradi. Shoirning "Eski haqiqat" she'riga diqqat

qilaylik:

Dunyo eski, tashvishlar eski,
Navqironday bu g'amlar ko'hna.
Qarsak chalib topamiz taskin,
Hayot o'zi eski bir sahna. [3.8]

Ushbu she'rdagi "Navqironday bu g'amlar ko'hna" misrasiga e'tibor qarataylik, shoir kishi boshiga tushadigan g'amlar aynan unga yangi bo'lsa-da, aslida hayot davomida azal-azaldan odamlarda turli tashvishlar, g'amlar bor ekanligini ta'kidlamoqda. Keyingi misralarda esa hayotni eski bir sahnaga qiyoslab, perifrastni yuzaga chiqaradi. Shu o'rinda atoqli dramaturg Shekspirning so'zlari yodimizga tushadi: "Hayot - bu teatr. Undagi odamlar - aktyorlar".

Behzod Fazliddin ijodidagi o'xshatishlarni kuzatar ekanmiz, u asosan -day va kabi vositalarini faol qo'llaganini ko'ramiz. Bu ikki vosita so'zlashuv uslubida ham faol bo'lgani sababli, shoir she'riyatini xalq tiliga yaqinlashtiradi.

Soyaday qadamim poylaydi Gunoh,
Meni o'zimdanda ko'p o'ylaydi Gunoh,
Nimaga yashashga qo'ymaydi Gunoh?! [3.9]

Yoki:

Yumalaydi toshlar betoqat,
Birdan kelgan kabi xo'rliqi. [3.13]

Shoir she'riyatida -day ning -dek varianti birmuncha kam ishlatilganini kuzatdik:

Borini unutib suygan kim mendek,
Nadomat to'nini kiygan kim mendek,
Bedillar dastidan to'ygan kim mendek,
Naylayki, dilsizga dil berib qo'ydim. [3.53]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Behzod Fazliddin ijodida qo'llangan o'xshatishlar xalqonaligi va o'quvchiga tez tushunilishi bilan ajralib turadi, bu esa shoirning poetik mahoratidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Каримов С. Бадийий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. - Самарқанд. 1994, 74 б.
- 2.Лапосов Ж. Бадийий матн ва лисоний таҳлил. - Тошкент: Ўқитувчи. 1995, 90 б.
- 3.Фазлиддин Беҳзод. Кутмаган кунларим, кутган кунларим. - Тошкент. 2012, 200 б.

МЕХНАТ ҚОНУНЧИЛИГИДА ХОДИМНИ МАЛАКАСИНИ АНИQLASHДА АТТЕСТАТСИЯ ВА УНИ О'ТКАЗИШНИНГ HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI.

Saodat Sattorovna Jabborova

Buxoro viloyati yuridik
texnikumi o'qituvchisi,
sattorovna1975@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada attestatsiya va uning mehnat qonunchiligida tutgan o'rni, zarurati hamda jahon tajribasi asosida xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Attestatsiya, yutuqlarni baholash, sifat, individual yutuqlarni baholash, birlamchi attestatsiya, davriy attestatsiya.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng inson va uning farovonligini ta'minlash yo'lida islohotlar davri boshlandi. Shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish davlatimizning ustuvor siyosati sifatida e'tirof etildi. Bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi iqtisodiy munosabatlarda yangidan yangi subyektlarning vujudga kelishiga, turli xil ijtimoiy institutlarning rivojiga, ayniqsa mehnat munosabatlarining takomillashuviga kuchli turtki bo'lib xizmat qildi[1]. Bu esa mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va ularni mehnatiga xolisona baho berish, hamda kadrlarni bilim darajasini oshirishni talab qiladi. Ma'lumki, har qanday tashkilot va korxonalariga o'z professionalizmini muntazam oshirib boradigan malakali mutaxassislar har doim kerak hisoblanadi. Xodimlarning professional bilim va ko'nikmalari darajasi, ishbilarmonlik sifatlarini to'g'ri baholash uchun ularning malakasi va egallab turgan lavozimiga munosibligini vaqti-vaqti bilan tekshirib turishni taqozo qiladi. Odatda, bunday tekshiruv xodimlarni attestatsiyalash asosida amalga oshiriladi. Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish ma'lum bir lavozimni egallagan va muayyan funksiyalarni bajaradigan xodimning malakasini tasdiqlash uchun amalga oshiriladi.

Attestatsiyani o'tkazish tartibi mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari, normativ hujjatlar va xodimlarning vakillik organi fikrini inobatga olgan holda qabul qilinadigan, korxonaning boshqa lokal hujjatlari bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida ham xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish masalalarini tartibga soluvchi bir qancha normativ hujjatlar qabul qilingan bo'lib, jumladan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Yuridik xizmatlar xodimlarining attestatsiyadan o'tkazish va ularni malakasini oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom, "Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarini kompyuter savodxonligining minimal darajasi bo'yicha talablarga muvofiqligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom, shuningdek "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomlar shular jumlasidandir.

Shu o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni 4- bandiga hamda 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 228-bandiga muvofiq 2022-yil 1-yanvardan boshlab pedagog xodimlarga malaka toifasini berishning yangi tizimi joriy qilindi. Unga ko'ra, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus,

professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) hamda ta'lim muassasalari miqyosidagi attestatsiya komissiyalari tuzish va yig'ma jild orqali hujjat topshirish amaliyoti bekor qilinishi belgilandi. Shuningdek, pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish ularning pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligini baholash hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan o'quv fani bo'yicha malaka sinovini o'tkazish orqali amalga oshirilishi belgilandi.

Bugungi kunda pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifasi berish bo'yicha hujjatlarni qabul qilish pedagog kadrlar tomonidan davlat xizmatlari markazlariga borgan holda yoki mustaqil ravishda O'zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud Ta'lim inspeksiyasi rasmiy veb-saytidagi maxsus portal orqali amalga oshirilishi joriy etilgan.

Shu bilan birga pedagog kadrlarga qog'oz shaklidagi attestatsiyadan o'tganlik to'g'risidagi sertifikat berish amaliyoti bekor qilinib, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va QR-kod qo'yilgan elektron shakldagi sertifikat berish tartibi joriy etilishi belgilangan. Qolaversa pedagog kadrlarga ushbu qaror qabul qilingunga qadar berilgan attestatsiyadan o'tganlik to'g'risidagi sertifikatlar o'z kuchida qolishi hamda amaldagi malaka toifasini tasdiqlashda va amal qilish muddati tugagunga qadar sertifikatda ko'rsatilgan malaka toifasi bo'yicha bazaviy tarif stavkalari asosida haq to'lashda hisobga olinishi tasdiqlandi[2]. Ushbu imkoniyatlarning yaratilishi albatta xodimlarning attestatsiya bilan bog'liq ayrim ovoragarchiliklarni oldini olishga yordam beradi.

Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishni tartibga solish hamda attestatsiyadan o'tkazishni tartibga solish bo'yicha normativ hujjatlarning ko'p ekanligiga qaramay, attestatsiyaning muhim qoidalari, xususan uni o'tkazishning asosiy prinsiplari, baholash mezonlari, huquqiy oqibatlari, xodimlar huquqlarining kafolatlari bo'yicha hozirgi kunga qadar yagona yondashuv ishlab chiqilmagan.

Nazarimizda bunday holatni vujudga keltiruvchi bir necha sabablar mavjud.

Birinchi, Attestatsiyadan o'tkazishni huquqiy tartibga soluvchi normativ huquqiy hujjat to'la mukammal darajada emasligi,

Ikkinchi, Attestatsiyani tashkil etish uni o'tkazish va uning huquqiy oqibatlari bilan bog'liq muammolarning to'liq o'rganilib chiqilmaganligi;

Uchinchi, xodimni attestatsiyadan o'tolmaganlik sabablari to'liq tahlil qilinmayotganligi va ushbu holatni bartaraf etish choralarini yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, buning oqibatida ko'proq xodim zarar ko'rishini mumkinligi ushbu holatlarni vujudga keltiruvchi sabablar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shu o'rinda attestatsiyadan o'tkazish tartibi ayrim xorijiy davlatlarda qanday joriy qilinganligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Yaponiya hamda Germaniya davlatlarida davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi jarayonini tahlil qilish mobaynida Germaniyada davlat xizmatchilarining attestatsiyasi taxminan besh yilda bir marta amalga oshiriladi. U davlat boshqaruvi organining kadrlar xizmati tomonidan amalga oshiriladi va unda xodimning bevosita rahbari ham ishtirok etishi shart. Shu bilan birga, menejer yiliga ikki marta xodimlar bilan suhbat o'tkazadi. Ushbu turdagi suhbatlarning maqsadi xodimning ish faoliyatini baholashdan iborat bo'lib, ular orqali qayta tayyorlash, malaka oshirish va lavozimni oshirish zarurati aniqlanadi. Suhbat natijalari "xodimning martaba pasporti" deb ataladigan hujjatda qayd etiladi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, Germaniyada davlat xizmatchilarining attestatsiyasi sertifikatlangan xodim tomonidan ijodiy loyiha ishlab chiqish asosida amalga oshiriladi. Loyihani baholash mezonlari uning o'ziga xosligi, dolzarbligi, foydaliligi va amalga oshirilishi bilan belgilanadi.

Yaponiyada davlat xizmatchilarining attestatsiyasi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mamlakatning aksariyat davlat muassasalari va tashkilotlarida "umr bo'yi bandlik" deb ataladigan tizim amal qiladi. Ushbu tizim xodimning nafaqaga chiqqunga qadar bir tashkilotda uzoq vaqt xizmat qilishini nazarda tutadi. Yaponiyada davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish imtihon bo'limi va to'rtta bosh imtihonchidan iborat bo'lgan Xodimlar kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Yaponiya davlat xizmatchilari faoliyatini har tomonlama baholash tartibi amalga ishlab chiqilgan.

Yaponiyada har yili va xodimlarning shaxsiy ma'lumotlarini (ularning ta'lim darajasi, oilaviy ahvoli, shaxsiy fazilatlarini, xushmuomalaligi va shaxsiy ishda mavjud bo'lgan o'tgan yillik baholash natijalarini) o'rganish bilan boshlanadi.

Bizning qonunchiligimizda xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishni tartibga soluvchi hujjatlar mavjud bo'lsada, baholash mezonini ko'rsatilmagan. Faqatgina komissiya xulosasiga ko'ra xodim attestatsiyadan o'tgan yoki o'tmaganligi ko'rsatiladi xolos. Birgina Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi" Nizomda xodimni 100 ballik tizim asosida baholanishi belgilab qo'yilgan. Qolgan boshqa normativ hujjatlarda attestatsiyadan o'tuvchi xodimlar nechki ballik tizim asosida baholanishi ko'rsatilmagan. Sundan kelib chiqib, barcha soha xodimlarini attestatsiyadan o'tkazishda 100 ballik tizimni joriy etish, attestatsiya davri oralig'ida amalga oshirgan ishlarini hisobga olgan holda ballik tizimda baholash, xodimdan nafaqat qilgan ishlari bo'yicha hisobot, balki kelgusida amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlari yuzasidan ham reja so'ralishi va shundan kelib chiqib ballik tizimda baholanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rahimqulova, Lola. "The Procedure For Resolving Individual Labour Disputes In Uzbekistan, Post-Soviet Countries And Some Developed Countries. Comparative-Legal Analysis." *Ilkogretim Online* 20.3 (2021).

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori "Maktabgacha umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 572- sonli Qarori. [https:// lex.uz](https://lex.uz).

3. Геврасёва А.П Совершенствование процедуры аттестации государственных служащих в республике Беларусь. *Эпоха науки* №20.2019

4. Набиев В.В О зарубежном опыте на службу и аттестации государственных служащих. *Вестник*. 2017 г <https://cyberleninka.ru/>

5. Муродуллаев, Достонжон. "ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫХ СТАНДАРТОВ В ОБЛАСТИ ОХРАНЫ ТРУДА." *Review of law sciences* 4. Спецвыпуск (2020).

6. Юсупов, Нодирбек. "Рабочее время как элемент индивидуального трудового правоотношения и как институт трудового права." *Общество и инновации* 2.2/S (2021): 339-348.

7. Хожабеков, Муфтулла. "Дистанционный метод организации труда работников в Узбекистане." *Review of law sciences* 2 (2020): 115-118.

O'RTA OSIYOLIK ALLOMALARNING TABIAT VA EKOLOGIYA HAQIDAGI FIKRLARI

Naimova Dildora Abdurasulovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar 3 - FFCHO'ITM Biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyolik qomusiy olimlar Muhammad Muso al - Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning tabiat va ekologiya haqidagi fikrlari, hayvonot va o'simliklar dunyosi hamda tabiatni e'zozlash haqidagi fikrlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyolik qomusiy olimlar Muhammad Muso al - Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, "Kitob surat alarz", "Kitob al - hajm va almiqdor", "Saydana", "Tib qonunlari", "Boburnoma".

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al - Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar. Buyuk alloma Muhammad Muso al - Xorazmiy (782 - 847) risolalaridan birida bunday deb yozadi: "Bilingki, daryoning ko'zlari yoshlansa uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar". Daryoning yoshli ko'zlari deganda Muhammad Muso al - Xorazmiy nimalarni ko'zda tutdi ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk bobomiz eng avvalo daryo bilan odamlarning bir - birini tushunishlari va til topishishlari, o'zaro mehr - muhabbat qo'yishlarini nazarda tutgan.

847 yilda Muhammad al - Xorazmiy "Kitob surat alarz" degan asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit'alar, qutblar, ekvatorlar, ko'llar, tog'lar, daryo va dengizlar, cho'llar, o'rmonlar va ulardagi o'simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek boshqa tabiiy resurslar - Yerning asosiy boyliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek dunyo xalqlarining tabiiy ko'nikmalari va tarixiy huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.

O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy - falsafiy fikrining eng yirik va mashhur vakillaridan biri Abu Nasr Forobiyning (870 - 910 yillar) ilmiy - falsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlari hozirgacha to'liq aniqlanmagan. Nemis olimi M. K. Brokkelmanning ro'yxatida Forobiyning turli sohalarga oid 180 ta asarining nomi keltiriladi. Bu asarlar bir necha guruhlariga bo'linadi. Shulardan 11 - guruhga Forobiyning tabiatshunoslik ilmi, amaliy faoliyat va hunarmandchilik masalalariga oid asarlari kiritilgan. Forobiy tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan bo'lib, "Kitob al - hajm va almiqdor", "Kitob al - mabodi al - Insoniya" ("Insoniyatning boshlanishi haqida kitob"), "Kitob fia'zo al - hayvon" ("Hayvon a'zolari to'g'risida kitob") nomli asarlari bunga dalil bo'la oladi. Forobiy o'zining "Ixsoa al - ulum va al - ta'orif" asarida zamonasidagi ilmlarni har tomonlama o'rganib, ularni ma'lum tizimga solib, turkumlarga ajratdi, har bir ilm tarmog'iga ta'rif berishga harakat qildi, tabiatshunoslik ilmiga katta e'tibor berdi. Tabiatshunoslikka oid "Odam a'zolarining tuzilishi" ("Risolat fi - a'zo al - inson"), "Hayvonlar a'zolari va ularning vazifalari haqida" kabi asarlarida odam va hayvonlar ayrim a'zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida, ularning o'xshashligi va farqlari keltirilishi bilan birga asosiy anatomik - fiziologik tushunchalar berilgan. Ular ning ruhiy holatlaridagi xususiyatlari haqida ham to'xtab o'tilgan. Odam a'zosinng tuzilishi va vazifalari haqida

so'z yuritilganda ularning o'zaro bog'liqligi va yaxlitligi ularda kelib chiqadigan o'zgarishlar, ya'ni kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi, deb tushuntiriladi.

Forobiy tabiiy va inson kuchi bilan yaratiladigan sun'iy narsalarni ajratgan. U tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilgan, degan xulosaga keladi. Inson omilining ta'siri katta ekanligini, tabiiy va sun'iy tanlash hamda tabiatga ko'rsatiladigan boshqa ta'sirlarni atroflicha baholagan.

Abu Rayxon Beruniy (973 - 1048 yillar) koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari bilan narsa va hodisalarning o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. Olim yerdagi ba'zi hodisalarni quyoshning ta'siri bilan izohlaydi. Uningcha, inson tabiat qoidalariga rioya qilgan holda borliqni ilmiy ravishda to'g'ri o'rgana oladi. Beruniy ba'zi tabiiy - ilmiy masalalarda tabiat hayotidagi dialektikani topishga harakat qiladi va shu tarzda, umumiy shaklda bo'lsa ham, keyingi davrlardagi tabiatshunos olimlarga ba'zi muhim ilmiy yutuqlarga erishish uchun yo'l ko'rsatib beradi. Masalan, Beruniy aytadiki, "Yerdagi o'simlik va hayvonlarning yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangandir. Lekin o'simlik va hayvonlar cheksiz ko'payishga intiladi va shu maqsadida kurashadi". Beruniy tabiatshunos sifatida tabiat haqida quyidagicha fikr yuritadi: "Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi". Demak, fikrimizcha, garchi dunyo cheklangan bo'lsa - da, kunlar o'tishi bilan bu ikki o'sish natijasida ko'payish cheklanmaydi.

Agarda o'simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o'sishiga sharoit bo'lmay, o'sishdan to'xtasa ham boshqalarida bu ahvol bo'lmaydi. Ular birdaniga paydo bo'lib, birdaniga yo'q bo'lib ketmaydi. Balki ularning biri yo'qolsa ham, u o'z o'xshashini qoldirib ketadi. Agar yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko'payishiga ham, daraxtning o'sishiga ham o'rin qolmaydi. Shu sababdan dehqonlar ekinlarni o'toq qilib, keraksizini yulib tashlaydi. Bog'bon ham daraxtlarning meva beradigan shoxlarini qoldirib, keraksizini kesib tashlaydi.

Beruniy asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy asarlari ichida asosan "Saydana", "Mineralogiya", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kabi asarlarida tabiat haqidagi ma'lumotlar uchraydi. Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Eronning turli tropik o'simlik va hayvonot dunyosini bayon etgan. Ushbu asarda o'simlik va hayvonlarning tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq - atvori yil fasllarining o'zgarishi bilan bog'liq ravishda o'zgarishi misollar bilan tushuntirib o'tgan. Jumladan, asarda qish qattiq sovuq kelsa, uy hayvonlarning tog'dan tekisliklarga tushishi, chumolilarning uyasiga bekinib olishi va hokazolar ifoda etiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning nomi aytilganda boshqalar uni shoir deb biladi. Uning g'azallari juda jozibador, har kimga manzur. Ammo Bobur faqat shoirgina bo'lib qolmasdan, balki podshoh, sarkarda, tarixchi va mashshoq, ovchi va bog'bon, sayyoh va tabiatshunos ham bo'lgan. Bobur asarlari bamisoli tengi yo'q bir xazinadir. "Boburnoma" Boburning eng yirik asaridir. Asarda Boburning ko'rgan-kechirganlari, yurgan joylarining tabiati, boyligi, odamlari, urf - odatlari, hayvonot, o'simliklari va boshqalar tasvirlangan. Har bir kasb egasi bu kitobdan o'ziga keragicha ma'lumot topadi. Asar muhim atamalar va toponomik manbalarga boy. Unda yer, suv, havo, turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so'zlari ko'plab topilgan. Bobur tabiatdagi ba'zi hodisalarni tasvirlaganda ularni mutlaqo mo'jizalarga boy demaydi. U ko'zi bilan ko'rgan har bir mamlakatning qaysi iqlimga mansubligini yozadi. Bobur iqlim va meteorologiya hodisalari bilan ham qiziqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. А.Т. G'ofurov va boshqalar. Biologiya. "Sharq" nashriyoti. Toshkent - 2017.

2. А. Abdulkarimov, А.Т. G'ofurov, К.Н. Nishonboyev, J.Н. Hamidov, В. Toshmuhamedov, О. Eshonqulov. Biologiya. Toshkent - 2015.

JÁMIYETTE EKOLOGIYALIQ DÚNYAQARASTIŃ JETIKLIGIN TÁMIYNLEWDIŃ SALAMAT RUWXIY ORTALIQA TÁSIRI

Qosnazarova Palzada Quwanishbaevna

Berdaq atindađi Qaraqalpaq Mámleketlik Universiteti Yuridika fakulteti

Annotatsiya: Maqalada O'zbekstanda puxaraliq ja'miyetin rawajlandirivda ja'miyette ekologiyaliq dunyaqaras ha'm salamat ortaliqti qa'liplestiriv boyinsha a'melge asirilip atirg'an ameliy isler, ekologiyaliq ta'lim-tarbiya ha'm reformalar haqqinda soz etiledi.

Tayanish sozler: Shaxs ruwxilig'i, ruwxiy madeniyet, ekologiyaliq ortaliq, tabiyattan paydalaniv ekonomikasi.

Mámleketimiz rawajiniń házirgi basqishında ekologiyaliq mashqalalardıń keskinlesip global mazmunğa iye bolıp baratırǵanlıǵı insan, millet, jámiyet ómirindegi tábiyattı sap halında saqlawğa, onı hár tárepleme qorǵawğa baǵdarlandırılǵan materiallıq hám bilimlendiriv faktorlarınıń ornı hámde áhmiyeti artıp barıwına sebep bolmaqta. Hár bir shaxsta ekologiyaliq sana hám dúnyaqarastı qalıplestiriv, onı bayıtıp barıw tek dástúriy ǵana emes jámiyeti, al biz qurmaqshı bolıp atırǵan puqaralıq jámiyetiniń qurılıshıları bolǵan adamlarımızdıń intellektuallıq potencialı, jámiyet hám tábiyat hádiyselerine salamat oylaw tiykarında múnásibette bolıwǵa tikkeley baylanıslı bolıp tabıladı.

Shaxs ruwxiy mádeniyatı sistemasında ekologiyaliq dúnyaqarastıń qalıplesiw mental xarakterge de iye boladı. Áyne waqıtta individual sociallıqsız ruwxiy mádeniyat ózine tán strukturalıq qádemi bolǵan ekologiyaliq dúnyaqarasta da tolıq óz kórinisin taba almaydı. Soǵan kóre, shaxstıń ekologiyaliq sanası hám dúnyaqarasın qalıplestirivdegi individuallıq hám sociallıq qásiyetlerine bilimlendiriv faktorlar tiykarında jantasıw, tálim-tarbiyada da áne sol princip ústinligin támiyinlew zárúr.¹

Ókinish penen aytıw múmkin, aqırǵı júz jıllıqta áyne aymaqlıq ekologiyaliq sistemaǵa júdá úlken zıyan keltirildi. Babalarımızdıń tabiyattan paydalanıw tarawındaǵı dástúriy ádep-ikramlıq qaǵıydaları esten shıǵarıp jiberildi. Áne sol qádrیاتlardı umıtw sebebinen ilim-pándi, texnika hám texnologiyalardıń rawajlanıwı da ekologiyaliq processlerge óz tásirin ótkeredi. Adamlıq jámiyetiniń joqarı dárejede rawajlanıwı ilim-pán hám texnika tiykarında qurılǵan sanaat tarmaqların júzege keltirdi. Suw saqlaǵıshlar, jańa-jańa qala-awıllardıń qurılısı insan menen tábiyat ortasında jańa múnásibetlerdi qalıplestiredi.² Maǵlıwmatlarǵa qaraǵanda, bir raketa ushıwı dawamında on mıń tonnaǵa jaqın ozon jemiriledi eken. Bir ǵana rawajlanıwdıń kúshli páti menen insannıń tábiyatqa tásiri keń kólemde ósip barmaqta. Tábiyattıń ekologiyaliq turaqlılıǵı hám onıń tábiyiy nızamlarınıń buzılıwına tábiyattıń keleshektegi ekologiyaliq jaǵdayı qanday bolıwın aldınan kóre bilmew sebep boldı. Ekologiyaliq bilim hám dúnyaqarastıń tómenligi áne sonday unamsız xjaǵdaylarǵa alıp keldi. Ekologiyaliq bilim bul tiri tábiyat dúzilisi, rawajlanıwı, ózgeriwı, jer maydanındaǵı tiri janatlarđıń jaǵdayı, olardıń bir-biri hám átirap-ortalıq ortasındaǵı múnásibetleri, tábiyiy baylıqlardıń sanı hám sapası, kólemi, túrleri hámde olardı saqlaw hám puxtalıq penen paydalanıw jolların ózlestirivden ibarat esaplanadı.³

Ekologiyaliq tálim-tarbiyanıń túpkilikli mánisi — bul tábiyat hám jámiyet ortasındaǵı ajıralmaslıqtı, olardı bir-birlerine baylawshı tábiyiy hámde jámiyetlik nızamlardı úyreniw, turmısqa endiriv jolı menen tábiyiy turaqlılıqtı saqlawdan ibarat.⁴

Ekologiyaliq tálim-tarbiya - bul insannıń tábiyatqa qádem qoyǵan waqtınan baslap, pútkil ómiri dawamında tabiyattan sanalı túrde paydalanıp, psixologiyaliq, ádep-ikram maydanınan xalqımızdıń tábiyatqa bolǵan húrmet-itibarı menen qaraytuǵın jaqsı úrp-ádetleri tiykarında jaslardı tarbiyalaw, olarda tábiyat, onıń hár túrli baylıqlarına mehir-muhabbat oyatıw, puxtalıqqa úyretiw, tábiyiy baylıqlardı kóbeytiw, baǵlar, gúzarlar shólkemlestirivge úndew, olardıń qálbinde jaqsı pazıyletlerdi oyatıwdan ibarat.⁵ Ekologiyaliq tálim-tarbiyanıń maqseti — insandı orap turǵan tábiyiy ortalıq hám onıń baylıqların biletuǵın, puxtalıq penen paydalanatuǵın, saqlaytuǵın, tábiyat baylıǵına baylıq, gózzallıǵına gózzallıq qosatuǵın, jámiyetlik hám tábiyiy nızamlardı biletuǵın bilgir shaxstı jetistiriv hám tarbiyalawdan ibarat esaplanadı. Áyne payıtta, ekologiyaliq tálim-tarbiyanı ámeliy iskerlik penen birge alıp barıw jaqsı nátiye beredi. Xalqımızda «nál ek, baǵ

jarat», «óziń kógereyin deseń, terek kógert», «bir top tut ekken adam júz jıl gáwhar teredi», «birdi kesseń, ondı ek», «jaqsıdan bağ qaladı» sıyaqlı hikmetler biykarğa payda bolmağan. Bul hikmetler adamlardıń ekologiyalıq sanasın qalıplestiriw hám rawajlandırıwda áhmiyetli rol oynaydı.⁶

Joqarıdağı wazıypalardı ámelge asırıwda baqsha tárbiyashıları, mektep hám oqıw orınları oqıtıwshıları túrli oynılar, kinofilmler arqalı tábiyiy hám sociallıq pánlerdi oqıtıwda ózleri jasap turğan tábiyiy barlıq hám ekologiyalıq jağdaylarğa baylanıstırıp tálim-tárbiya jumısların alıp barıwı kerek. Jaslardı ana Watanğa muxabbat, onıń tábiyat sawğalarınan aqılğa uğras paydalanıw, átirap-ortalıqtı kóz qarashıında asıraw ruwxında tárbiyalaw - ámelge asırılıp atırğan reformalardıń eń áhmiyetli bólegine aylanıwı kerek. Ókinish penen aytamız, respublikamız joqarı oqıw orınlarınıń oqıw rejelerinde ekologiyalıq pánlerge ajratılğan saatlar kolemi kem. Bunıń ústine ayırım joqarı oqıw orınlarında ilgeri oqıtılğan «Tábiyattan paydalanıw ekonomikası» páni oqıw jobalarınan alıp taslangan.⁷ Respublikamız televideniyesi hám radiosında hápteniń málim kúnlerinde ekologiyalıq temada sáwbetler ótkizip turıw ushın arnawlı bir efir waqtı berilse nur ústine nur bolar edi.

Juwmaqlap aytqanda, joqarı hám orta arnawlı bilimlendiriw mákemelerinde ekologiyalıq qánigeler tayarlaw hám kadrlar mamanlıgın asırıwdıń pútkil processin qamrap alatuğın ulıwma, kompleks hám úzliksiz ekologiyalıq tálim hámde tárbiya boyınsha bağdarlamalar kompleksin islep shıǵarıw waqtı keldi. Bulardıń hámmesi respublikamızdağı ekologiyalıq jağdaydı basqıshpa-basqısh salamatlastırıw, házirgi hám keleshek áwlad párawanlıgın, materiallıq rawajın kóteri w ushın úlken múmkinshilikler jaratadı.

Paydalanılǵan adebiyatlar.

¹Исроилов Б., Машарипова Г., Аждодлар мероси ва маънавий тарбия. Т.: «Маънавият», 2015

² Экологик тафаккур ва экологик маданият тарбияси. Т.: «Фан», 2013й., 67-б.

³ Бердиев Б. Ўзбекистон миллий экологиялық хавфсизлигининг минтақавий хусусиятлари. // Мустақил Ўзбекистон: фалсафа илимларининг долзарб машқалалари. Т.: Фалсафа ҳәм хуқуқ институти, 2003й., 45-б.

⁴ WWW religion.ng.ru

⁵ Хақимов Д. Табиатга муносабат масалалари. Т.: Фан, 2013й., 118-б.

⁶ Зиёев З. Қадриятлар уммонидан нур. Т.: «Фан», 2009й., 73-б.

⁷ Танирбергенов С. Иқтисод ва экология. Экологик инқироз шароитида худудий ижтимоий ривожланиш йўллари масалалари. Нукус, -2004й., 31-б.

O'YIN TEXNOLOGIYASI VOSITASIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Samandarova Sitora A'zamovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar 3 - FFCHO'ITM
Ingliz tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili darslari jarayonida o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini shakllanishi va rivojlanishda o'yin texnologiyasidan foydalanish va ularning ahamiyati to'g'risida fikrlar bayon etilgan.

Tayanch iboralar: Og'zaki nutq, o'yin texnologiyasi, rolli o'yinlar, metod, leksik o'yinlar, grammatik o'yinlar, fonetik o'yinlar, orfografik o'yinlar.

Dars jarayonlarida o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda o'yin texnologiyasidan foydalanish his - hayajonni, diqqatni, imkoniyatni oshiradi va o'quvchini bilimli, kuchli, tezkor bo'lishini talab qiladi. Metodika o'yinni vaziyatli mashq deb talqin qiladi. O'yin quyidagi metodik vazifalarni hal qilishga yordam beradi:

- 1.O'quvchilarning nutqini rivojlantirish uchun psixologik tayyorgarligini tashkil qiladi.
- 2.O'quvchilarga til materiallarini, nutq namunalari ko'proq qaytarib qo'llashga tabiiy vaziyat, holat vujudga keltiradi.
- 3.O'quvchilar sharoitga, vaziyatga qarab mustaqil tayyorlanmagan nutq qilishga o'rganadilar.

Til materiallarini amalda qo'llashni, tinglab tushunishni, gapirishni, o'qishni o'rgatishda, rivojlantirishda turli xil o'yin turlaridan foydalaniladi. Til materiallarini qo'llashni faollashtirish malakalari uchun leksik, grammatik, fonetik va orfografik o'yin turlari qo'llaniladi. Yana ijodiy o'yin, mazmunli o'yin, taqlid qilish o'yin turlari bor.

Leksik o'yinlar:

- 1.O'qituvchi stol ustiga predmetlarni qo'yib, inglizcha aytadi va kim tez ola olsa, shu yutadi.
- 2.Bir o'quvchi bitta so'zni o'ylaydi, qolganlar "Is this a pen? Is this a book?", deb so'raydi, o'quvchilar topa olmasa "No, it is not", topishsa "Yes, it is" deb javob beradi. Shu o'yinni aksini qilib o'ynash mumkin. O'quvchilar bitta so'z o'ylaydi, bir o'quvchi "Is this a pen? Is this a pensil?", deb so'raydi. O'quvchi esa "Yes it is" yoki "No it is not", deb javob beradi. O'yin o'ylangan so'zni topilishi bilan tugaydi.

Grammatik o'yinlar muhim zarur Grammatik tuzilmalarni qo'llashni o'rgatish, rivojlantirish uchun o'tkaziladi. Bunday o'yinlarga ko'pincha "to be, to have, may, must, can fe'llari, there is there are" iboralari olinadi. O'yinlar ko'pincha musobaqa tarzida o'tadi, ularda boshlovchi va boshqaruvchilar bo'ladi.

Fonetik o'yinlar o'quvchilarning talaffuzini mashq qildirish, she'rlarni baland ovozda talaffuz qilishga o'rgatishda ishlatiladi. Bunda she'rlar o'quvchilar bilan oldin yodlanadi, so'ng yoddan musobaqa qilib aytiladi.

- 1.Kim {r}tovushi bor so'zlarni tez, to'g'ri talaffuz qiladi, bunda 2 o'quvchi qatnashadi.
- 2.Kim [y] tovushi bor so'zdan ko'p topib tez, to'g'ri talaffuz qiladi va yozadi.
- 3.She'r aytirish kabilar.

Orfografik o'yinlar. Bu o'yinlardan yozuvni o'rgatishda foydalaniladi. Bunda yo'yinlarni ham turi ko'p bo'lib, men quyidagilarini aytib o'tmoqchiman.

- 1.O'qituvchi 2 ta o'quvchini qo'liga alohida qog'ozga yozilgan harflarni berib, "pencil" deydi, kim tez doskaga borib shu so'zni yasasa, u g'olib sanaladi.
- 2.Doskada so'zlarni bitta bosh va oxirgi harfini yozib to'ldirish.
- 3.Kim ko'p so'z yozish kabilar. Bu o'yinlar ham musobaqa tarzida o'tadi.

Hozirgi paytda ingliz tilini o'rgatishda rolli o'yinlardan keng foydalaniladi. Ular oldimizga qo'ygan maqsadga erishishda, qiziqtirishni orttirishda, darsga jalb qilishga salmoqli ijobiy yordam beradi.

Three bears

Characters: Father bear, Mother bear, Baby bear, Little girl.

Scene I

(Three Bears are sitting at the table, drinking milk.)

Mother Bear: Take your cup, Father!

Father Bear: Thank you!

Mother Bear: Take your little cup, Baby.

Baby Bear: Thank you, Mummy dear! Mother, it is too hot!

Father Bear: Then let us go for a walk.

(The Bears go out of the room.)

Scene II

(A little girl comes in and looks round)

Little girl: Whose room can it be?

(Looking at the table). I am hungry.

(Sits down at the table and tastes the milk). Oh, this milk is too hot for me!....

Oh, this milk is too cold for me!...

This milk just right for me.

(The noise of the Bears steps is heard. The Girl hides under the table).

Scene III

(the Bears enter the room and take their places at the table).

Father Bear: My cup is not full.

Mother Bear: And my cup is not full.

Baby Bear: And my cup is empty.

(They look round) Oh, who is this?

A little girl!

Father Bear, Mother Bear and Baby Bear:

Let us eat her up!

Little girl: No, you won't!

(Runs away. The Bears try to catch her, but fall down).

Mother Bear: It is your fault.

Father! You fell and I fell, too!

Baby Bear: And I fell because you fell.

(All together, shaking their heads): And the Little girl has run away. Oh, oh, oh.

Xullas, o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda umumta'lim maktablarida o'qitiladigan darslar jarayonlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish samarali natijalarni beradi.

Adabiyotlar

1. Жалолов Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1996.
2. Зарипова Р. А. Чет тиллар ўқитиш методикасидан қўлланма. - Т.: Ўқитувчи, 1986.
3. Зимняя И.А. Психология обучения иностранным в школе. - М.: Просвещение, 1991.
4. Ляховицкий М.В. Методика преподавания иностранных языков: Учебное пособие. - М.: Высшая школа, 2016.

O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARINING O'RNI

Sharipova Shahnoza A'zamovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar 3 - FFCHO'ITM
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan ona tili va adabiyot darslari jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish maqsadida o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar va ularning asosiy omillari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'z: nutq, dars, asar, til, so'z, suhbat, o'qituvchi, o'quvchi, savol, og'zaki, yozma.

Dars davomida badiiy asar tahlili asosidagi suhbatlar o'qituvchining qiziqarli va jozibali nutqlari, so'z shodalariga munosabatlari bilan jonliroq chiqadi. Lekin ayrim hissiyotlarga to'yingan asarlarning tahlili jarayonida o'qituvchi suhbat davomida kamsuqumroq bo'lishi ham zarar qilmaydi. U inson hissiyoti o'ta nozik ekanini, kichkinagina ehtiyotsizlik uni jarohatlab qo'yishi, bu bilan o'quvchi samimiyati barbod bo'lishi mumkinligini bilishi lozim. Suhbat davomida shunday lahzalar bo'ladi, o'qituvchining sukuti barcha xususiyatlari bilan savolga, ba'zan esa xulosaga teng bo'ladi. Shu o'rinda adabiyotshunos olim, Ro'zmon Keldiyorovning "EHTIYOT BO'LING, QALB BOR!" degan da'vatini qo'llash juda o'rinli bo'ladi.

Zamonaviy o'qituvchiga xos bo'lgan muhim sifatlardan biri - har doim biror narsani o'ylab topishga intilish, o'quvchilarni ham shunga undashdan iborat. Agar pedagog o'quvchini tushuna olsa, uning ichki hissiyotlari va intilishlarini anglasa, u, albatta, o'quvchining qalbini ochish uchun mos kalitni topadi. Ta'lim jarayonida o'quvchining og'zaki va yozma nutq salohiyatini rivojlantirish borasida innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda hamda bunday ish uslubi o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Ta'lim jarayonida interfaol yondashuv o'qituvchilar uchun dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit yaratadi. O'quvchilarning o'zaro fikr almashishlariga imkon beriladi, muvofiq sharoit yaratiladi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjihatlikda muhokama etadilar, yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir - birlariga namoyish etadilar. Bir - birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladilar. Har bir ishtirokchi o'zini ta'lim mazmunining muallifidek his etadi. Ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishadilar. Shu asosida bilimlarini bir - birlariga namoyish etadilar. Bir birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladilar. Har bir ishtirokchi o'zini ta'lim mazmunining muallifidek his etadi. Ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishadilar. O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonida og'zaki nutqni o'stirish, erkin fikrlashga o'rgatish, o'z fikrini mantiqan izchil, ravon tilda bayon etish bilan birga, yana bir jihat e'tiborga olinadi. Bu yozma savodxonlikni oshirish, husnixati va yozuv texnikasini yaxshilash sanaladi.

Ona tili ta'limi oldiga o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'z g'alar fikrini anglaydigan - muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi. Bu bilan o'quvchilarning til bo'yicha olgan bilimlari, bu bilimlarni amaliyot bilan bog'lash ko'nikmasi va nutq hosil qilish malakasini tarkib toptirishga qaratiladi. Ona tili ta'limi natijasida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma, malaka hamda shakllangan kompetensiyalar quyidagi ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

O'quvchining bilimlari, his - tuyg'ulari, fikrlarini yozma ravishda bayon etish uning

ma'naviyati va ma'rifati ko'zgusidir. Shunday ekan, qadimdan ota - bobolarimiz, buyuk siymolarimizning yozma savodxonlikni yaxshilashdagi hatti - harakatlari, mislsiz xattot bo'lishga intilishlari hech kimga sir emas. Buning isboti sifatida tarixiy bir dalilni keltirmoqchimiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida o'g'li Humoyunga xatlaridagi imlo xatolari xususida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: "□xatlaringda yolg'uzluq, yolg'uzluqkim debsen, podshohliqta aybdur□ Podshohliq bila yolg'uzluq rost kelmas□Xatingni xud tashvish bila o'qusa bo'latur, vale asru mug'laqtur□Imlong yomon emas. Agarchi xili rost emas. Itifotni "to" bilan bitibsen, kulunjni "yo" bilan bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o'qusa bo'latur, vale bu mug'laq alfozangdin maqsud tamom mafhum bo'lmaydur□ Takalluf qilay deysen, ul jihattin mug'laq bo'latur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti; ham sanga tashvish ozroq bo'lur, ham o'quvchig'a", degan fikrlari ila Zahiriddin Muhammad Bobur o'g'li Xumoyunga juda o'rinli va ibratli maslahatni beradi.

Hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan o'quvchilarning yozma savodxonligi, uni xato va kamchiliklarsiz bayon etishi dolzarb masaladir. Bu masalani bartaraf etish, yechimini izlab topish har bir pedagogdan, ayniqsa, ona tili o'qituvchilaridan ilmiy salohiyat, mas'uliyat va sabot talab etadi. Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o'quvchi o'zini shaxs deb sezsin, unga bo'lgan e'tiborini tuysin. Agar o'qituvchi dars davomida "muvaffaqiyat muhitini" tashkil etib, o'quvchida o'qishda muvaffaqiyat qozonishiga yordam bersa, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirib borsa takomillashgan o'quv jarayoni ham o'z - ozidan yuzaga keladi. Oshkoralik, ishtirokchilarning o'zaro hamkorligi, ular keltirgan dalillarning tengligi, hamkorlikdagi bilimlar banki, o'zaro baholash va nazorat imkoniyati bilan belgilanadigan ta'limiy muloqot manbai yaratiladi. Demakki, o'qituvchining o'zi ham doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borishi, jahon va milliy pedagogik meros hamda ilm-fan yutuqlaridan ijodiy foydalangan holda ta'lim jarayonini takomillashtirib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1."O'zbek tilining imlo lug'ati", Toshkent-1995-yil, "O'qituvchi" nashriyoti.
- 2.N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboyeva. "Ona tili", 5 - sinf darsligi. Toshkent - 2012 yil, "Ma'naviyat" nashriyoti.
- 3.N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. "Ona tili", 6 - sinf darsligi. Toshkent - 2013yil, "Tasvir" nashriyoti.
- 4."O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim". Umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun o'quv modullari, 1 - modul, Toshkent - 2013yil.

MAQSUD SHAYXZODA IJODI TALABALAR NIGOHIDA

Sobirov Davronbek Akromjon o'g'li,

Toshkent davlat transport universiteti 2-kurs talabasi

Annotasiya: Maqolada Toshkent davlat transport universiteti talabalari shoir va yozuvchilar hayoti va ijodini qiziqib o'rganishga harakat qilishlari, shu jumladan, Maqsud Shayxzodaning ijodini ham har tomonlama tahlil qilib, sheърlarini yod olib, uning poema va tragediyalarini o'qib o'rganishlari haqida so'z boradi. Talabalar bilan birga turli tadbirlar, seminarlar, insholar tanlovlari, kitobxonlik kechalarini tez-tez o'tkazib turilishi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: shoir ijodi, she'r, poema, tragediya, she'riy to'plam.

Abstract: in this article, it is considered that TSUT students are interested in the life and oeuvre of poets and writers, especially in the scientific research of Maksud Sheikhzade. His poems and tragedies are highly appreciated by learners. The author states in the article, that a lot of seminars and conferences are held among youth.

Keywords: poet's oeuvre, poem, tragedy, poetic collection.

Toshkent davlat transport universitetida tahsil olayotgan talabalar shoir va yozuvchilar hayoti va ijodini qiziqib o'rganishga harakat qilishadi. Shu jumladan, Maqsud Shayxzodaning ijodini ham har tomonlama tahlil qilib, sheърlarini yod olib, uning poema va tragediyalarini o'qib o'rganishga harakat qilishadi. Bunda "O'zbek (rus) tili" kafedrasida professor-o'qituvchilari talabalarga o'z yordamini berib kelishyapti. Ular talabalar bilan birga turli tadbirlar, seminarlar, insholar tanlovlari, kitobxonlik kechalarini tez-tez o'tkazib turishadi. Faol talabalar faxriy yorliq va sovg'alar bilan taqdirlanadilar. Shu jumladan, Maqsud Shayxzoda ijodi bo'yicha ham turli tadbirlar o'tkazildi. Uning she'riy to'plamlari-"Loyiq soqchi", "O'n she'r", "Undoshlarim", "Uchinchi kitob", "Jumhuriyat", "O'n ikki", "Yangi devon", "Kurash nechun", "Ko'ngil deydiki...", "O'n besh yilning daftari", "Yurt she'rlari", "Olqishlarim", "Yillar va yo'llar", "She'rlar" va boshqa she'riy to'plamlarini qiziqib o'qishadi va yod olishadi. Shayxzoda qofiyaning yangi badiiy imkoniyatlarini kashf etib, o'zbek she'riyatiga yangi vazn va shakl qo'rinishlarini olib kirgan shoirdir. Uning "Uchinchi kitob", "Jumhuriyat" kabi Ikkinchi jahon urushidan oldingi she'riy to'plamlari, shuningdek "Kurash nechun", "Jang va qo'shik", "Kapitan Gastello" kabi Ikkinchi jahon urushiga bag'ishlangan she'riy to'plamlarini talabalar qiziqib mutolaa qilishadi. Ikkinchi jahon urushi yillarida shoir butun ijodini dushman ustidan g'alaba qozonishga safarbar etadi. U she'riy to'plamlarida ayovsiz urushga xalqimizni g'alaba qozonishi muqarrar ekanligini ko'rsatib, ularni ishontirdi. Ayniqsa "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy dramasini talabalar juda qiziqib o'qishadi va tahlil qilishadi. "O'n besh yilning daftari", "Shu'la", "Chorak asr" kabi she'riy to'plamlaridagi qahramonlar urushdan keyingi tinch qurilish yillarida qatag'onlik jabrini tortgan bo'lishsa ham o'z el-yurtiga fidoyi inson ekanligi ta'kidlangan. Talabalar Shayxzoda ko'p qirrali iste'dod sohibi ekanligi, uning she'r va dostonlar bilan birga, juda yuksak badiiy quvvatga ega bo'lgan dramalar yaratganligi haqida ham ma'lumotlarga egadirlar. Ular Shayxzoda umrining so'nggida yozishga kirishgan lekin tugatib ulgurmagan, "Beruniy" asari haqida xam ma'lumot olishgan. "Jamoliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalari allaqachon talabalarimizni sevimli asarlariga aylanib qolgan. Uning "Jamoliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" asarlari poytaxtimiz teatrlarida ham sahnalashtirilgan bo'lib, talabalar tomonidan tomosha qilinib, talabalar juda katta ta'ssurotlarga ega bo'lishyapti. Maqsud Shayxzoda qardosh ozarbayjon naslidan bo'lib, ham o'zbek xalqining tarixini, an'ana va udumlarini, allomalarini yaxshi bilgan. O'zbek xalqining sadoqatli farzandi

sifatida faoliyat ko'rsatdi. Shayxzodani talabalarimiz buyuk tarjimon sifatida ham bilishadi. Uning yuksak did bilan amalga oshirilgan tarjimalari hech qachon o'z qimmatini yo'qotmaydi. Uning Pushkinning "Mis chavandoz", "Kavkaz asiri", Mayakovskiyning "Juda soz" poemalari va she'rlarini, ozarbayjon shoirlar asarlarini, Shekspirning "Rameo va Juletta", "Xamlet" tragediyalarini va ko'plab asarlarni mohirona o'zbek tiliga va qardosh xalk tillariga tarjima qilgan adibdur. U qardosh xalqlar va jahon adabiyoti klassikasining mahorat maktabidan ta'lim oldi. Ilg'or an'analarni o'zida mujassamlashtirgan serqirra allomadir. O'zbek (rus) tillar kafedrasi tomonidan Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodiga bag'ishlab turli tadbirlar o'tkazildi. Ushbu tadbirlar universitetimiz jamoasida juda katta ta'ssurotlar qoldirdi. Maqsud Shayxzodaning asarlari universitet talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga va ularni qardoshlik an'analarini davom ettirishga undaydi.

Adabiyotlar:

- 1.Zokirov M. Maksud Shayxzoda: adabiy-tanqidiy ocherk. T.: 1969
- 2.Shomansurov Yu. Shayxzoda - bunyodkor shoir. T.: 1972.

IKKI YURT DILBANDI

Sobirov Davronbek
TDTTrU talabasi

Annotasiya: Maqolada serqirra ijodkor, dramaturg, shoir, pedagog, tarjimon shu o'rinda ikki ozorbayjon va o'zbek millati dilbandi hisoblangan Maqsud shayxzodaning hayoti va ijodi, o'zbek adabiyotiga qo'shgan ulkan hissasi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Poyetik, dramaturg, siymo, qanot, kommitet, pedagog, farzand, ruboiy.

O'zining poyetik ruhga yo'g'rilgan teran she'rlari, tragik dramalari, chuqur o'rganilgan ilmiy ishlari va pedagogik faoliyati bilan o'zbek adabiyotiga ulkan mehnati singan serqirra ijodkorlardan biri Maqsud Shayxzodadir. Shu o'rinda men Maqsud Ma'sum o'g'li Shayxzodani ikki buyuk xalqning sevikli farzandi, qalami o'tkir, adabiyotning turli janrlarida barakali ijod qilgan shoir, dramaturg, olim, tarjimon va ajoyib pedagog sifatida chuqur iz qoldirdi. Maqsud Shayxzodaday buyuk inson, oqni oq, qorani qora deb ayta oladigan siymo Ozarbayjon respublikasining Ganja viloyati Agtash ya'ni o'zimizning tilda aytadigan bo'lsam Oqtosh shahrida 1908- yilda ilk bor dunyo yuzini ko'rdi. Bu insonning she'riyatga bo'lgan sevgisi, adabiyotga bo'lgan muhabbati yoshligidanoq qalbida bahorning hushbo'y ifori va daraxtlarda ochiladigan gul kurtaklari kabi poklik bilan ochilib ulgurgan edi. Maqsud Shayxzoda ruboiylari, ballada, doston va badiiy asarlari kitobxonlar qalbida chuqur ma'no aks etadigan ijod sifatida muxrlanib qolgan. Biz kitob shinavandalari shoirning she'rlarini o'qir ekanmiz, satrlarga jo bo'lgan ohangrabolik, chuqur ma'no, so'zlarning xalq tiliga yaqinligi, soddaligi o'quvchilar qalbidan joy olganligini uning shu qadar ommalashib ketganidan tushunib yetamiz. Naql qilishlaricha, Maqsud Shayxzoda ilk qo'lga qalam olib, hali alifbo nima ekanligini bilmasdan turib she'riyat uning hayotiga kirib kelganligini va 5 yoshida ilk qalbidagi tug'yon urgan go'zallikni qalam orqali qog'ozga ko'chirib 8-10 misradan iborat "Bo'ri bilan olmaxon" deb nomlangan masal yozgan ekanligi aytiladi. Yoshligidanoq shoir ziyrakligi, har bir elementga o'zgalar ko'ra olmaydigan ko'z bilan boqa olishi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan. Shayxzoda o'n uchga kirganda uning "Askar qo'shig'i" she'ri shahar gazetasida bosilib chiqdi. Yosh ijodkor o'n besh yoshga to'lganida Oqtoshdagi havaskorlar drama to'garagi uning kichik bir pesasini spektakl sifatida omma etiboriga havola etdi. Maqsud Shayxzoda dastlab boshlang'ich va o'rta ma'lumotni o'zi tug'ilgan shaxarda olgach, Boku Oliy pedagogika institutiga sirdan o'qishga kiradi. 1925-yildan boshlab Darbanddagi 1- bosqich Ozorbayjon maktabida ustoz muallim sifatida o'zining mehnat faoliyatini boshlaydi va keyinchalik Bo'ynoqdagi ta'lim va tarbiya texnikumida o'quvchi yoshlarga ziyo urug'ini ulashishda davom etadi. Adib 1927- yilda aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida qamoqqa olinib, roppa rosa 1 yildan so'ng yani 1928-yilning fevralida Toshkentga surgun qilinadi. Zero Mirzo Ibrohimov qayd qilganidek: "Buyuk Ulug'bekning, Navoiyning muqaddas vatani O'zbekiston Maqsudni o'z farzandidek mehribon quchog'iga oldi va uning ulkan shoirlik istedodiga qo'sh qanot baxsh etdi" degan gapida xozirgi kunda zarracha xam shubxa yo'q ekanligi guvohiga aylanib turibmiz. Maqsud Shayxzoda Toshkentga kelgach turli gazeta va jurnallarda adabiy xodim, 1935-1938-yillarda O'zbekiston Fanlar kommiteti qoshidagi til va adabiyot instiutida ilmiy xodim, 1938- yildan to vafotiga qadar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida o'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida dosent vazifasida faoliyat olib boradi. Kitoblarda yozilishicha adibning xotirasi kuchli bo'lganligi, o'z ustida judayam ko'p ishlashi ko'pchilik insonlarni hayratga ham solganligi rost. Adib Toshkentga ko'chib kelganidan so'ng yarim yoki bir yil ichida o'zbek tilida ravon gapirishni boshlagan ekan. Maqsud Shayxzodada

ijodga bo'lgan ishq ilohiy edi desak adashmagan bo'lamiz. U o'zbek klassik adabiyotining bilimdoni sifatida ham yaxshigina tanilgan edi. 1941-yilda uning Navoiy ijodiga oid ilmiy maqolalari to'plami "Genial shoir" omi bilan nashr etildi. Navoiy lirikasini teran anglagan shoir umrining so'ngi yillarida "G'azal mulkingning sultoni" nomli yirik ilmiy asarini yozishga musharraf bo'ldi va adabiyotga ushbu asar orqali Maqsud Shayxzoda, o'zining yana bir bor yuksak iste'dod egasi ekanligini isbotladi.

XX asrda o'zbek o'quvchilari dunyo adabiyoti namunalari bilan tobora ko'proq oshno bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu jarayonda qalamkashlar, jurnalistlar, siyosat namoyandalari peshqadamlik qildi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Uyg'un, Zulfiya, Usmon Nosir, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor kabi adiblar mislsiz fidokorlik namunalari ko'rsatdilar. Ular qalamining mo'jizakorligi, g'ayrat-shijoati bilan Tolstoy, Shekspir, Pushkin, Lermontov, Turgenev, Gyugo, Gyote, Mark Tven, Jonatan Svift kabi aql, tafakkur, nafasat xazinalari o'zbek xonadonlariga, o'zbek teatri sahnalariga kirib keldi. Zamonaviy o'zbek o'quvchilarining jahon mo'jizalari bilan oshnoligi boshlandi. Qardosh xalqlar boy madaniyatining qanchadan qancha yorqin namunalari o'z tilimizda o'qish va uning sehdidan zavqlanish baxtiga muyassar bo'ldik.

Maqsud Shayxzodaning ayniqsa tarixiy mavzuda, tarixiy obrazlar haqida yozgan asarlari o'quvchini kitobga bog'lab qo'yadigan kuchga egaligining sababi ham shu yurtga muhabbatidandir. Har bir satrida beqiyos mehr, tinimsiz mehnat yotganidandir, balki. Odamlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini jo'sh urdiruvchi, qahramonlik ruhidagi bunday asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Oradan ko'p yillar o'tsa ham Shayxzoda domla asarlari o'z kuch-qudratini namoyon etib kelmoqda. Hozirgi kunda barcha adabiyot, san'at ahliga ma'lum yoshlarimiz qalbida o'zgacha g'urur tuyg'ularini jo'sh urdiradigan, televideniya talablar asosida kunora jarang sohadigan shoir Botir Ergashevning aynan M.Shayxzoda tomonidan yaratilgan "Jaloliddin Manguberdi" dramasiidagi "Ulug'vor niyatlarga kor qilmas ajal, Kim yurtdan yovni quvsa, mendirman o'shal" misrasidan ilhomlanib yozgan she'ri Ozodbek Nazarbekov tomonidan maromiga yetkazib kuylanishi va bu qo'shiq xalqimiz ko'nglidan chuqur o'rin egallagani bunga yorqin misol. Asarda sulton Jaloliddinning oxirgi so'zi sifatida quyidagi satrlar keltiriladi:

Bir kun paydo bo'laman shu yurt, shu yerda,

Yurt shaydosi ko'rinmas g'urbatda - go'rda.

Kim yurtdan yovni quvsa, mendurman o'shal!

Ulug'vor niyatlarga kor qilmas ajal!

1.Karimov. N, Mamajonov S, Nazarov B, Normatov U,Sharafiddinov O," XX asr o'zbek adabiyoti tarixi".- T. O'qituvchi,1999-544 b.

2.Karimov N. "XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari" (Birinchi kitob). T O'zbekiston, 2008-536

3.Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov. "Adabiyot". Ikkinchi nashri. Toshkent-2010. 198-b.

4."100 mashhurolim" Toshkent - 2016. 4-b. 3. Shayxzoda. Asarlar.Ikkinchi tom, 174-bet

TARIX FANINI O'RGANISHDA SIVILIZATSIYAVIY YONDASHUV

Suvonova Nasiba Shoyimovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar 3 - FFCHO'ITM Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabda tarix fanini o'rgatishda sivilizatsiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan yondashish bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tarix, talqin, konsepsiya, sivilizatsiya, yondashuv, madaniyat.

Jahon tarixiy jarayonlari ko'p yillik tarixiy taraqqiyotning muqobil konsepsiyalarini paydo bo'lishiga shart - sharoit yaratdi. Tarixni madaniy - tarixiy talqini (interpretatsiyasi)da sivilizatsiya yondashuvi paydo bo'ldi. Biz tarixdan yaxshi bilamizki, insoniyat sivilizatsiyalarida millatimiz, ajdodlarimizning benihoya xizmatlari katta. Jahon sivilizatsiyalarida alohida o'ringa ega bo'lgan yurtimiz yangi sivilizatsiya ostonasida turibdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekistonni qurish yo'l - yo'riqlarini aniq rejalar asosida ko'rsatib berdi. 2021 yil sentabr oyida Prezidentning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobi chop etildi. Uning so'z boshisida aytilishicha, "ushbu kitobda Yangi O'zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar va islohotlarning maqsadi, mazmun - mohiyati hamda ustuvor yo'nalishlari, milliy taraqqiyot istiqbollari haqida" kitobda batafsil fikr yuritilgan.

Tarixiy jarayonga sivilizatsiyaviy yondashuvi XVIII asrda vujudga kelgan. Bu metodologiyaning yorqin namoyondalari M.Veber, A.Toynbi, O. Shpengler va "Annallar" jurnali atrofida to'plangan tarixchilar (F. Brodel, J. Le. Goff), Rossiyada esa N. Danilevskiy, K. Leontev, P. Sorokin edi .

Ushbu konsepsiya tarafdorlari tarixiy jarayonlar asosida sivilizatsiya tashkil etadi, degan g'oyani ilgari suradi. "Sivilizatsiya" atamasi lotincha-shaharlik, fuqarolik degan ma'noni anglatadi. Sivilizatsiya va madaniyat atamalari bir xil mazmunda ham qo'llaniladi. Bu atamalarni fanga fransuz tarixchisi L. Fevr tomonidan kiritilgan bo'lib, "sivilizatsiya" so'zi 1766-yil ilk bor ko'zga tashlanadi. Sivilizatsiya belgilari shahar, yozuv, jamiyatda ijtimoiy qatlam, mulk shakllari vujudga kelganligi; ma'rifat va ma'naviyat takomillashuvi, inson ongli faoliyati asosida fan va san'at progressi ma'nosida belgilanadi. Insonning tabiatdan ajralib, o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tishi va vujudga kelishi bu ilk sivilizatsiya alomatlarini namoyon qilib, dastlabki shahar davlatlar tashkil topa boradi.

XIX asrda sivilizatsiya atamasi kapitalizm va uning rivojlanishiga aytilgan bo'lsa, tarixning o'zgarib turishi haqidagi g'oyalarni rus olimi N.Danilevskiy (1822-1885 yillar) lokal xarakterdagi bir-biri bilan doimiy kurashdabo'lgan 10 ta "madaniy-tarixiy tip" haqida fikr yuritib, "slavyan tipi" yangicha, kelajakkaegatip deb izohlaydi. Keng ma'noda esa bu atama jamiyat madaniyatining yuqori bosqichi deb, Yevropada ma'rifatchilik davrida axloq, qonun, fan, falsafa rivojlanganligi bilan ko'rsatiladi. Bu g'oyani nemis olimi Osvald Shpengler (1880-1926) sivilizatsiya u yoki bu jamiyatda madaniyat rivojining oxirgi bosqichi, uning yemirilishi sifatida tasvirlaydi. Uning fikricha, davlatda industriya va texnika rivoji san'at va adabiyotni inqirozini, xalqni maqsadsiz "omma"ga aylanishiga olib keladi, deb ta'kidlaydi. Bu borada tirik organizm xususiyatlari jamiyat rivojida ham aks etib, organizm keksayishi jamiyatning inqiroziga va organizm zavoli esa jamiyat yemirilishiga olib keadi deb aytish o'rinlidir. Yana bir narsa bilan ifoda etish mumkinki, bu SSSRning aholisi o'z dohiysi V.I.Lenin g'oyasiga ergashib, oxir oqibat aholi o'rtasida raqobatsizlik muhiti shakllanib, o'z navbatida bu jarayon insonlarni yoki jamiyatni, ya'ni sotsialistik

jamiyatning yemirilishiga olib kelgan omil deb aytish joiz.

O. Shpengler ta'sirida yana bir tarixchi va sotsiolog A. Toynbi (1889-1975 yy) lokal sivilizatsiya o'zgarib turishi nazariyasi orqali insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni o'rganishga harakat qiladi. A.Toynbi "lokal sivilizatsiyalar har biri paydo bo'ladi, o'sadi, halokatga uchraydi va inqirozga uchraydi", deb fikr bildiradi. U sivilizatsiyalarni rivojlantiruvchi kuch - "ijodiy elita" bo'lib, "sust ko'pchilik"ni, ommani orqasidan ergashtirishi lozim deb hisoblaydi. Bu fikrni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezident Islom Karimovning faoliyatida hamda "barcha masalalarni hal etish uchun siyosiy sistema(tizim)ni isloh qilish kerak" deb aytgan mulohazalari va mamlakatni halokatdan asrab qolgan ishlarini mana shu g'oyani ifodasidir.

A.Toynbi g'oyalariga qo'shilib, ingliz olimi S. Xantington "Sivilizatsiya to'qnashuvi" asarida davlat va jamiyat rivojida din muhim deb izohlab, dunyoda 8 ta din - xristian, islom, buddaviylik, konfutsiylik, provaslav, yahudiylik, yapon va hind e'tiqod turlari sivilizatsiyaviy yondashuvni ifoda etadi degan. M. Barg fikricha, tarix subyektini obyektivlashtirishning barcha shakllari orqali bilishga yo'naltiriladi.

Danilevskiy o'z qarashlarini ifoda etar ekan, keksayib qolgan yoki umrini o'tab bo'lgan sivilizatsiyalarni kuchli sivilizatsiyalar bosib olishiga "Xudo qaychisi" deb qayd etadi. Bu fikr davomi sifatida sivilizatsiya barqarorligi quyidagicha izohga to'g'ri keladi: nemis faylasufi I. Gerder (1744-1803) ning "Ko'l botqoqlikka aylanmasligi uchun, suv ustidagi to'lqinlar shart bo'lganidek, sivilizatsiyalar hayotiga yo'qotishlar ham lozim" deya ta'kidlaydi. Bu masala Zardustiyluk dinining tub zamirini hosil qilgan ikki qarash - ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashni aytish o'rinlidir, chunki hayotda, tabiatda ham ikki bu qarashlar kurashuvi, o'zgarish va yangilanishlarga, raqobatga, izlanishga, intilishga, oldinga harakat qilishga insonlarni ham hayvonot u tabiatni ham yoshartirib shu asnoda hayot yangilanib, boyib, takomilga erishiladi.

Sivilizatsiya yondashuvda yana bir nemis faylasufi Gegel "har bir davlat qurilishi ma'lum xalq milliy - ma'naviy mahsuli, o'zligini namoyon etish, ma'naviy - onglilik taraqqiyotning pillapoyasidir", degan va u davlat tizimining tarkib topish evolutsiyasi, uning o'ziga xos qonunlari, murakkabligi va talablari haqida to'xtalar ekan, ijtimoiy o'zgarishlarni inqilobiy usullarda amalga oshirish nechog'li zarurligi xususida alohida to'xtalib, yangiliklar inqilobiy tarzda joriy etish hamma vaqt vayronagarchilikka olib kelishi, yangi shakllar esa tadrijiy tartibotlarda sekinlik bilan amalga oshirish zarurligi uqtiriladi. Davlat qurilishi jonli hodisa sifatida doimo harakatda, o'zgarishlar asnosidadir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, tarix fani tadqiqotlarida aynan eng ommalashayotgan va qulay o'rganish imkoniyatini beruvchi sivilizatsiyaviy yondashuv hozirgi kunda ahamiyati ortib o'z tarkibiga ham qator o'zgarishlar olib kirmoqda, bu davr tarixini ya'ni zamonaviy (global) sivilizatsiya tarixini eng yangi asr deb hisoblasakda, globallashuv ta'sirida nafaqat turli sohalar u tarmoqlar, yana ham chuqurroq mulohaza yuritsak bu kichik belgilar ham hatto sivilizatsiya hayotida ta'sir qilib uning rivojiga aynan texnologiya sohasida, ilmiy izlanishlar sohasida hamkorlik ularning bora -bora bir xillashuviga universallashuviga olib boruvchi omil deb qayd etishimiz o'rinlidir deb aytish joiz. Lekin shunday bo'lsada, o'lmas qadriyatlar va odatlar unitilmasdan, uzoq vaqt chuqur o'rganib, ulg'ayib kelayotgan yoshlar ongida o'chmas iz qoldirishi bizning insoniy burchimiz deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Sh.Mirziyoyev."2017 - 2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar Strategiyasi". T.: O'zbekiston. 2017 yil. "Xalq so'zi" gazetasi.
- 2.Sh.Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". Toshkent. 2021.
- 3.Shadmanova S. "Tarixiy tadqiqotlarning metodologiyasi va zamonaviy usullari". T.: Barkamol fayz media. 2018.

- 4.Sovet O'zbekiston" gazetasi // 1989 -yil 20 -avgust.
- 5.Jo'rayev N."Tarix falsafasining nazariy asoslari". T.: Ma'naviyat. 2008.
- 6.Барг М.А Категория и методы исторической науки. -М.:1984.
- 7.Гегель Г.Философия права.-М.:1990.

XX ASR BOSHLARIDA TURKIYA DAVLATINING ICHKI VA TASHQI SIYOSATI VA UNING JAHON HAMJAMIYATIDAGI O'RNI

Nabiev Elyor Baxtiyorovich

Yoshlar bilash ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlarida turkiya davlatining ichki va tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyatidagi o'rni haqida so'z boradi. Muallif arxeologik ma'lumotlar hamda yozma manbalarga tayanib, mavjud ilmiy-tarixiy adabiyotlar asosida muammoga aniqliklar kiritgan.

Kalit so'z: Turkiya imperiyasi, hukumat, Yosh turklar, parlament, ichki siyosat, jahon urushi, G'arb mamlakatlari.

"Yosh turklar" 1902-yilda Parij shahrida o'zlarining birinchi qurultoyini o'tkazdilar va ushbu qurultoyda bekor qilingan Konstitutsiyani tiklash haqida qaror qabul qilindi.

1907-1908- yillarda mamlakatda inqilobiy vaziyat yuzaga keldi. 1908-yil 3- iyul kuni "Yosh turklar"dan hsioblangan armiya zobitlari rahbarligida qo'zg'olon ko'tarildi va bu qo'zg'olonga Niyozbiy rahbarlik qildi. U "Birlik va taraqqiyot" partiyasi a'zosi, harbiy garnizon qo'mondoni edi. 1908-yil 20- iyulda Monastir shahrida "Birlik va taraqqiyot" partiyasi tantanali bir vaziyatda Konstitutsiya tiklanganligini e'lon qildi hamda sultondan bu masalada farmon berishni talab qildi. Armiyaning "Yosh turklar" tomonida ekanligi Sulton Abdulhamidni cho'chitib qo'ydi. U 1908- yilning 24-iyul kuni qaror e'lon qilib, Konstitutsiyani tikladi hamda parlamentga saylov o'tkazishni va'da qildi. Bu esa 1908- yilgi Turkiya inqilobi g'alaba qozonganidan dalolat berardi.

Biroq eski tarafdorlari har qanday islohotga qarshi edilar. Ularning ichida ayniqsa ruhoniylarning o'rni kuchli edi. Ruhoniylarning "Ittihodi Muhammadi" partiyasi "Yosh turklar"ni xudosizlikda aybladi. Shundan so'ng "Ittihodi Muhammadi" partiyasining tarafdori bo'lgan harbiylar 13- aprelda aksilinqilobiy isyon ko'tardilar. Isyonchilar parlamentni bekor qilish, shariat va sulton hokimiyatining tiklanishini talab qildilar. Bu siyosiy vaziyat Abdulhamid II ga juda ham ma'qul bo'ldi. Shuning uchun ham u isyonchilar talabini tezda bajardi.

"Yosh turklar" arboblaridan bir qismi Saloniki va Adrianopolga qochib ketdilar. Bu vaqtda Saloniki va Adrianopoldagi harbiy qismlar yosh turklar tarafida edi va yosh turklar o'zlariga sodiq armiya qismlari bilan 26-aprelda isyonchilar hukumatini ag'darishga erishishdi. Sulton Abdulhamid taxtdan ag'darildi. Taxtga esa uning ukasi, mamlakat ichki siyosiy hayotidan yiroq Mahmud V Rishod (1844-1918) o'tqizildi. Parlament ham qayta tiklandi.

Yosh turklar inqilobi buyuk davlatlarni tashvishga solib qo'ydi. Ular Turkiyadagi ichki siyosiy beqarorlikdan foydalanib yanada ko'proq o'ljaga ega bo'lib olishga harakat qildilar. 1911-yilda Italiya Liviyani bosib olgach, inglizlarga xayrixoh bo'lgan "Hurriyat va birdamlik partiyasi" "Yosh turklar" hukumatini noqobillikda aybladi. Ular 1912-yil 5-avgustda mamlakatda davlat to'ntarishi o'tkazishdi.

Tez orada, Turkiyaning tashqi ahvoli yanada yomonlashdi. 1-va 2-Bolqon urushlarida Turkiya Bolqondagi ta'siridan deyarli to'la ajraldi. Bu holat "Hurriyat va birdamlik" hukumatini og'ir ahvolga solib qo'ydi. Shunday ahvolda, "Yosh turklar" rahbarlaridan biri Anvarbey boshchiligida 1913-yilning yanvarida isyon ko'tarildi. "Hurriyat va birdamlik" hukumati ag'darildi va hokimiyat yana "Yosh turklar" qo'lga o'tdi.

Hokimiyat 3 kishidan iborat "Uchlik" deb atalgan guruh (Anvar, TaFat va Jamol)

qo'liga o'tdi. Uchlikka Anvar poshsho rahbarlik qildi. "Uchlik" Germaniya bilan yaqinlashish siyosatini davom ettirdi. "Uchlik"ning Germaniya bilan yaqinlashishi Germaniyaning Turkiya imperiyasi hududlariga da'vo qilmayotganligi bilan izohlandi. Germaniya panturk va panisлом mafkuralarini o'ziga shior qilib olgan "Uchlik"ni qo'llab-quvvatlay boshladi. Bu mafkura g'oyalari Antanta manfaatlariga zid edi.

Bundan tashqari, 1913- yildan keyin Germaniya Turkiya impe-riyasining bo'linishiga qarshi chiqa boshladi. Bunday sharoitda Germaniya "Yosh turklar" ko'z o'ngida Turkiyanig yagona "himoyachisi"ga aylandi. Endi Germaniya Turkiyani ittifoq shartnomasi tuzishga unday boshladi. Va nihoyat, 1914- yilning 2- avgustida maxfiy suratda ittifoq shartnomasi tuzildi. Bu shartnomani imzolash bilan Turkiya hukmron doiralari imperiyani halokatga mahkum etdilar.

Usmoniyalar imperiyasi Germaniya va uning ittifoqchilari safida turib Birinchi jahon urushida qatnashdi va mag'lubiyatga uchradi. Imperiya hududi okkupatsiya qilindi. Antanta mamlakatlari Usmoniyalar imperiyasiga qarashli yerlarni bo'lib olish rejasini tuza boshladilar. Imperiyaning o'z hududidan tashqaridagi barcha yerlari anneksiya qilindi va 1919-yili Parij konferensiyasi qaroriga ko'ra Millatlar Ligasining mandati ostiga o'tdi. G'arb davlatlari Turkiyaning hududiga ko'z tika boshladi. 1920-yilgi Sevr shartnomasiga ko'ra Turkiya hududi bir guruh Yevropa davlatlari o'rtasida bo'lib olinishi ko'zda tutildi. Ularning surbetlarcha harakati turk xalqining g'azabini oshirdi. Mamlakatda qarshilik harakati boshlandi. Harakatga general Mustafo Kamol posho rahbarlik qildi.

G'arb davlatlari tomonidan qo'llab-quvatlangan Gretsiya armiyasi Turkiya hududiga kiritildi. Shu tariqa Turkiya-Gretsiya urushi boshlandi. Uzoq davom etgan janglardan so'ng 1922-yil oktabrga kelib M. Kamol qo'shinlari butun Turkiya hududini ozod qildi. 1922 yil 1-noyabr kuni Turkiya Buyuk Millat majlisi sulton hokimiyatini bekor qilish to'g'risida qaror qabul qildi. Sulton Mexmed VI taxtdan ag'darildi va mamlakatni tark etdi. 1923-yili Lozannada Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa bir qator davlatlar bilan M. Kamol hukumati imzolan- gan yakuniy shartnomaga ko'ra, Turkiya o'z suvereniteti va hududiy yaxlitligini saqlab qoldi.

1923 yil 29-oktabrda Turkiya respublika deb e'lon qilindi, M. Kamol respublika prezidenti etib saylandi. Mamlakatda uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan islohotlar boshlandi.

Islohotlarning bosh maqsadi - mamlakatni modernizatsiya qilish deb e'lon qilindi. Bu Yevropa sivilizatsiyasining barcha taraqqiyparvar jihatlarini qabul qilish va ularni Turkiya sharoitiga moslashtirishni anglatar edi. Islohotlarning birinchi tamoyili dunyoviylik, dinni davlatdan ajratish bo'ldi. Arab alifbosidan voz kechib, lo-tin alifbosi joriy qilindi. Yevropacha nasab (familiya) kiritilib, Buyuk millat majlisi. 1920-yilgi Sevr shartnomasiga ko'ra Turkiyaning taqsimlanishi.

1920-yillari iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishini chet ellik mulk- dorlardan sanoat korxonalari, infratuzilma obyektlari, temir yo'llarni sotib olish, milliy sanoatni yaratish tashkil qildi. Tashqi siyosat. Otaturk tashqi siyosatining asosiy vazifasi Turkiyaning xalqaro obro'sini oshirishga qaratildi. 1932-yili Millatlar Ligasiga a'zo bo'lgan Turkiya barcha davlatlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga harakat qildi.

M. Kamol Germaniya bilan munosabatlarga alohida e'tibor qaratdi. Turkiya tashqi savdosining katta qismi Germaniya hissasiga to'g'ri kelardi. 1941-yili Germaniya bilan do'stlik shartnomasi imzolandi. Turkiya Ikkinchi jahon urushida rasman betaraf qolgan bo'lsa-da, hukmron doiralarning katta qismi Germaniyaga xayrixoh edi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XX asrning boshlarida Turkiya imperiyasidagi siyosiy ahvol juda ayanchli holatda o'tdi. Mamlakat aholisi hukumat uchun kurashlardan juda charchadi, iqtisodiy holat ham tanazzulga kelib qoldi. Birinchi jahon urushi esa yanada holdan toygan Turkiya davlatini butunlay halokatga yetakladi desak adashmagan bo'lamiz.

Фойдаланилган адабиётлар.

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.:"O'zbekiston", 2017.
- 2.Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., 2008.
- 3.Islom Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida T., 2011
- 4.V.N.Lavrovskiy. Sbornik dokumentov po istorii angliyskoy burjuaznoy revolyutsii XVII v. M., 1973.
- 5.V.N.Lavrovskiy. Promishlenniy perevorot v Anglii. Istoriya v istochnikax. M., 1990.
- 6.B.T.Tursunov. YANGI DAVR. Samarqand-2006.
- 7.R.Farmonov va boshqalar. YANGI DAVR. T., "Meros", 2004.
- 8.M.Lafasov va boshqalar. YANGI DAVR. T., "Meros", 2002.

НРАВСТВЕННЫЙ ИДЕАЛ - КРИТЕРИЙ ДУХОВНОГО СОВЕРШЕНСТВА

Сапохонов Ҳалиллубло

Кандидат философских наук, доцент

Солиева Ҳавасхон Омоновна

Преподаватели кафедры общественных наук и библиотековедения

Ферганского регионального филиала

Государственного института искусств и культуры Узбекистана.

Аннотация: Человек - величайшее существо на свете. Нравственный идеал связан с его нравственным воспитанием. Ведь нравственное воспитание является одним из непрерывных процессов, обеспечивающих развитие человека как личности, достижение нравственной культуры. Красивые качества украшают человека. Доброе качество - это богатство общества, оно имеет универсальное значение. Люди с положительными качествами влияют на общество, ускоряют его развитие. Нравственный идеал включает в себя такие аспекты, как приобретение личностью нравственного опыта общества и использование этого опыта в социальных взаимодействиях, а также его постоянное самосовершенствование.

Основные термины: идеал, добродетель, этикет, нравственность, нравственное воспитание, нравственная культура, нравственное сознание, нравственное отношение и нравственная деятельность.

Если вы спросите меня: "Кто является вашим моральным идеалом?", я бы без колебаний ответил: Эдмон Дантес. Потому что мне очень хотелось бы видеть в своем персонаже высокую человечность Эдмона Дантеса, главного героя романа "Граф Монте-Кристо". Такие качества, как сильное жизнелюбие, крепкая воля, непреходящая стальная выносливость, бесконечная выносливость, неопишуемая месть несправедливости делают его любимым героем не только меня, но и многих читателей, то есть нравственным, что он стал идеалом. Несправедливо пренебрегать мнением мудреца, который говорит, что человеку нужен идеал, но не противоестественный, а соответствующий его природе. Великий русский писатель Л. Н. Толстой писал: "Идеал - это путеводная звезда. Без него трудно найти ясный путь, а без ясного пути нет жизни". Итак, нравственный идеал - это совокупность взглядов и представлений, основанных на теории совершенных нравственных отношений, что является четкой целью развития зрелой личности. В жизни человек мечтает найти свой идеал, достичь совершенства в своей повседневной деятельности, в своем поведении, в своем образе жизни и в своем нравственном облике. Об этой особенности нравственного развития Г.В. Плеханов справедливо писал: "Чем активнее человек борется за осуществление своего общественного идеала, чем самоотверженнее он в этой борьбе, тем выше он поднимается по лестнице нравственного развития".

Следует отметить, что идеалы являются продуктом реальных общественных отношений, а идеалы противоречат друг другу в зависимости от социального расслоения людей. Потому что в обществе, где интересы разные, идеалы должны быть разными. Критерием любого идеала является социально-экономическая реальность, потребности общественного развития. Так нравственный идеал формируется на основе тех социальных идеалов, которые создает общество. Нравственный идеал является составной частью общественного идеала.

"Идеал - это греческое слово, означающее "концепция, воображение, идея".

Представления о высшем совершенстве события называются идеалами. Она отличается от идеальной идеи ценностью. Идеал - это будущее мечты, высшая цель человеческой жизни. Люди живут в погоне за идеалом. Идеал, в свою очередь, контролирует его поведение и установки. Великий русский писатель А. Горький художественно выразил социальную сущность нравственного идеала, присоединив его к данному природой основанию лишить человека возможности ходить на четвереньках.

У животных нет идеалов, и не может быть. Инстинкт, сформированный их биологическими потребностями, достаточен для их выживания.

Поскольку существование человека носит социальный характер и вся его деятельность сознательна и целенаправленна, он испытывает потребность в мощных духовных ресурсах. В результате он идеально понимает свои потребности и интересы. Таким образом, идеалы возникают и обретают форму в реальной жизни. С другой стороны, формирование нравственного идеала основывается прежде всего на формировании человеческого разума. Потому что чем больше человек понимает себя, чем больше он сравнивает себя с другими, тем больше он становится критичным по отношению к себе и своему поведению. В результате у него появляется желание измениться. С этого момента становится очевидной внутренняя потребность в нравственном идеале. Так что нравственный идеал - это результат самостоятельной оценки жизни или самостоятельного отбора зрелых сторон, которые помогут вам достичь поставленных целей. Таким образом, нравственный идеал определяет внутреннюю силу поведения человека, его движение к высшей цели, свободно отражается в сознании личности. Только нравственный идеал может быть выражен в различных формах - образе героя, уважаемого человека, конкретного человека или совокупности важных нравственных качеств.

Может ли человек жить без идеала? На этот вопрос сложно ответить сразу. Потому что идеал и нравственный идеал не совпадают по смыслу. На самом деле нравственный идеал является частью социального идеала. В нем "Можно ли жить без нравственного идеала?" Если будет указано направление темы, будут выяснены интересующие нас аспекты вопроса. "Может ли человек жить без нравственного идеала? Эхо вопроса: "Может ли человек жить без цели?" звучит как. В связи с этим ценно высказывание Аристотеля о том, что "можно сказать, что все и вся имеют цель, и в стремлении к этой цели признают один путь и отвергают другой". Короче говоря, нравственный идеал есть тот духовный фактор, который обеспечивает формирование человеческой личности и утверждение в ней зрелых человеческих качеств. Результаты социологического исследования, проведенного выпускными группами факультета языка и литературы Кокандского Государственного педагогического института, показали, что в общей сложности 75 студентов по-разному выражали свои нравственные идеалы. 33 из них написали: "Мой нравственный идеал - моя мать", некоторые написали: "Мой отец", а 31 студент написал: "Мой нравственный идеал - мой первый учитель". Остальные девять студентов заявили, что сделали героев художественных произведений своим нравственным идеалом.

Отсюда следует вывод, что невозможно представить человека без нравственного идеала. Потому что он стремится к совершенству под руководством нравственного идеала, который существует в жизни, ясно выражен в мысли и кажется возможным.

Нравственный идеал исходит из жизненного опыта, он связан с жизнью, но это не значит, что он полностью соответствует действительности. Духовные качества, считающиеся высшими, составляют сущность нравственного идеала.

Обычно нравственные идеалы сочетаются с мечтами, надеждами, целями и стремлениями человека. Поэтому по мере изменения потребностей человека меняется и содержание нравственного идеала. Зрелые нравственные идеалы служат активным побудительным фактором в обогащении духовного мира личности. Если да, то что важно? Является ли человек нравственным идеалом или человеческим духовным миром? По сути, нравственный идеал является составной частью духовного мира человека. Чем богаче духовный мир человека, тем более зрелыми будут его нравственные идеалы. В свою очередь, зрелые нравственные идеалы формируют человека духовно. Отношения между ними можно уподобить двум сторонам одного и того же яблока, потому что все яблоко может быть одной стороной, а не другой. Сила нравственных идеалов заключается в их способности броситься в борьбу за их осуществление. Если бы нравственные идеалы были лишены таких качеств, они не были бы связаны с повседневной деятельностью и остались бы лишь добрыми мечтами, благородными желаниями.

Наличие объективных и субъективных условий необходимо для реализации нравственного идеала. Поскольку внешние обстоятельства дают объективную основу для реализации идеалов, значение психологической готовности человека и активного стремления не мало к его реализации. В то же время, даже если объективные условия очень благоприятны и помогают реализовать идеалы, нравственный идеал является мечтой, если субъективные качества не обладают волей, самодостаточностью, устойчивостью, целеустремленностью, активностью и другими личностными аспектами. Иметь идеал - это еще не что-то. Весь смысл в том, чтобы это произошло. В этом случае решающее значение имеет самодисциплина, сознательное изменение поведения, образа жизни, словом, неустанное стремление к цели. Самовоспитание - это процесс самоанализа, критической оценки своих действий, выработки конкретных средств изменения своей личности в соответствии с заданным планом и идеалом, в конечном счете - деятельность, направленная на самоконтроль. Все это свидетельствует об очень высоком уровне нравственного сознания и является одним из ключевых факторов реализации нравственного идеала.

Словом, не только нравственный идеал, но и все общественные идеалы играют важный воспитательный фактор в формировании черт характера и зрелого мировоззрения человека.

Список использованной литературы

1. Конституция Республики Узбекистан. Т.: "Узбекистан", 2018
2. Л.Н. Толстой. Четыре периода созревания человека. 1852-1857гг. - Т.: Издательство "Янги аср авлоди"
3. А.М. Горький 1915-1916 годы среди людей. Т.: Издательство художественной литературы имени Гафура Гуляма, 1968 г.

СИЁСИЙ ОБРАЗНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ҲОС ХУСУСИЯТЛАРИ

ЎзМУ Фуқаролик жамияти ва ҳуқуқ таълими
кафедраси докторанти,
ТошПТИ Ижтимоий фанлар,
педагогика ва психология кафедраси асс. **Куйлиев Б.Т.**
Broockleen@mail.ru

Аннотация: Мазкур мақолада сиёсий имижнинг таркибий қисмлари ва унинг шаклланиш жараёнида таҳлил қилинади. Шунингдек, ўз имижини яратаётган сиёсий етакчи ҳамда унинг имижмейкерлари олдида омма эътиборини тортувчи хусусиятлар ҳамда шахсий фазилятларни ўзаро мувозанат асосида синтезлашнинг ўзаро алоқадор жиҳатлари очиқ берилди.

Калит сўзлар: сиёсий имиж, сиёсий лидер, замонавий имижмейкерлик, социомаданий муҳит, установка, сиёсий мифлар, ярим ҳақиқатлар

Жамоатчилик фикрини шакллантиришда сиёсий етакчининг шахсий имижини билан бир қаторда унинг корпоратив имижини ҳам ҳал қилувчи ўрин тутди. Соддароқ қилиб айтганда, сиёсий етакчи мансуб бўлган ташкилот ёки унинг жамоаси имижини жамоатчилик фикрини ўзгартиришда муҳим аҳамият касб этади. Омма томонидан сиёсий имижини қабуллаш жараёни бир қанча хусусиятлар кўра амалга оширилади. Сиёсий етакчи образини борасидаги жамоатчилик фикрини шакллантиришда ёлгон тасаввурларнинг ҳам ўрни биқиёсдир. Бошқача қилиб айтганда "сиёсий етакчи хусусида уйдирмалар ва миш-мишлар тарқатиш имконияти қанчалик кенг бўлса, шунга мутаносиб равишда унинг ижобий ҳислатларини бўрттириб кўрсатиш ҳаттоки, айни шахсиятда мавжуд бўлмаган фазилятларни ҳам нисбат бериш эҳтимоли шунчалик баланд бўлади". Агар жамоатчилик фикрида сиёсатчи ҳақида салбий тасаввурлар шаклланиб улгурган бўлса, миш-мишлар ва уйдирмалар уларнинг янада ортишига хизмат қилади.

Замонавий имижмейкерлик соҳасида сиёсатчининг хусусан оммага яхши таниш бўлмаган сиёсатчининг қиёфасини яратиш жараёнига бирмунча ноанъанавий тарзда ёндашилади. Аниқроғи, сиёсатчи имижини яратишда унинг шахсий ва профессионал сифатлари эмас, унда омма кўришни истайдиган фазилятлар жамланади. Аммо шуни ҳам алоҳида таъкидлаш лозимки, "бирор-бир шахсиятга мутлақо боғланмаган, умуман персоналлашмаган, фақатгина конструктордан иборат сиёсий имижини яратиш имконсиз". Бу эса ўз имижини яратаётган сиёсий етакчи ҳамда унинг имижмейкерлари олдида омма эътиборини тортувчи хусусиятлар ҳамда шахсий фазилятларни ўзаро мувозанат асосида синтезлаш вазифасини қўяди. Соддароқ қилиб айтганда, сиёсий етакчи ўз имижини орқали ҳам омма эътиборини торти олиши керак, ҳам айни жозибадор хусусиятларни ўз шахсий фазилятлари орқали намоён қила олиши керак. Сиёсий етакчи имижини яратишда нафақат унинг шахсий сифатлари қолаверса, у ҳеч қачон воз кечмайдиган ҳатто воз кечишни истамайдиган сиёсий маслакларига ҳам алоҳида диққат қаратиш талаб қилинади. Шунингдек, "сиёсатчи ҳамда унинг имижини яратишда иштирок этувчи мутахассислар жамоатчилик фикри ҳамда омманинг жорий даврдаги орзу-интилишларини ҳам ҳисобга олишлари лозим". Бундан келиб чиққан ҳолда шуни айтиш мумкинки, илгари сурган ғоялари омма томонидан қўллаб-қувватланиладиган сиёсий етакчиларнинг имижини муваффақиятли ишлаб чиқилган ҳисобланади.

Замонавий имижмейкерлик тадқиқотлари натижаларига эътибор қаратилса, жамоатчилик фикрини муваффақиятли тарзда манипуляция қила олган сиёсий етакчи имижлари у амал қиладиган социомаданий муҳитда яшовчи омманинг орзу-умидлари ҳамда интилишлари билан чамбарчас алоқадор бўлади. Сиёсий етакчи имижининг жамоатчилик фикрини манипуляциялаш жараёнига оид элемент сифатидаги муваффақияти қадриятлар тизими, сиёсий маданият даражаси ва хусусиятлари, ижтимоий онгдаги установкалар ва стереотиплар каби бир қатор зарурий омилларга боғлиқ. Муайян сиёсий етакчи образининг жамоатчилик томонидан қабул қилиниши жараёнларини аниқ тасаввур қилиш учун энг аввало жорий вақтдаги оммавий онг ҳолати, хусусан алоҳида ижтимоий гуруҳлар томонидан мазкур имижни қабул қилиш масалалари чуқур ўрганилиши лозим.

Сиёсий имиж билан бир қаторда сиёсий мифлар жамоатчилик фикрини манипуляциялаш жараёни тузилмасининг муҳим элементи саналади. Сиёсий мифлар жамоатчилик фикрини манипуляциялаш жараён тузилмаси элементи сифатида Э.Кассирер, А.Розенберг ва П.Сорокин изланишларида чуқур тадқиқ этилган. Айни тадқиқотлар таҳлиллари натижаларидан келиб чиққан ҳолда сиёсий мифларнинг қуйидаги ўзига ҳос хусусиятларини ажратиш мумкин:

1. Сиёсий мифлар ўз-ўзидан вужудга келмайди, аксинча "улар атайлаб, онгли равишда, мақсадга мувофиқ тарзда яратилади" .

2. Сиёсий мифлар манипуляторлар томонидан онгли равишда культлаштирилган ҳамда оммавий онг томонидан ўзлаштирилган ижтимоий орзу-умид ва интилишларга асосланади.

3. Сиёсий мифлар манипулятор олдидаги исталган ахлоқий тўсиқларни бартараф этишга хизмат қилувчи ўзаро бир-бирини истисно қиладиган ҳушёр ҳисоб-китоб ҳамда мутаассиб эътиқод хусусиятларини ўзида мужассамлаштиради.

4. Сиёсий мифлар жамоатчилик онгини манипуляциялашнинг эмоционал модели тузилмасига ҳос элементи бўлганлиги туфайли уларни рационал далил ва исботлар билан бартараф қилиш имконсиз. Шу маънода сиёсий мифларни гнесеологик нуқтаи-назардан ноилмий билим шаклига киритиш мумкин.

Аммо жорий сиёсий воқеликлар билан узвий алоқадорлик касб этганлиги туфайли сиёсий мифларни тўлақонли ёлғон билим дейиш мумкин эмас. Таъбир жоиз бўлса уларни "ярим ҳақиқатлар" деб аташ мумкин. Айни хусусият туфайли ижтимоий-сиёсий мифлар рўй бераётган сиёсий жараёнларни оқлашга, уларнинг тўғри амалга ошаётганлигини жамоатчиликка тушунтиришдаги самарадор сиёсий манипуляция технологияси вазифасини бажаради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Аверин Ю.П. Люди управляют людьми: модель социологического анализа. М., 1996.

2. Кара - Мурза С. Манипуляция сознанием М., 2000.

3. Власов А. И. Политическая манипуляция. М., 1982.

4. Лаптев Л.Г. Политический менеджмент: сущность, содержание, современные технологии. М., 2000.

5. Ионин Л.Г. Идентификация и инсценировка // Социологические исследования, 1995, № 4.

6. Грушин Б.А. Массовое сознание: опыт определения и проблемы исследования. М., 1968.

7. Дженусов А.И. Различия структур и уровней развития политической культуры / Социально-гуманитарные знания, 1999, № 4.

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР МУЛОҚОТИДА БОЛАЛИК ЛИНГВОПСИХОЛОГИЯСИ

Ярашова Насиба Жумаевна

Навоий давлат педагогика институти докторанти, ф.ф.ф.д. (PhD)
yarashovanasiba44@gmail.com

Аннотация. Мазкур мақолада мактабгача ёшдаги болалар лингвопсихологияси ва бу даврда болалар нутқида ва руҳиятида мен концептининг таркибий қисмларининг шаклланганлик даражаси ҳақида мулоҳаза юритилади.

Калит сўзлар: Гўдаклик даври, болалик даври, манипулятив фаолият, кўрғазмали-образли тафаккур, мен концепти, номинация, психологик эркинлик, муомала, муносабат.

Психологияда мактабгача болалик даврига 3 ёшдан 7 ёшгача бўлган давр киритилади. Унга чақалоқ, гўдаклик (0 дан 1 ёшгача) ҳамда илк болалик (1 ёшдан 3 ёшгача) давлари киради. Гўдаклик даврининг ўзига хос хусусияти шундаки, унда бола ривожланиши, асосан, манипулятив фаолиятни ўзлаштириш йўлидан борилади, яъни ҳаётининг биринчи ярим йиллигида пайпаслаш, эшитиш, кўриш-мотор кординациялари ривожланади. Бу ёшда бола янги нарсаларга нисбатан фаол ўз муносабатини билдиради ҳамда бу янги нарсалар ўз янгилигини сақлаб турганга қадар уларни манипуляция қилади. Мазкур даврнинг асосий фаолияти бевосита катталар билан эмоционал мулоқот ҳисобланади. Зеро, бола ҳали ёрдамга муҳтож ва унинг ҳаёти катталар фаолияти билан боғлиқ. Катталар болани парваришлайди ва у билан мулоқот қилади, шунингдек, унинг фаолиятини назорат қилади ҳамда чегаралайди, яъни тафаккур, нутқ, хотира, унинг қобилиятлари ривожланиш даражаси ҳали унинг эҳтиёжлари даражасига мувофиқ бўлмайди.

Боланинг энг катта ютуғи ҳаётининг биринчи йили охирида жисмоний мустақилликка эришади. Юриш қобилияти ва ота-оналари томонидан унинг фаоллигини чегаралаш боланинг эътирозига, қайсарлигига сабаб бўлади. Бу давр бир ёш даври кризиси деб номланган. Л.С.Виготский буни боланинг юриши ва энг асосийси, нутқни ўзлаштириши билан бевосита боғлайди. Гўдаклик даврида секин-аста нутқни ўзлаштириш бошланади. У, асосан, товушга тақлид қилишдан бошланади. Нутқнинг фонематик қурилишини ўзлаштириш фонеманинг сўздаги ўрнига боғлиқ бўлади, дастлаб урғу олган унли товушлар ўзлаштирилади. Нутқнинг семантик қурилиши фаол ривожланади, бола сўз маъноларини ўзлаштиради. 1,5-1,8 ёшда боланинг семантикаси ўзига хос бўлиб, сўзлар кўп маънода турли нарсаларни ифодалаш мумкин бўлса, мактабга чиқиш олдидан барқарор умумлашма ва ифодалар ўрнатилиши юз беради. Бундан ташқари, боланинг лексикаси жадал ривожланади, фаол луғат бойлиги кенгайди, нутқнинг грамматик ва синтактик қурилиши ўзлаштирилади. Нутқ ривожланиши билан боланинг тафаккури ҳам фаол ривожланади. Бу тафаккур ҳаракатларни реал объектлар билан бажариш жараёнида амалга ошади. Тафаккурнинг бу шакли доирасида янада мураккаброқ шакл - кўрғазмали-образли тафаккур, яъни қандайдир ҳаракат амалий ҳаракатларсиз, фақат тасаввур, образга таянган ҳолда амалга оширилади.

Дастлаб боланинг образли тафаккури аниқ предметлар ва уларнинг хусусиятлари билан боғлиқ бўлади, бироқ энди бевосита қабул қилиш чегарасидан чиқиш имконияти юзага келади. Кичик мактабгача ёшдаги бола топшириқларни ташқи йўналган ҳаракатлар орқали бажаради, яъни уриниб кўриш ва хатолар методи

(кўргазмали-ҳаракатли тафаккур) орқали ечимини топади, ўрта мактабгача ёшда эса ечимнинг бир қанча усуллари билан танишиб чиққач, топшириқни предмет ҳаракатларисиз, ақлда ишлашга қодир бўлади.

Энди тафаккур фақат амалий предметли ва бевосита қабул қилиш билан боғлиқ бўлмайди, балки кўргазмали-образли бўлади. Кўргазмали-образли тафаккур - мактабгача ёшнинг асосий хусусиятларидан бири, мана шу орқали у шаклланади ва ўзининг ривожини топади. Кўргазмали-ҳаракатли ва кўргазмали-образли тафаккурнинг ривожланиши мантиқий тафаккурнинг шаклланиши билан чамбарчас боғлиқдир.

**"MUNOSABATLAR. BINAR MUNOSABATLAR" MAVZUSINI O'QITISHDA
"DOMINO" METODIDAN FOYDALANISH.****ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА ДОМИНО ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ ТЕМЫ
"ОТНОШЕНИЕ. БИНАРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ".****USING THE DOMINO METHOD FOR TEACHING THE TOPIC
"ATTITUDE. BINARY RELATIONS".****Umarova Umida Umarovna**Buxoro davlat universiteti Metematik analiz kafedrasida katta o'qituvchisi
umida.umarova.2019@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Munosabatlar. Binar munosabatlar" mavzusini o'qitishda "domino" metodidan foydalanilgan. Domino usulidan asosan o'qituvchilar va matematiklar foydalanmoqdalar, bu "Hisoblanuvchi misoli" + "Unga javob" formatidagi kartochkalarini tuzishning qulayligi bilan izohlanadi. O'yinni o'tkazish uchun domino kartochkalarini tayyorlash kerak. O'qituvchi ularni ishlab chiqadi, o'quv materialini to'liq qamrab olishga, shuningdek uning murakkablik darajasiga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, interfaol metod, metod, o'qitish texnologiyasi, domino, munosabat, binar munosabat.

"Munosabatlar. Binar munosabatlar" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotini o'tkazishda darsda jamoaviy ishlashni ta'minlaydigan "Domino" interfaol metodidan foydalanamiz. Domino - bu kattalar va bolalar sevadigan keng tarqalgan o'yin. Hozirgi vatda uning ko'p turlari mavjud, ammo ularning ar biri kartochkalar (yoki suyaklar) zanjirini yaratishga aratilgan. Kartochkalar soni yetarlicha katta bo'lishi kerak, ammo dars davomida har bir guruhdagi talabalar soniga to'rg'i keladigan kartochkalar sonini tanlash kerak bo'ladi. Oldindan tayyorlangan ko'p miqdordagi kartochkalar o'qituvchiga har bir guruh uchun turli xil topshiriqlardan foydalangan holda (ular bosha guruhdan oldindan topshirilarni o'rgana olmaydi). Ta'kidlash kerakki, ushbu interfaol o'qitish usulidan foydalanish uchun o'qituvchi domino kartochkalarini ishlab chiqishda juda ko'p tayyorgarlik ishlarini bajarishi kerak. Har bir dars boshlanishidan oldin, u mavjud kartochkalarini ko'rib chiqishi va kerakli tarkib bilan kerakli miqdorni tanlashi kerak.

Ushbu usul yordamida nazorat qilish yoki o'z-o'zini boshqarish bir necha usul bilan amalga oshiriladi:

- An'anaviy domino. Stolga tartibsiz qo'yilgan kartochkalarini talabalar olishadi, o'yinda butun guruh qatnashadi. Natijada bitta zanjir.

- Shaxsiy domino. Har bir talaba o'z zanjirini yaratadi.

- Jismoniy domino. Talabalar stolga kartochkalarini qo'ymaydilar, balki zanjirda o'zlari qatnashadilar. Bu nafaqat bilim ustidan nazoratni amalga oshirish, balki, talabalarning madaniyatini ham baholash imkonini beradi.

- Mini domino. Guruh bir nechta jamoalarga bo'lingan, har bir jamoaga o'zlarining shaxsiy domino kartochkalari beriladi. Bu yerda musobaqani o'tkazish mumkin, kim birinchi bo'lib to'g'ri zanjirni o'rnatgan jamoa g'olib bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu holda kartochkalar to'plami har bir jamoa uchun bir xil bo'lishi kerak yoki qiyinchilik jihatidan bir xil bo'lishi kerak, chunki g'olib jamoani aniqlashda nafaqat zanjirning to'g'riligi, balki sarflangan vaqt ham inobatga olinadi.

"Domino" metodini "Munosabatlar. Binar munosabatlar" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotda qo'llashda kartochkalarini quyidagi tartibda tuzishimiz mumkin:

Domt=Imt=N refleksiv.	Implikasiya amali	Domt={1,4,9,...,n ² ,...} Imt=N antirefleksiv.	1, 2 ⁴ -1, 2 ⁹ -1, 2 ⁿ -1.
faqat x chin va y yolg'on bo'lgandagina yolg'on bo'lib, qolgan hamma hollarda chindir.	N to'plamda anilangan uyidagi binar munosabatlar anday xossaga ega ekanligini anilang, ularni anilanish va o'zgarish sohalarini toping: $\forall (a,b \in \mathbb{N}),$ $atb \Leftrightarrow a=b^2$.	M ₁ , M ₂ , M ₃ va to'plamlarning ar birida nechtadan binar munosabat anilash mumkin?	M ₁₀ to'plamda $\forall (a,b \in M_{10}) atb$ $\Leftrightarrow b > a^2$ anilangan binar munosabatlarni anilanish va o'zgarish soalarini toping. Ularning har biri anday xossalarga ega ekanligini toping.
$\tau^2 = \{<1,1>\}$.	ha	$\tau \cdot \sigma = \{<1;2>; <2;2>;$ $<1;1>\}, \sigma \cdot \tau = \{<1;2>;$ $<1;3>, <2;2>, <3;2>, <3;3>\}$.	Domt= Imt={1,2}, refleksiv, simmetrik, antisim-metrik, tranzitiv.
A-tekislikdagi barcha to'ri chizilar to'plami bo'lsin. Ixtiyoriy a,b tug'ri chiziq uchun $atb = a \perp b$ bo'lsa, τ perpendikulyarlik munosabati: simmetrik bo'ladimi?	to'plamda $\tau = \{<1,2>, <2;2>, <1;3>\}$ va $\sigma =$ $\{<1;1>, <2;2>, <3;1>\}$ binar munosabatlar aniqlangan bo'lsin, u xolda $\tau \cdot \sigma$ ni hisoblang?	N to'plamda anilangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga yega ekanligini anilang, ularni anilanish va o'zgarish soalarini toping:	N to'plamda anilangan uyidagi binar munosabatlar anday xossaga yega yekanligini anilang, ularni anilanish va o'zgarish soalarini toping:

Guruh talabalarining barchasiga domino kartochkalari tarqatiladi va biror talaba kartochka quyi qismida berilgan savol-topshiriqni o'qib, javobini aytadi. So'ng, savol-topshiriqni o'qib, javobini qolgan talabalardan kartochkasi yuqori qismida joylangan natija bilan tekshiriladi, javob aks etgan talaba ajratilgan savol-topshiriqni o'qib, javobini aytadi va hokazo. Shunday qilib, barcha talabalar savol-topshiriqni bajarishda qatnashadi va ular to'g'ri bajariladi. Bu metodni ma'ruzaning oxirida yoki amaliy mashg'ulotning boshida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Умарова У.У. Роль современных интерактивных методов в обучении темы "Множество и операции над ними". Вестник науки и образования 94:2020. № 16. часть 2, С. 21-24.

2. Умарова У.У. Применение триз технологии к теме "Нормальные формы для формул алгебры высказываний". Наука, техника и образование. 72:8 (2020) С. 32-35.

3. Umarova U.U., Beshimova D.R. Hyperspace and cs-network. Journal of Global Research in Mathematical Archives. №6 (2019), pp. 28-30.

4. Меражова Ш.Б., Умарова У.У. Аппроксимация первой краевой задачи разностной моделью для уравнения смешанного типа. "Молодой учёный", 2017, С. 10-12.

АКАДЕМИК ЛИТСЕYLARDA МАТЕМАТИКА О'QITISHNING ЗАМОНАВИЙ МЕТОДЛАРИ ВА УСУЛЛАРИНИ ҚО'ЛЛАШ

Djurayeva Ra'no Kayumovna
TTYSI Akademik litseyi
Oliy toifali matematika o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada akademik litseylarda matematika o'qitishda qo'llaganda yaxshi samara beradigan pedagogik metodlar haqida so'z boradi. Zamonaviy matematika darslarining maqsadi - yangi, hali noma'lum vazifalarni mustaqil hal etishga qodir bo'lgan umumiy madaniy va shaxsiy rivojlanishning yuqori darajasiga ega bo'lgan ko'p qirrali bilimga ega bo'lgan o'quvchilarni shakllantirishdir.

Kalit so'zlar: arifmetik progressiya, kommunikativ rivojlanish, modulli ta'lim, loyiha faoliyati, mantiq elementlari

Matematika darslarida o'qitishda vakolatli yondashuvni amalga oshirish uchun turli pedagogik texnologiyalardan foydalanishingiz mumkin:

- modulli ta'lim, loyiha faoliyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Bunday holda, dars interfaol xarakterga ega bo'lib, amaliyot orqali o'rganishga, kichik guruhlarda o'quvchilarning samarali ishlashiga, predmetlararo aloqalardan foydalanishga, mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan. Muxtasar qilib aytganda, matematika o'qituvchisining zamonaviy sharoitda ishlash tizimi o'quvchilarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak: ularning dunyoqarashi, ijodiy qobiliyatlari, bilim faoliyati. Matematikani o'qitishda malakali yondashuv o'qituvchilarni ta'lim va tarbiya vositalarining arsenalini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqishga, eng samarali shakllarni tanlashga va ularni kompyuter fanlari va AKT darslarida olingan o'quvchilarning bilim va tajribasiga tayangan holda o'quvchilar bilan birgalikda ishlab chiqishga majbur qiladi. Matematika darslarida kompyuter haqiqiy ehtiyojga aylandi. Undan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadigan axborot muhitini yaratishga imkon beradi.

- Har bir inson matematikaning bunday bo'limini stereometriya sifatida o'rganish ko'plab o'quvchilarga katta qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkinligini biladi, materialning assimilyatsiyasi ko'pincha yodga olinadi. Kompyuterdan foydalanish stereometriyani o'rganish jarayonini o'rganish tamoyillaridan biri - ravshanlik orqali sezilarli darajada osonlashtiradi. Aniqlik - "didaktikaning oltin qoidasi" ta'limning etakchi tamoyillaridan birining mazmunini tashkil etadi. Maktabda stereometriyani o'rganishdagi asosiy vazifalardan biri o'quvchilarda mekansal tasavvurni rivojlantirishdir. Shuning uchun kompyuterni o'rganish rejimida va o'rganilayotgan materialning grafik tasviri rejimida stereometriya darslarida qo'llash tavsiya etiladi. Va, ayniqsa, matematikani o'qitishda vakolatli yondashuv asosida muhimdir,

Microsoft Power Point dasturida o'qituvchilar va o'quvchilarning o'z o'quv-uslubiy qo'llanmalarini yaratish uchun mavzu bo'yicha tayyor dasturlardan foydalaning. O'quv prezentatsiyalarini yaratish, birinchi navbatda, maktab o'quvchilarini bilim faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan tadqiqotlarga jalb qilishdir. Ushbu turdagi mahsulotlarni darslarda va darsdan tashqari faoliyatda qo'llashda materialning yanada tushunarli bo'ladi. Ta'lim jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshiriladi, chunki u ob'ektlar va hodisalarni kuzatish asosida amalga oshiriladi. Axborot texnologiyalari yordamida yangi hayot tajribasini maqsadli izlash o'quvchilarning ongida mekansal g'oyalarni rivojlantirish yo'lida sifatli sakrashga olib keladi.

Vakolatli yondashuvni amalga oshirishda amaliy va kundalik hayotda erishilgan bilim va ko'nikmalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratish lozim. Matematika mavzusi quyidagi

sohalarga bo'linadi: arifmetik; algebra; geometriya; mantiq elementlari, kombinatoriklar, statistika va ehtimollik nazariyasi. Matematikaning har bir sohasi uchun amaliy ko'nikmalarga muayyan talablar qo'yiladi. Shunday qilib, arifmetik sohasida: oddiy amaliy hisoblash muammolarini hal qilish, og'zaki hisoblash va hisoblash natijalarini baholash, hisoblash natijalarini tekshirish, turli metodlarni qo'llash;

algebra: formulalar bo'yicha hisob-kitoblarni bajarish, real qiymatlar o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi formulalarni tuzish, jismoniy miqdorlar o'rtasidagi bog'liqlikni tavsiflash, oddiy amaliy vaziyatlarni o'rganish;

geometriya: geometrik hisob-kitoblar tilida haqiqiy vaziyatlarning tavsiflari, shu jumladan oddiy trigonometrik formulalar, geometrik qiymatlarni topish bilan bog'liq amaliy muammolarni hal qilish, geometrik vositalar bilan qurish;

mantiq elementlari, kombinatoriklar, ehtimollik nazariyasi statistikasi: dalil bilan dalil yaratish, mantiqiy noto'g'ri fikrlashni tan olish.

Matematika fanini o'qitishda vakolatli yondashuvni amalga oshirish uchun darslarda turli pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi: loyiha faoliyati; o'yin texnologiyalari; modulli ta'lim.

O'quvchilarning matematik savodxonligi matematikadan foydalanishni talab qiladigan turli muammolarni muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlaydigan "matematik bilimlar, ko'nikmalar, tajriba va inson qobiliyatlari kombinatsiyasi" deb ta'riflanadi. Vakolatli yondashuv o'quvchilarni kelajakda professional, shaxsiy va ijtimoiy hayotda samarali ishlashga imkon beradigan turli xil ko'nikmalarga ega bo'lishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, yangi, noaniq, muammoli vaziyatlarda ishlashga imkon beradigan qobiliyatlarga alohida ahamiyat beriladi, buning uchun tegishli vositalarni oldindan topa olmaysiz. Ular bunday vaziyatlarni hal qilish va kerakli natijalarga erishish jarayonida topilishi kerak. Shunday qilib, vakolatli yondashuv amaliy, amaliy tabiatni (shu jumladan, mavzuni o'rganishni) mustahkamlashdir. Ta'lim va bilim qobiliyatini rivojlantirish vositalaridan biri "vakolatli vazifalar" bo'lishi kerak, bu esa o'quvchi uchun muayyan amaliy yoki shaxsiy yo'nalishni o'z ichiga olishi kerak, shuning uchun qaror qabul qilish jarayonida faoliyat yuritiladi va muammoni hal qilish maqsadi yangi bilimlarni (usulni, echimlarni, qabul qilishni) tayinlash kabi javob olishda emas), boshqa ob'ektlarga o'tkazilishi mumkin, ya'ni. ob'ektiv bilim muayyan o'zaro yoki umumiy o'rta ma'lumot olish uchun vosita bo'lib xizmat qilishi kerak.

Matematik modellashtirish - bugungi kunda sodir bo'layotgan ilmiy bilimlarning matematikasi va, shuningdek, bilimning muhim bosqichi: matematik modellar dialektik bilim nazariyasida aks ettirish tushunchasiga mos keladi. Shu sababli, maktab matematik ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni haqiqiy yoki tshlil qilingan dunyo hodisalari va uning matematik modellari o'rtasidagi munosabatlar bilan tanishtirish, matematik modellarni qurish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar, ularning mavhum matematik modeli, ahamiyatsiz bo'lgan narsalar mohiyatini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Vakolatli ta'lim - rasmiy ta'limdan rivojlanish tushunchasiga va shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishga o'tish. Bu o'rganilayotgan mavzu, o'quvchining shaxsiyati, uning manfaatlari o'rtasida begonalikdan qochish imkonini beradi. Bu rasmiy ta'limdan rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish kontseptsiyasiga o'tish. Ushbu yondashuv bilan o'quv faoliyati tadqiqot va amaliy yo'naltirilgan xarakterga ega bo'lib, u o'z-o'zini anglash mavzusiga aylanadi. Bu juda muhimdir, chunki matematikani o'qitishda ma'lum bir faoliyatga xos bo'lgan fikrlash sifati va jamiyatda to'laqonli hayot uchun zarur bo'lgan shaxs; amaliy faoliyatda qo'llanilishi, tegishli fanlarni o'rganish va ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan aniq matematik bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga ega bo'lish.

Umumiy ta'lim vakolatlari, o'qilgan qoidalarning asosiy qismini tanlash, aniq qoidalar, teoremlar, aksiomalar, muammolarni hal qilishning turli xil variantlarini o'rganish,

ularning faoliyati natijalarini baholash alohida-alohida emas, balki vakolatlar deb ataladigan mahorat bloklarining ajralmas tizimida bo'lishi kerak. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarni nostandart vaziyatlarni tahlil qilish, maqsadlarni belgilash, ularning faoliyati natijalarini rejalashtirish, muayyan vaziyatda mas'uliyatli qaror qabul qilishni o'rgatishdir. Darslarda tahsil olayotgan o'quvchilar eng ko'p real va simulyatsiya kontekstlarida o'zlashtirilgan vakolatlarga ega bo'lishlari, nostandart vaziyatlarda olingan bilimlarni qo'llashlari kerak.

Dars interfaol xarakterga ega bo'lib, amaliyot orqali o'rganishga, kichik guruhlarda o'quvchilarning samarali ishlashiga, o'zaro aloqalardan foydalanishga, mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan. Ta'lim sohasida, shu jumladan matematikani o'qitishda malakali yondashuv ta'lim natijalarining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Turli sohalardagi ma'lumotlardan foydalanish haqida gapirganda, matematika darslarida boshqa fanlardan materiallardan foydalanishni emas, balki boshqa darslarda va hayotda matematika tushunchalari va usullarini qo'llashni ham yodda tutish kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, sinov va nazorat ishlari va testlar yordamida o'quvchilarning malakasini aniqlash, tegishli topshiriqlarni tanlash mumkin, ammo barcha vakolatlar bunday ishlarning natijalari bo'yicha to'g'ri baholanishi mumkin emas. Misol uchun, ushbu turdagi vakolatlar guruhdagi ish qobiliyatlarini, jamoada turli ijtimoiy rollarga ega bo'lishni o'z ichiga olganligi sababli, o'quvchining shaxsiy ish natijalari bo'yicha muloqot qobiliyatini aniqlash qiyin. Bu erda o'quvchi uchun olib borilayotgan ishlarning foydaliligini hisobga olish kerak. Shuning uchun, matematika o'qitish uchun vakolatli yondashuvni joriy etish, o'qituvchi bir butun sifatida va mustaqil, nazorat qilish, uy ishlari, darslarda ishlash, talaba tashabbuskorligi, bilim uchun uning istagi natijalari bo'yicha talaba malakasini baholash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alixonov S. "Matematika o'qitish metodikasi" Qayta ishlangan II nashri. Toshkent. "O'qituvchi" 1997.
2. Alixonov S. "Matematika o'qitish metodikasi". Toshkent. "O'qituvchi" 1992.
3. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasidan praktikum. OTM uchun darslik. Toshkent., "O'qituvchi" 2004
4. Jumayev M.E. va boshqalar. Matematika. OTMning Pedagogika psixologiya fakulteti talabalri uchun darslik. Toshkent. "Moliya Iqtisod" 2008.
5. Столяр А.А. "Методы обучения математике" Минск. "Вершая школа" 1993.
6. Фридман Л.М. Как решат задачи. Москва. "Просвещение" 1988.

ФИЛОЛОГИЯ ЙЎНАЛИШИ

"BOBURNOMA" DA GEOGRAFIK NOMLARNING ETIMOLOGIYASI

Abdunabiyeva Muborak

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning tilshunoslik ilmiga qo'shgan hissasi, va uning "Boburnoma" asaridagi toponim va etnotoponimlarning bugungi zamonaviy tilshunoslik mavqeida turib baholaganligi ilmiy jihatdan tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, fonetika, toponim, oykonim, oronim, gidronim, etimologiya, ilmiy etimologiya, soxta etimologiya, xalq etimologiyasi

"Boburnoma" asari Zahiriddin Muhammad Bobur nomini butun dunyoga mashhur qilgan, buyuk qomusiy asardir. "Asar uning yigirmadan ortiq sohaga qiziqqanligiga yaqqol misoldir". Darhaqiqat, ushbu asarni o'qigan har qanday soha vakili o'z sohasiga oid ma'lumotlarni topa oladi. Bu jihatdan "Boburnoma" ni haqiqiy mukammal asar deyish mumkin. "Boburnoma"ni tilshunoslik asari deb ham qarash mumkin. "Vaqoe" muallifi til ilmining eng qiziqarli sohalari - etimologiya, fonetika xususida o'ta jozibali va teran ilmiy kuzatishlarini bayon qiladi.

Boburnomadagi toponimlar, geografik nomlar haqida so'z yuritilar ekan, H.Hasanov 1000ga yaqin nom keltirilganligini ta'kidlaydi.

Toponim deganda, ma'lum geografik obyektning nomi, uni boshqa shunday obyektдан farqlovchi atama tushuniladi. Toponim qanday obyektни nomlashiga ko'ra ham tasniflanadi. Jumladan, shahar, qishloq, tog', o'rmon, suv havzasi va hokazolar. Bunday geografik nomlar turli davrlar guvohi. Turli soha olimlari - tilshunoslar, geograflar, tarixchilar, arxeologlar, geologlar, etnograflar toponimikaga murojaat qiladilar.

"Boburnoma"da ham toponimlar ya'ni oykonimlar(turar joy, qishloq, shahar, ovul nomlari), oronimlar(tog'lar, cho'qqilar, qirlar, daralar, tekisliklar nomlari), gidronimlar(suv obyektlari: okean, dengiz, ko'l, soy nomlari) kabi nomlarining etimologiyasi ya'ni kelib chiqish tarixi haqida bayon qilinadi.

Etimologiya (yunoncha etimon - haqiqat, so'zning asosiy ma'nosi, logos - fan) - so'zning kelib chiqishi.

Ya'ni etimologiya so'zlarning fonetik, grammatik, morfologik va lug'aviy ma'nolarini, kelib chiqish tarixini o'rganadi. Etimologiya uchga bo'linadi:

1)ilmiy etimologiya - til tarixiga, lahja va shevalarga murojaat qilish, faktlarni turli yo'llar bilan qiyoslash orqali yuzaga keladi.

2)soxta etimologiya - eskirgan yoki o'zlashma so'zning morfologik tuzilish va boshqalar xususiyatini noto'g'ri tushunish natijasida yuzaga keladi.

3)xalq etimologiyasi - xalq orasida tarqalgan turli afsona, rivoyat, aqidalar orqali yuzaga keladi.

Joy nomlari shu qadar ko'pki, hammasining ham ma'nosi tushunarli emas. Ko'rinishidan,

o'qilishidan biz uchun sodda tuyulgan har bir nomning o'z tarixi, etimologiyasi bor va bu narsalarni teran anglash mushkuldir. Bu nomlarni har kim o'z xohishicha talqin qilaversa, nomlarning asl ma'nosi, mohiyatiga putur yetishi hech gap emas.

Quyida esa "Boburnoma" asaridagi toponim va etnotoponimlar etimologiyasi imkoniyat darajasida tahlilga tortildi.

Bobur o'z asarida ham ilmiy, ham xalq etimologiyasiga tayangan. Ya'ni u o'z kuzatishlari, izlanishlari hamda xalqdan eshitgan rivoyatlariga asoslangan holda etimologiyalarni keltirib o'tadi. U Kandibodom shahriga ta'rif berib shunday deydi: "Muning tavobidin Kandibodomdur. Agarchi qasaba emas, qasabachadir. Bodomi yaxshi bo'lur. Bu jihatdin, bu ismga mavsumdur." Hozirda bu joy Tojikistonning Sug'd viloyatiga qarashli bo'lib, Konibodom tarzida talaffuz qilinadi. U ikki qismdan, "kon" hamda "bodom" so'zlaridan iborat bo'lib, "bodom koni" degan ma'noni anglatadi degan tushunchalar mavjud. Aslida esa joy nomining birinchi qismidagi kon so'zining "ko'p, mo'l" so'ziga aloqasi yo'q, "kand" so'zi shahar degani, ya'ni Kandibodom "bodomli shahar" degan ma'noni anglatadi. Yillar davomida esa fonetik o'zgarishga uchrab Konibodom tarzida talaffuz qilinadi.

Bobur hozirgi Qayroqqum cho'lining eski nomi bo'lgan "Hodarvesh" ga shunday ta'rif beradi: "Xo'jand bila Kandibodom orasida bir dashte tushubtur, Hodarveshga mavsumdur. ...tund yellari bor. Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo'luqub, bir-birini topolmay "Ho darvesh", "Ho darvesh" deya-deya halok bo'lurlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar". Bobur ushbu etimologiyani keltirishda xalq etimologiyasiga tayangan. Insonlarning deyishlaricha, bu dashtda darveshlar qattiq shamolga yo'liqib, bir-birlarini topolmay, "Ho darvesh" deya-deya halok bo'ladilar. Shuning uchun bu sahroning nomi Hodarvesh deyiladi.

Asarda Qashqadaryo viloyatidagi Shahrisabz shahrining nomlanishi shunday izohlanadi: "Samarqand bila Kesh orasida bir tog' tushubtur, Itmak doboni derlar. Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo'b sabz bo'lur uchun Shahrisabz ham derlar". Demak, Shahrisabz - "yashilliklarga boy", "ko'kalamzor shahar" degan ma'noni anglatadi.

Tul ko'talini esa quyidagicha ta'riflaydi: "...Bu uch ko'taldin yaxshirog'i Tuldur. Vale yo'li bir nima uzunroqdur. G'olibo bu jihattin Tul derlar". Tul so'zi "uzun" degan ma'noni anglatadi. Shu bois bu joyni Tul deb ataydilar.

Bobur Parvon yo'lini ta'riflab shunday deydi: "Yana biri Parvon yo'ludur, ulug' ko'tal bila Parvon orasida yana yetti ko'tal bor uchun Haftbacha derlar". Ko'tal so'zi dovon degan ma'noda. Katta dovon bilan Parvon orasida yetti dovon bo'lgani uchun "Haftbacha", ya'ni "Yettibolali" deb atalgan.

Afg'onistondagi Ko'hi Safid va Kobuldagi Gurband oronimlariga tubandagicha izoh beriladi: "Ningnahorning janubida voqi' bo'lubtur, ... To'qquz rud ushbu tog'din chiqar, bu tog'din qor hargiz o'ksumas. Bu jihatdin g'olibo "Ko'hi Safid derlar". Bu tog'da qor hech yo'qolmasligi uchun Ko'hi Safid deb ataganlar. Ko'hi Safid - Oq tog' degan ma'noni anglatadi. Bu tog' hozirda Afg'onistonning Jalolobod tumaniga qarashlidir

"Yana bir G'urband tumanidir. Ul viloyatlarda ko'tallarni band derlar. G'ur sari bu ko'tal bila borurlar, g'olibo ul jihatdin G'urband debturlar". Bobur u viloyatlarda dovonni band deyilishi, G'ur tog'iga bu dovon orqali borilgani uchun G'urband deb atalishini taxmin qilgan.

Bobur hozirgi Afg'oniston Islom Respublikasining Lamg'on viloyati etimologiyasini grammatik asosda isbotlaydi. "Hazrati Nuh payg'ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadur. Ba'zi tarixda Mehtar Lomni Lamak (Lamkon) ham debturlar. Ul elni heyli mulohaza qilibturkim, ba'zi mahal "kof" o'rnig'a "g'ayn" talffuz qilurlar, bu jihattin g'olibo bu viloyatni Lamg'on debturlar". Mehtar Lomni Lamkon ham deganlar. Bobur bu el tilini mulohaza qilib ko'rgach, ba'zi payt "k" o'rniga "?" talaffuz qilishlari, hamda shu sababli bu viloyatni Lamg'on deb atalishini aytadi.

"Boburnoma"da Hindiston shimolidagi vodiylar Kashmir oykonimiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Kashmirdan o'tgach, bu tog'da benihoyat el va ulus va pargana va viloyatlardur. Hinduston elidin muncha tahqiq va taftish qilildi, hech kim bu tavoyifdin tahqiq xabar ayta olmadi. Ushmuncha deydurlarkim, bu tog' elini Kas derlar. Xotirg'a yettikim, Hinduston eli "shin"ni "sin" talaffuz qilur. Chun bu tog'da mu'tabar shahr Kashmirdur, balki Kashmirdin o'zga bu tog'da shahre eshitilmaydir. Bu jihattin bo'la olurkim, "Kasmir" demish bo'lg'aylar". Bundan anglashiladiki Bobur bu joy nomi haqida ko'plardan surishtiradi. Biroq hech kim to'g'ri ma'lumot berolmaydi. Bu tog' xalqini kas deyishgani uchun, Hindistonliklar "sh"ni "s" tarzida talaffuz qilganlarini inobatga olib, Kashmirni "Kasmir" deb atashganini taxmin qiladi.

Asarda Himolay tog'i haqida shunday deyiladi: "Bu tog' elidin mato' nofa mushk va qo'tosi bahriy va za'faron va surb va misdur. Bu tog'ni Hind eli Savalak Parbat derlar. Hind tila bila "sava"-rub', "lak"-yuz ming, "parbat"-tog', ya'ni rub' va yuz ming tog'kim, yuz yigirma besh ming tog' bo'lg'ay". Ya'ni hind tilida "ava"-chorak, "lak"-yuz ming, "parbat"-tog', ya'ni "chorak va yuz ming tog'" - bir yuz yigirma besh ming tog' kelib chiqadi.

Kobuldagi "Shohi Kobul" oronimining kelib chiqishini shunday tushuntiradi: "Qal'aning g'arb va janub tarafi kichikraq parcha tog' tushubtur. Ul tog'ning qo'llasida Shohi Qobul imorat qilgani uchun bu tog'ni Shohi Qobul derlar". Bu ta'rifdan anglaymizki, bu tog'da Qobul shohi imorat qurdirgani uchun Qobul shohining nomi bilan "Shohi Qobul" deyilgan.

Bobur Afg'onistondagi "Xoja seyoron" chashmasi (bulog'i) ning nomlanishini quyidagi rivoyat bilan bog'laydi: "Bu kentlardin quyiroq dashtdin bir kuruh-bir yarim kuruh yuqori boqa domanada tog'ning tubida chashma voqe bo'lubtur. Xoja Seyoron derlar. Bu chashmada va bu chashmaning atrofida uch nav daraxtlardur. Derlarkim, bu uch jins daraxt uch azizning karomatidir, Seyorong'a vajhi tasmiya buni derlar". Boburning aytishicha bu chashmaning atrofida uch nav daraxt o'sgan. Chashmaning o'rtasida qalin chinor daraxtlari, ikki tarafida balut daraxtlari, old tarafida esa arg'uvonzor yastangan. Bundan anglashiladiki, "Seyoron" chashmasi - "uch do'st, uch aziz" ma'nosini anglatadi.

Asarda hozirgi kunda Afg'onistondagi Bangash va Bannu viloyatlarini bog'lovchi "Go'spandliyor" yo'lining etimologiyasi shunday izohlanadi: "Omma yo'l o'ng qo'limizda bir-ikki kuruh ekandur, bu yo'l otliq yo'li emas ekandur. Qo'ychi va cho'pon gohi gala va ramani bu yo'l va tangi bila indurur uchun bu yo'lni Go'spandliyor der emishlar. Yo'lni afg'on tili bila liyor derlar". Demak, Go'spandliyor- "qo'y yo'li" degan ma'noni anglatar ekan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Boburning Farg'ona, Hindiston, Afg'oniston hududi, ularda yashovchi aholi tili, millati va etnik tarkibi haqidagi ma'lumotlari bugun ham ulkan ilmiy qimmatga ega. Bu ma'lumotlar nafaqat turkiy xalqlar uchun, balki butun jahon olimlari uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bobur nomidagi Xalqaro jamg'arma " Boburnoma". T: "Sharq" nashriyoti - 2002
2. Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi "Boburnoma". T: "O'zbekiston" nashriyoti - 2019
3. Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi. "Z.M. Bobur ensiklopediyasi". T: "Sharq" nashriyoti - 2014
4. D. Rahimboyeva. "O'zbek tili onomastik leksikasining tarkibiy qismlari" dissertatsiya - 2012-2014-o'quv yili
5. H. Qudratullayev. "Bobur armoni". T: "Sharq" nashriyoti - 2009
6. S. Hasanov. "Zahiriddin Muhammad Bobur". T: "O'zbekiston" nashriyoti - 2011
7. S. Qorayev. "Toponimika". T: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti - 2006

CASE STUDY METHODOLOGY IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

Abdurakhimova Mukhlisa

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Faculty II Foreign Language and Literature, a student.

Abstract: The article substantiates the importance of teaching students a foreign language using the case study method. Now there is a lot of talk about the need to strengthen the communicative component when teaching a foreign language. This goal can be facilitated by the use of case studies in classes with foreigners. The classical case contributes to the development of skills for making an independent decision, the purpose of working with a case in an audience with foreigners is different - a communicative workshop.

Keywords: case study, foreign language, communication, interactive teaching methods.

The case study method is a method of active analysis of a problem situation based on learning by solving specific situational problems.

- The essence of the case study method: students, divided into groups, must analyze the situation and develop a practical solution;
- The end of the process is the evaluation of the proposed algorithms and their discussion in the framework of a general discussion in the context of the problem posed.

For the first time, the case method was applied in the educational process in 1870 at Harvard Law School by the dean of the law faculty, law professor Christopher Columbus Langdell. "Using the Socratic method (question-answer), developing the trial and error method, he suggested that students work with primary sources (court cases, decisions of the court of appeal, etc.), and then draw their own conclusions, present their own interpretations and analysis. Langdell's approach differed sharply from traditional teaching (lectures, seminars) in inductive empiricism and was met with tremendous resistance. But, despite this, in the first three years the method was established not only at Harvard. Its uniqueness and effectiveness has been recognized by six other schools. Instead of traditional lectures, students considered and discussed real situations that have taken place in life. Students prepared for classes in advance by studying folders with real documents. This experience exceeded all expectations and was soon recognized as promising. And its implementation began at Harvard University also in the teaching of medicine and business administration. The case returned to education in the 90s of the twentieth century and became a fairly popular method. As usual, the original idea acquires new meanings, various options and variations appear, which are increasingly moving away from the original source. Sometimes it is even difficult to understand why the author of the article writes that he uses case studies: his "case studies" are so far from the methodology developed at Harvard. A case study is offered in the classical sense, where a case presents a life problem situation that students need to solve based on their knowledge, practical experience and intuition. Since any situation has several solutions, there is a discussion of all possible solutions. The use of case studies is limited in the language lessons, since the features of the material (spelling and punctuation, grammar and phonetics) suggest, as a rule, one correct answer when solving a problem situation. But when teaching a foreign language, the case study can be used quite widely. When solving the problematic task of the case, the ability to listen, take into account an alternative point of view and express one's own, navigate and adapt to a new language environment for foreigners, remain one on one with real situations develops. With the help of this method, quickly adapting foreign students have the opportunity to be ready

to work in a team, to find the most rational solution to the problem. Analytical and communication skills are formed and developed, research activities are carried out. It is natural to apply situational analysis both for teaching professional and everyday communication. Case studies can be offered in various forms: resources from the Internet and periodicals, articles from encyclopedias, announcements, financial and economic reports, letters, materials from archives, and even in 5 forms of audio and video formats. The main thing is that the information presented in the case should have a clear and accessible structure with acceptable and understandable definitions and accurate data. In choosing a topic, an individual approach is important and what is relevant for this group of students. It is necessary to focus on the characteristics of this team: age, country, nationality. Information is selected that is relevant and acceptable for this particular group of students, taking into account national traditions and mentality. It is important to determine the nature of the relationship between the participants. How often do they communicate with each other? What emotional climate has formed between them? Holding key-studies in groups is recommended where the first stage of communication has already been overcome. Otherwise, the distances inherent in unfamiliar people will not allow individuality to openly manifest itself. And communication will be limited. It must be remembered that the main goal of the case study method is communication. This plan is most suitable for conducting a discussion between students who have previously communicated. Dividing into micro-groups in a familiar environment will be perceived by students naturally and will not create problems in discussing a given topic, which will allow the conversation to be smoothly transferred from a small circle to a general discussion. When developing cases, the following requirements must be observed: 1. Actual problems for students. 2. Correctness. 3. The events described in the materials are real. 4. The presented problem for discussion has an ambiguous solution, therefore it contains a sufficient amount of information. 5. Case content: video materials, adapted printed texts, photographs. 6. Ban on political topics.

The case can be both in paper form and in a folder that the student receives by E-mail. If there is video information in the case, then it is better, of course, to create an electronic folder.

Used literature:

1. Adonina N.P. Case study: history and modernity // Higher education today. 2012. No. 11. P. 43-48.

2. Yuldashev Z. Yu., Bobokhuzhaev Sh. I. Innovative teaching methods: features of the case study of the teaching method and ways of its practical use. Tashkent : Iqtisod-Moliya, 2006. 88 p.

INGLIZ TILIDAGI ANTONIMLARNING SEMANTIK JIHATLARI

Oripova Kamolaxon Erkinjon qizi
 Qo'qon davlat pedagogika instituti
 Xorijiy tillar fakulteti o'qituvchisi
 kamolaxon.ori.pova@gmail.com

Annotatsiya: Antonimlar an'anaviy ravishda qarama-qarshi ma'noli so'zlar sifatida ta'riflangan. Biroq, bu ta'rif yetarli darajada to'g'ri emas, chunki muammoni faqat qanday so'zlarni qarama-qarshi ma'noli so'zlar deb hisoblash mumkinligi haqidagi savolga o'tkazadi. Shu bois so'nggi lingvistik tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, antonimlar nutqning bir bo'lagi va bir semantik sohaga mansub so'zlar bilan o'xshash, bir xil grammatik ma'no va vazifalarga ega bo'lgan so'zlardir.

Kalit so'zlar: antonym, semantik, leksik, lingvistik, kontekst, prognoz.

SEMANTICAL ASPECTS OF ANTONYMS IN ENGLISH

Abstract: Antonyms are traditionally defined as words with opposite meanings. However, this definition is not accurate enough because it shifts the problem to the question of what words can only be considered as words with opposite meanings. Recent linguistic research, therefore, suggests that antonyms are words that have the same grammatical meaning and function, similar to words that are part of speech and belong to the same semantic field.

Keywords: antonym, semantic, lexical, linguistic, context, forecast.

Atrofdagi dunyoning ob'ektlari va hodisalari bir-biri bilan murakkab munosabatlar bilan bog'langan. Bu izchil turli ob'ektiv bog'lanishlar tashqi dunyoda o'z aksini topadi, uni o'zaro bog'langan leksik bloklarga bo'lish inson ongida va tilning leksik tizimida prognoz qilingan. Zamonaviy tilshunoslikda antonimiya so'zlarning mazmunan qarama-qarshilik kategoriyasi sifatida qaraladi. Tilshunos oilimlardan L. Vvedenskaya, V. Zavyalova, L. Novikov, E. Miller, Khr. Agricola, E. Agricola, Th. Shippan, M. Nikitin, D. Kruz, V. Myuller, P. R. Lutzeier, Chr. R?mer, B. Matzke lar antonimlarning semantik munosabatlari haqida o'z asarlarida ta'kidlab fikr bildirishgan. Ma'lumki, antonimlarning an'anaviy ta'rifida oldingi o'rinda semantik qarama-qarshilik belgisi ilgari suriladi. Ammo antonimning boshqa semantik hodisalardan farq qiladigan belgisi bor: polisemiya, sinonimiya va omonimiyadan farqli o'laroq, u bu ta'riflarga mos kelmaydi. Antonimlar nutqning bir qismiga va bir semantik sohaga mansub, bir xil grammatik ma'no va vazifalarga ega bo'lgan so'zlar bilan va so'z birikmalar bilan o'xshashdir. Morfologik tuzilishiga ko'ra antonimlar: ildiz antonimlari va hosila antonimlari (o'zagi bir xil, lekin hosila affikslari har xil bo'lgan) larga bo'linadi. Ayrim tilshunos olimlar qarama-qarshi ma'noli uch xil juftlik haqida gapirib beradilar. Demak, semantik jihatdan antonimlar gradativ antonimlar (biror narsani o'lchash va solishtirish mumkin bo'lgan biror narsani tavsiflovchi), to'ldiruvchi antonimlar (u yoki boshqa narsa bo'lish masalasi) va qarama-qarshi antonimlar (bu antonimlar har doim har bir narsaga bog'liq) deb tasniflanishi mumkin. Tilshunos olim Arnold adabiy asarda antonimlarni kontrastga urg'u berish vositasi sifatida ishlatish muammosini ilgari suradi. "Romeo va Julietta" ning quyidagi satrlarida bo'lgani kabi antonimlar hissiy taranglikni keltirib chiqaradi. (Act I, Scene V):

My only love sprang from my only hate

Too early seen unknown, and known too late!

Qarama-qarshilik aniq: bu juftlarning har bir komponenti boshqasining qarama-qarshiligini anglatadi. "love" va "hate" bir biriga qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan so'zlardir.

Boshqa ba'zi misollarni ham ko'rishimiz mumkin:

You will see if you were right or wrong (Cronin)

The whole was big, oneself was little (Galsworthy)...

Antonimik juftlikka kelsak, ular deyarli bir xil birikma so'zlarini ochib beradi. Misollar: "issiq" (hot) sifatdoshi o'zining "g'azablangan" (angry) va "hayajonlangan" (excited) majoziy ma'nosida asosan noxush his-tuyg'ular nomlari bilan birikadi: g'azab, nafrat, nafrat va hokazo (anger, resentment, scorn). Uning "sovuq" (cold) antonimi xuddi shu so'zlar bilan keladi. Antonim juftliklarining asosiy qo'llanish sohasi maqol va matallardir. Maqollar, til, san'at hodisasidir. Maqol va matallarning asosiy ma'nosi berilgan ma'lumot emas, balki badiiy naqsh, mazmun ma'nosi muhimdir. Ba'zi misollar:

There'd be no good fortune if misfortune hadn't helped.

Never put off till tomorrow what you can do today.

Deyarli har bir so'z bir yoki bir nechta sinonimga ega bo'lishi mumkin. Antonimlar esa nisbatan kam. Biz antonimlarni turli ildizlarga ega so'zlar va salbiy prefikslar bilan tuzilgan so'zlar bilan ifodalash mumkinligini tasdiqladik. Antonimlarning asosiy mezonini ularning juftlarini kontekstda barqaror ishlatishdir. Biroq, antonimlar so'zlarning semantik tarkibiy qismlaridan birining qutblanishini anglatadi, bu bizga bir xil asosiy fikrni ko'rsatadi. Ammo antonimlarni ikkita qutblilikning asosiy nuqtasini ko'rsatadigan so'zlarning bir nechta semantik tarkibiy qismlarining qutbliligi sifatida tushunish mumkin.

References:

1. Bloomfield L. Language. - Chicago: The University of Chicago Press, 1984. - 564 p.
2. Briab M. Semantics: Studies of the science of meaning. - N.Y. : Dover Publications, Inc., - 1964. - 314 p. Breheny R. A New Look at The Semantics and Pragmatics of Numerically Quantified Noun Phrases. - Journal of Semantics. -
3. Ginsburg R.S. A Course in Modern English Lexicology. M., 1979. 20. Givon T. Mind, Code and Content: Essays in pragmatics. - Hillsdale: Lawrence Erlbaum Associates Publ., 1989. - 456 p.

**"CHOLIQUISHI" ASARIDA POSTMODERNIZM KO'RINISHLARI VA
TAHLILLARI****Ismatova Saida Toshmuradovna**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi**Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi, o'qituvchi ,doktorant
saidaismatova1898@gmail.com

Annotatsiya: Jahon adabiyotida XX asar oxiri va XXI asr boshlarida namoyon bo'lgan postmodernizm atamasining ko'rinishlaridan tafakkurni keng ma'noda o'z-o'ziga havola qilish, gnoseologik va axloqiy relativizm, plyuralizm va hurmatsizlik tendentsiyalari kabi ko'plab ko'rinishlarini Rashod Nuri Guntekinning "Choliquishi" asari orqali tahlil qilib chiqishimiz mumkin. Postmodernizm mafkura, jamiyat va tarixning madaniyatga ta'sirini ko'rib chiqadigan tanqidiy nazariyaga tayanadi. Tanqidiy nazariya va postmodernizm obyektiv voqelik, axloq, haqiqat, inson tabiati, aql, til va ijtimoiy taraqqiyot haqidagi universalistik g'oyalarni odatda tanqid qilganini ushbu romanda yaqqol namoyon bo'lgan. Ushbu roman voqealari XX asrning ilk choragiga tegishli hisoblanib, bu vaqtda postmodernizmning ilk ko'rinishlariga duch kelamiz. Ulardan quyidagilarni sanab o'tish mumkin: metafikatsiya, parchalanish, tasodifiylikni qabul qilish, o'ynoqilik, intertekstuallik, ironiya kabi ko'rinishlarini sanab o'tish mumkin. Yozuvchi bu asar orqali XX asr boshlaridagi turk xalqi hayotini ko'p jihatdan mohirona yoritib bera olgan. Asar bosh qahramoni Feridening Qushadasida yashagan paytda Birinchi jahon urushi dahshatlari asarda ham ko'rinish bermasdan qolmagan.

Kalit so'z: metafikatsiya, obkjetiv voqelik, o'ynoqilik, realizm, tendensiya, ironiya

Kirish qism: O'sha davrning ijtimoiy muammolariga mohirona tanqidiy yondasha olgan "Choliquishi" asari ishqiy mavzuda yozilgan bo'lishiga qaramasdan Turkiyada yangi va modern davrning boshlanishini ko'rsatib bera olgan muhim asar hisoblanadi. Asarning oxirgi bo'limidan tashqari to'rt qismi bosh qahramon Feridening xotira daftari sifatida hikoya uning tilida qilinadi va ikki yarim yoshidan boshlab yigirma besh yoshiga yetguncha, muhabbati Kamronga etguncha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Beshinchi qismida esa Feride va Kamronning topishishi hikoya qilinadi. Huddi postmodernizmdagi talqin, ya'ni, asardagi jarayon "o'zidan boshlanib, o'zida tugashi" tushunchasi yuksak talqin etilgan.

Taxliliy qism: Bu romanning asosiy mavzusi muhabbatdir. Feride uzoq vaqt davomida sevgisini tan olmasdan, Kamrondan nafratlanishini aytsada, maktabda o'qib yurgan paytlarda ham, Onado'lida ish izlab sargardon kezman paytlarda ham Kamronni qattiq sevishda davom etadi. Bu qarama-qarshilik ironiya hisoblanib, bu adabiy vosita bo'lib, unda qarama-qarshi bayonotlar yoki vaziyatlar haqiqatga o'xshab ko'rinadiganidan farq qiladigan haqiqatni ochib beradi. Uzoq vaqt muhabbatidan ayro qolishiga sabab Feridening sevish va sevilishni yetarlicha bilmasligidir. Ya'ni, g'ururi va sevgisi orasida muntazam kurashni to'xtatolmagan Feride uzoq yil g'ururining sevgisi ustidan qozongan g'alabasidan azonlanib yashaydi. Ushbu kurashish jarayoni postmodernizmning poetic uslubiga haqiqiy (faktlarga asoslangan) va soxta (haqiqiy bo'lmagan) materialning qorishtirib yuborilishini va undan mantiqan kelib chiqadigan "usulni ochib tashlanishi"ni ya'ni, postmodernizmning xususiyati bo'lmish pastish (fr. pastiche, ital. pasticcio - so'zma-so'z boshqa opera parchalaridan tuzilgan yangi opera, qorishma, popurri, biror uslubga solish ma'nosini anglatadi)ni

kiritish mumkin. "Usulning ochib tashlanishi" kitobxon umidining aynan matnga bog'liqligini, matnning izmida bo'lganligini alohida ta'kidlashga, o'quvchining butun diqqat-e'tiborini shu jarayonga jalb qilishiga qaratadi. Xotira daftarining oxirgi sahifalarida Feride yillar davomida hatto o'zidan ham yashirishga urinib kelgan sevgisini nihoyat tan oladi. Bu ko'rinishni postmodernizmning xususiyatidan intertekstuallik ya'ni, bu matn mazmunini boshqa matn orqali shakllantirish deb tushunish mumkin. "Ha, nega endi aldashim kerak? Butun nafratimdan, isyonlarimdan, butun o'sha bo'lib o'tgan noxushliklardan qat'i nazar, men sening bir parchang edim". Bundan tashqari postmodernizmning metafikatsiya xususiyatini Feridening maktabda tanaffus paytlari shoxdan-shoxga tirmashaveriganini ko'rgan o'qituvchisi unga "Choliqushi" deb laqab qo'ganini ushbu ko'rinish orqali uchratish mumkin.

Xulosa qism: Sevgi-muhabbat hamda bir mojaro romani sifatida e'tirof etilishi mumkin bo'lgan "Choliqushi" romani o'quvchiga yaqin so'zlashuv tilida yozilgan va aynan shu sababga ko'ra ham sevib o'qiladi. Asardagi tasvirlarning rang-barangligi va ko'pligi o'quvchining o'zini ham voqealar orasida his qilishga yordamlashadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, bu romandagi voqealar postmodernizmning keng qamrovli ko'rinishlarini o'zida yorqin namoyon etadi. Aslini olib qaraganda asar voqealarida "nima bo'lishi kerak" va "aslida" nima sodir bo'lishi o'rtasidagi nomutanosiblikni tushuntirishga e'tibor qaratilgan. Har xil ommabop syujet va voqealardan foydalanish ham postmodernizmni mazmunsizlikdan saqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

- 1.Rashod Nuri Guntekin "Choliqushi". 1922. Mirzakalon Ismoilij tarjimasi.
- 2."XX asr modern adabiyoti manzalari" Muhammadjon Xolbekov, 2018-yil.
- 3.Logan P. M. The Encyclopedia of the Novel. - John Willey & Son, 2011. - 979 p.
- 4.uz.m.wiki pedia.org

O'ZBEK VA INGLIZ BADIY ASAR TARJIMAVIY MUAMMOLARI.

Durdona Azimova

Jizzax davlat pedagogika instituti
Chet tillar fakulteti 2 bosqich talabasi

Anotatsiya: Maqolada bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida duch keladigan badiiy asarning tarjimasidagi muammolar va shuning bilan birga, o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiyning o'lmas asari "Lison ut-tayr" birinchi bor o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasini muammolari ko'riladi.

Kalit so'zlar: adabiyot, ma'naviy hayot, urf-odat, an'ana, beqasam chopon, atlas ko'ylak, tillaqosh, zeb-ziynat, bo'yra to'n, naqsh.

Taniqli tarjimon, olim Sanjar Siddiq ta'kidlaganidek, "Tarjima - asarning boshqa tildagi to'liq nusxasidir". Tarjima adabiyoti milliy adabiyot xazinasidan o'z o'rnini topib, yildan-yil boyib borayotgan bugungi kunda olimning yuqoridagi so'zlari qanchalik to'g'riligi takror-takror o'z tasdig'ini topmoqda. Bugun tarjima vositasida butun jahon xalqlari bilan madaniy muloqot o'rnatilmoqda. Endi tinimsiz izlanishlar, chuqur nazariy, tanqidiy tadqiqotlar olib borish kerak. Muhimi, badiiy ijodning bu injiq sohasi vakillari, ya'ni tarjimashunos tadqiqotchilar qancha ko'paysa, soha ham shunchalik taraqqiy etadi, original bilan bellasha oladigan tarjima asarlari dunyoga keladi. Darhaqiqat, tarjima - azaldan til bilan bir qatorda mavjud bo'lib, adabiyot bilan uzviy bog'liqlikda taraqqiy etgani bois bu sohalarni bir-biridan alohida ajratish mumkin emas. Badiiy tarjima vositasida dunyo adabiyoti namunalarining xalqlarning madaniy hayotiga kirib kelishi bir xalqning boshqa xalq ma'naviy hayoti, urf-odati, an'analari bilan yaqindan tanishishiga ko'mak beradi. Va albatta, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida ko'plab muammo va kamchiliklarga ham duch kelinadi. Jumladan, ingliz va o'zbek tillariga badiiy asarning tarjimasidagi muammolar.

Buyuk bobomiz Alisher Navoiyning so'nmas ijodi va uning yaratgan asarlari asrlar davomida ko'plab adabiyotshunos va tarjimashunoslarning diqqatini o'ziga tortib kelgan. Hozirgi kungacha, inglizxabon olimlar ham Navoiy asarlarini ingliz tiliga o'girishga kirishmagan edilar, lekin vaqt o'tishi bilan bunday kamchiliklar bartaraf etildi. Va nihoyat o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiyning o'lmas asari "Lison ut-tayr" birinchi bor o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilindi. Bu asar 2003 yilning oxirida O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti va AQSH Markaziy Osiyoga beg'araz yordam korporatsiyasi hamkorligida ingliz tilida kitob xolida nashr ettirildi. Asar Garri Dik va Nosir Qambarov tomonidan yaratilgan. Va albatta, asar tarjima qilinishi davomida bir qancha muammolarga duch kelinganligi tabiiy holat. Bizga ma'lumki, zamon o'zgargani sari til ham rivojlanadi. O'z navbatida ba'zi so'zlar iste'moldan chiqib ketadi, ba'zilari boshqa tillardan yangi iste'mol sifatida kirib kundalik so'zlashuvda foydalanadi. A.Navoiy asarlari go'zal so'zlar koni desak adashmaymiz. Lekin bu so'zlarning hammasi ham hozirgi o'zbek o'quvchisiga tushunarli emas. Bu so'zlarni ma'nosini chaqib asarni tushunish uchun ancha bosh qotirishi kerak bo'ladi. Agar Alisher Navoiyning asl she'riy asarini o'zbek kitobxonini tushuna olmasa uni chet ellik kitobxon uchun tushunarsiz bo'lishi tabiiy hol, uni inglizchalashtirish mushkul ish. Agar tarjima she'riy asarning g'oyasini to'laligicha saqlab qolmoqchi bo'lsa, bunda hajm va shaklga putur yetadi. Chunki o'girilayotgan tilda aynan shu so'zning tarjimasini bo'lmasligi mumkin bunda tarjimon so'zni boshqasiga almashtirishi tabiiy hol.

Vaqt zamon o'zgarishi bilan odamlar ham, ularning yashash tarsi, qiziqishlari va xatto kiyinishlari o'zgaradi. Qadimda o'zbek ayollari uzun beqasam choponlar, yenglari juda katta atlas ko'ylaklar, boshlariga tillaqosh va zeb-ziynatlar taqishgan, oyoqlariga

kovushlar kiyishgan. Xozir esa bunday kiyimlar kiyish kundalik hayotda foydalanilmaydi. Yoki erkaklar salla, chopon, yaktak, oyoqlarida mahsi kalish bo'lgan. Hozirda bu kiyimlar kostyum shim, yoqali ko'ylak, tuflilar bilan almashtirilgan. Bu liboslar umuman iste'moldan chiqib ketmagan, faqat ularning o'rnini zamonaviylari egallagan. Bunday milliy kiyimlarsiz o'zbek millati o'zligini yo'qotadi. Lekin bir tildan ikkinchi tilga milliy kiyimlarning, poyafzallarning, taqinchoqlarning va bosh kiyimlarning nomlarini izohlab, ko'rsatib, tasvirlab yoki tarjima qilib berish katta mashaqqatli ishdur. Bir-biriga yaqin qarindosh tillardan qilinadigan tarjimalarda bu katta muammo tug'dirmasligi mumkun, lekin uzoq tillar uchun bu o'ta murakkab holder. Chunki xalqlar yiroq, til oilalari ham boshqa boshqa. Bundan tashqari turli xalqlarning jumladan, G'arbliklarning yashash tarsi, madaniyati, kiyimlari, bosh kiyimlari, poyafzallari sharqliklarnikidan farq qiladi. Demak, tarjima oldida XV asrda yashagan o'zbek xalqining kiygan kiyimlari ingliz kitobxoniga yetkazish va ularda o'zbeklar haqida, tasavvur hosil qilish muammosi paydo bo'lgan.

Bu muammolar quyidagilar;

Shayx yuvinib hirqa kiydi.

Bir kuni u aysh jomidan nush etayotib ko'chadan o'tib borayotgan janda kiygan ikki darveshni ko'rdi.

Beliga zunnorni mahkam bog'lab kofirlarni o'zimdan xursand qilay.

U hiyla bilan egniga xizrnikiga o'xs

U hiyla bilan egniga hizrnikiga o'xshash yashil chakmon tashlab olgan bo'lib, o'z nafsini ana shu yashil rang bilan xursand qilib yuradi.

Uni ushlab olib, soyaboni va tojini boshiga urdilar bo'ya to'nini esa buzib kuydirib yubordilar.

Chunki bu murid kiyadigan xirqa toza matodan bo'lib, u qizil, yashil va sariq naqshlar bilan ziynatlangan edi.

Zuxdu tasbehu ridongizdan uyat sizga. Kovush, salla va hassangizdan uyat sizga. Bu damda qo'lidagi hassasi xuddi uy ustuniga o'xshash uning gavdasini suyab qoldi.

Bu masxaraboz o'z boshiga kungurali toj qo'ydi.

Chunki menga toj nasib etgan, boshimda oltin tumog'a zar tojim bor.

Beliga zunnorni mahkam tang'ib, bu tasavvuf peshvosi bo'lgan Shayxni kofir qiladilar. U maet holda but aldida sajda qildi, egnidagi pirlik xirqasini olovda kuydurdi va "kallamul lohni" o'tga tashladi.

Ko'ylagiga rangbarang go'zal naqshlar solingan bo'lib, ularda Rum va farang ustalarining jon chekib mehnat qilganliklari ko'rinib turibdi.

Bu tubantabiat yana shunga teng keladigan boyligni to'niga gir aylantirib tikib olgan edi.

Yuz ming iltijo bilan egniga janda kiydi.

Ammo uning qo'lidan janda kiygan devonaning ishini qilish kelmaydi.

Kyim tikuvchi o'z ustaxonasiga borib shoh kiyimi uchun zarbof to'n tikmoqqa ish boshladi.

Yuqoridagi jummalardagi ajratib ko'rsatilgan kiyim nomlariga quyida izoh berishga harakat qilamiz. Xirqa - dag'al matolardan, qurab tikilgan libos, darveshlar kiyimi. Juldur kiyim. Janda - darveshlar va qalandarlarining uloq quroq to'ni. Zunnor - charmdan yasalgan maxsus kamar belbog'. Arab xalifaligi davrida musulmon davlati hududida yashab boshqa diniga e'tiqod qiluvchilar asosan musulmon emasligining belgisi sifatida zunnorni taqishgan. Chakmon - odatda jun matodan tikiladigan erkakcha uzun to'n. Bo'ya to'n - tozalangan qamish cho'pidan to'qilgan chopon. Kovush poyafzal turi, odatda maxsi bilan yoki sappoychang kiyiladigan oyoq kiyim turi. O'zbeklarning milliy oyoq kiyim turi. Salla - namozxon erkaklar boshiga kiyadigan, uzun oq mato. Hassa - qo'lda tutib yerga tirab yurish uchun silliq qilib ishlangan uzun tayoq. Zarbof to'n - zarda naqshlar bilan tkilgan

to'n.

Ana endi bu so'zlarning muqobilini ko'rib chiqamiz.

The Shaik washed himself and put on the customary Muslim clothes.

One day when he was in his visual state of inebriation he saw two dervishes clothed in robes pass him on the street.

Let me inside the unbeliever's tavern tie on the Christmas belt and hang the icon.

He had a green coat on like the one Hizr used wear and his lust was satisfied by that green colour.

They stick down his fan and crown from his head and his grass robe was destroyed and burnt.

See the king with your green coat and show the way for the lost ones as Hizr.

Shame on you for your religious garb, for your Islamic foot wear and staff. At the moment the staff in his hand buttressed his body just like a house pillar.

They call me the king of birds because I was bestowed a golden helmet. The metal cap that is used for trained hunting falcons in Central Asia.

They tightened the Christmas cord around his waist and the Sufi leader became an unbeliever. In his drunken state, he worshiped in front of the idol burned the tattered remains, of his old robes of authority and flung the Quran in to the fire.

Her dress had color and beautiful decoration. One could observe the soul bearing labor done by Roman and Europe expert.

This dervish was wearing the cloths of a sheik, the material was new and his robes were decorated with green and yellow ornaments.

This harsh man also had his robe stuffed with a comparable amount of treasure.

And with one thousand pleas and clothed himself in the rags of a dervish.

However, it cannot do what dervishes who wear tattered clothes can do.

A tailor went to his workroom and began to make a brocaded robe for the Shah to wear.

Finally the clown put a natched crown on top of his head.

Misollardan ko'rinib turibdiki o'zbek milliy kiyimlarining nomlarini boshqa tilga o'girish ancha ma'suliyat, bilim, mahorat, mulohaza talab etadi. Lekin ayrim so'zlarni qanday man'no anglatishini xatto o'zbek millati vakillari bilmasligi mumkun. Bunga sabab, bu so'zlarning arxaik so'zlarga aylanib, iste'moldan chiqib ketgani. Masalan, Bo'yra to'n qamish cho'pidan tikilgan chopon. Hozirgi vaqtda bunday choponlarni hech kim yasay olmaydi va kiymaydi. Bunday choponlarni qadimda cho'ponlar, qalandarlar kiyganlar. XV asrga xos bo'lgan kiyim turini nomini "bo'yra to'n"ni tarjimon "grass robe" o'tdan yasalgan to'n deb o'giran.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, badiiy asarni boshqa tilga o'girganda uni o'zga millat kitobxoniga boricha, xuddi muallif tasvirlaganidek yetkazish tarjimondan katta ma'suliyat va mashaqqat talab etadi. Ayniqsa, boshqa tilde aynan muqobili mavjud bo'lmagan so'zlarni tavsiflashda tarjimon o'ta ehtiyotkor bo'lishi lozim. Ularning o'rniga holatni to'liq ochib bermaydigan so'zlarni qo'llash yozuvchi tasvirlab bergan hissiy jozibadorlikning yo'qolishi, hatto, butun bir asar ideologiyasiga putur yetkazishi hech gap emas

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.PhD. X.Xamidov. Yosh tarjimashunos, V. "Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik" va "Sinxron tarjima" mutaxassisliklari magistrantlari hamda "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" yo'nalishi talabalarining yillik an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari". T.,2020.

2.S.Sodiqova. Dissertatsiya. "Badiiy asarlarda realiyalar tarjimasi". Namangan.2015

3.I.Toshmatova "Badiiy tarjimada innovatsion yangilik", "Yangi O'zbekiston - Правда Востока" gazetasi. 5.11.2020.

THE PHILOSOPHICAL NATURE OF LANGUAGE IN THE GLOBAL COMMUNICATION SPACE

F.F. Boltayev

Samarkand State Institute of Foreign Languages
research assistant

Abstract. This article analyzes the philosophical essence of language in the context of global communication processes, which predetermines human interaction based on the similarity of cultures, traditions and mentality. Today's communication system presupposes a dialogue of cultures, where integrative tendencies in the language of intercultural communication dominate.

Keywords: globalisation, language, communication, cultural convergence, cultural dialogue, adaptation.

In the process of global communication, all cultures find themselves drawn inside a global communication space. This communication space imposes a dialogue not based on the differences of cultures, but on the similarities, which drastically changes the semantic nature of the dialogue between cultures. If earlier, the meaning of culture was the basis and the deciphering of its meanings for the other acted as a means of adaptation, today, the communication system forces the dialogue between cultures according to its own laws and rules. Cultures are as if immersed in a different external environment, which permeates intercultural dialogue. The manifestation of this is today the dominance of integrative tendencies in the language of intercultural communication. One result of this is the subordination of all languages to the one which is most capable of spreading itself due to political, scientific, technical and other conditions. The world is either already starting to speak the language of the countries that dominate it, or is subordinated to the language of a certain technical superculture (e.g. computer culture). The common communication space is dominated by common stereotypes, common assessments, common parameters of required behaviour, its publicly available components. There has been a dramatic change in the system of communication itself, which has facilitated the spread of mass culture, breaking the proportion or dialectical unity between the upper and lower levels of culture, and preparing the world for a global culture, ideally encompassing the entire globe.

In the culture of every ethnic group there are many conceptual concepts that represent enduring universal values. In certain circumstances, especially at crucial events for the fate of the ethnic group, they served as the basic core for the value orientation of ethnic consciousness and self-awareness. Language as a part of spiritual culture provides an opportunity to penetrate into the mechanism of a complex process of cognition of the surrounding reality and oneself in this world. The language, as the spiritual memory of the people, retains that which has a value aspect, a focus on spiritual improvement.

In general, the tradition of research on ethnic consciousness and self-consciousness has a broad theoretical and empirical basis. It is based on a different understanding of the essence, nature and structure of ethnicity. The most common is the definition given by Yu. V. Bromley. "Ethnos is a historically formed on a certain territory stable set of people with common, relatively stable features of language, culture and psyche, as well as consciousness of their unity and difference from other similar formations (self-consciousness), fixed in the self-name" [4, 11]. Ethnic properties (language, culture, consciousness) are formed only under appropriate conditions - territorial, natural, socio-economic, state-legal. However, J.V. Bromley assessed ethnic self-consciousness

itself in different ways.

The concept that perception of the world is determined (conditioned) exactly by language (i.e. language sets vision of the world) is known in science as the concept of Sepir - Warf ("the theory of linguistic relativity"). E. Sepir wrote: "People live not only in the objective world and not only in the world of social activity, as it is usually assumed, they are largely influenced by the particular language that has become the means of expression for this society. It would be a mistake to think that we can fully grasp reality without the aid of language, or that language is a by-product of certain special problems of communication and thought. In fact, the "real world" is largely unconsciously constructed on the basis of the linguistic norms of a given group.... We see, hear and perceive in one way or another these or other phenomena mainly due to the fact that the linguistic norms of our society presuppose this form of expression" [9, 146]. E. Sepir believes that language is a guide to culture expressed in symbols.

Another author of the concept of linguistic relativity, Benjamin Lee Whorf, also argued that "we dissect nature in the direction shown by our native language. We do not distinguish certain categories and types in the world of phenomena because they (these categories and types) are self-evident; rather, the world appears to us as a kaleidoscopic stream of impressions, which must be organised by our consciousness, which means mainly by the language system stored in our mind. We compartmentalise the world, organise it into concepts and distribute meanings in this way and not otherwise, mainly because we are parties to the agreement that prescribes such systematisation. This agreement is valid for a certain speech collective and is enshrined in the pattern system of our language" [9, 76].

So the differences between cultures are dependent on linguistic differences. And that inevitable limit to one's understanding of another culture is precisely because our language lacks terms for certain realities that are created and conditioned by the language of another culture.

The idea that the meanings of words reflect and convey the way of life and the way of thinking characteristic of a given society (or linguistic community) and therefore provide invaluable keys to understanding culture was very precisely expressed by John Locke: "Even a modest knowledge of different languages will easily convince one of the truth of this statement: thus, it is easy to notice in one language a large number of words that have no correspondence in another. This clearly shows that the population of one country by its customs and way of life has found it necessary to form and name such different complex ideas, which the population of the other has never created. This could not be the case if such species were the product of the constant workings of nature, rather than aggregates which the mind abstracts and forms for the purpose of naming and for the convenience of communication. The terms of our law, which are not empty sounds, can scarcely find corresponding words in Spanish and Italian, languages which are not poor; still less, it seems to me, can they be translated into Caribbean or Vesta; and the word *uegeiga* of the Romans or the word *sorban* of the Jews have no corresponding words in other languages; and the reason for this is clear from what has been said above. Moreover, if we go a little deeper into the matter, and precisely compare the different languages, we shall find, that although the translations and dictionaries in these languages assume corresponding words to each other, yet among the names of complex ideas. there is hardly one word in ten, which would mean exactly the same idea as the other word by which it is rendered in the dictionaries. This is too obvious a proof to be doubted, and to a much greater extent we will find it in the names of more abstract and complex ideas. Such is the majority of the names, which constitute the discourse on morality; if, out of curiosity, one compares such words with those by which they are translated into

other languages, one will find that very few of the latter words correspond exactly to them in the whole scope of their meaning" [7, 23].

Thus, the problem of intercultural interaction is connected with the interaction of languages and peculiar ways of perceiving the world. Therefore, within the framework of contemporary problems of interethnic and national relations, we see it relevant to consider language as an internal determinant of ethnic self-consciousness.

A particular language is a unique way of knowing the world, which is followed by the linguistic community that speaks that language. Language is the medium of cognition of the world, "the word and language are not the usual means of representation, the means of describing external reality, but the means of subjecting reality to itself" [6, 51]. It is in language that "the rules and laws are laid down that require one to think by the analogy of the fathers rather than by nature, to look for images of the universal in the distorted mirror of tradition rather than in nature. There lie the forms of that cave in which the inventors of language and all their heirs thought, the plastic images of those small worlds from which they gazed upon the big world" [1, 72].

References.

1. Herder J. G. Abhandlung uber den Ursprung der Sprache // Sprachphilosophische Schriften. - Hamburg, Meiner, 1960.
2. Herder J. G. Fragmente uber die neuere deutsche Literatur // Sprachphilosophische Schriften. - Hamburg, Meiner, 1960.
3. Arutyunov S. A. A., Cheboksarov N. N. Information Transmission as a Mechanism of Existence of Ethno-Social and Biological Groups of Mankind // Races and Peoples: Modern Ethnic and Racial Problems. - 1972. - In: Races and Nations: Modern Ethnic and Racial Problems. 2. - M.: Nauka, 1971. - P. 8-30.
4. Bromley Y. V. To the Characteristics of the Concept of "Ethnos" // Races and Peoples: Modern Ethnic and Racial Problems. - In: Races and Peoples: Modern Ethnic and Racial Problems. 1. - Moscow: Nauka, 1971. - P. 9-33.
5. Bromley Y. V. Ethnosocial Processes: Theory, History, Modernity. - Moscow: Nauka, 1987.
6. Cassirer E. Forms and Technique // Cassirer E. Symbol, Technique. Language. Essays from the years 1927-1933 - Hamburg, Meiner, 1985.
7. Locke J. Experience on Human Reason // Essays in 3 vols. I. S. Narski, A. L. Subbotin. - Moscow: Thought, 1985. - T. 1.
8. Sepir E. Selected Works in Linguistics and Cultural Studies. - Moscow: Progress, 2001.
9. Warf B. L. The relation of norms of behaviour and thinking to language // Zvegintsev V. A. History of Linguistics XIX-XX centuries in essays and extracts. PART II. - M., 1965.

DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE FOR PROFESSIONAL PURPOSES

Boltayeva Madina

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Faculty II Foreign Language and Literature, a student.

Abstract. The article considers general tendencies in education, and also both principles and methods of forming professional, communicative, intercultural competences and in the process of teaching foreign language for professional purposes in the conditions of engineering, economic and other non-linguistic specialties at technical university. The article views some essential issues of this competence including awareness of pedagogical values, the construction of the pedagogical process, pedagogical communication and behavior; pedagogical technology, its essence, structural components, understanding of innovative components of professional activity, requirements for the design and engineering of pedagogical technologies.

Keywords: education, pedagogical process, language teaching, communicative competence, foreign language for professional purposes.

"English plays a large role in the life of modern students, as it is the dominant language of international communication, trade, cooperation and business. The development of modern IT technologies not only contributes to the development of a foreign language, but also emphasizes its relevance. The increase in information and communication resources in language professional training contributes to the formation of a foreign language to be a real means of communication between future specialists and foreign-language colleagues. When implementing a functional-communicative approach, specially oriented types of speech activity are developed with the aim of mastering a foreign language in line with the specifics of a future profession within the framework of developing the professional competence of students. Attracting a socio-cultural approach means the cultural development of a future young specialist, contributing to building successful business activity in the proposed conditions of intercultural communication and an indicator of the presence of such ability is an intercultural competence, complementing the professional one from the position of inter-lingual, language-oriented professional communication in the framework of effective professional activities. Functional-communicative, socio-cultural approaches and IT modern technologies involved in the formation of professionally oriented competence are focused on the student's personal characteristics, self-improvement, and development of the individual creative potential. Specially oriented language training in the framework of non-linguistic technical, economic and other specialties gives students the opportunity to act in the future as a mediator between different languages and cultures in business and socio-cultural spheres, that is, it becomes a kind of tool for the formation of social mobility, activity and adaptability of a young specialist's consciousness. To accomplish such a task of social adaptation and professional self-realization, it is necessary to use an interdisciplinary approach in teaching foreign language for professional purposes, which is a coordinated, equivalent, mutually contributing interplay of educational disciplines, combined by one whole educational and didactic system. Such an implementation of interdisciplinary relations provides the basis for the formation of communicative and professional competencies, which in turn becomes the key to high-quality teaching of a foreign language in non-linguistic specialties [1]. For example, when creating a work program with foreign language for professional purposes teaching, it should be noted that the use of a foreign language of a specialty helps to improve the professional competence of a future specialist,

namely, broadens the horizons in the process of obtaining information in a foreign language and, accordingly, improves the quality and level of business or industrial sphere of communication. Professionally-oriented language education in the conditions of a non-language educational environment is the process of developing the ability to: use an additional foreign language as a communication tool in the field of professional activity, taking into account its non-language specificity; recognize a foreign language professional culture; to build an adequate thought-out tolerant dialogue with participants in the inter-lingual process of communication. The implementation of intercultural competence presupposes the ability, of students, to maintain a communicative interaction in order to realize certain personal and professional intentions in reality, cooperate calmly within the framework of diverse situational communication. So, it is necessary to form in future specialists the ability to put into practice a foreign language interpretation of the linguistic picture of the world and specialty with a further direct and easy access into the open information and communication space of professional activities. The process of combining the perception of the world fragments through linguistically designed language of the specialty is happening by means of a foreign language as a speech tool for a fragmented expression of the original native and newly emerging, recognizable linguistic worldview and the specialty itself within a large communicatively designed space of modern reality. Thus, linguistic education in the conditions of a non-linguistic university acts as an important instrument for the successful functioning of a person in a multilingual and multicultural community of people. In the era of the development of information technologies leading to the modernization of education, it is necessary to develop new effective principles for the formation and effective coordinated implementation of communicative-language and professional competencies for foreign language for professional purposes in non-linguistic specialties and areas.

Used literature.

1. Zakharova S. N. Formation of communicative competence as a condition professional training of students in a pedagogical university // Young scientist. 2017. No. 3.1. pp. 8-10.
2. Zerkina N. N., Kisel O. V. Approaches, forms and methods of teaching adults // Education, innovations, research as a resource for community development: collection of articles. materials II Intern. scientific-practical. conf. 2018, pp. 71-74.
3. Lomakina E. A. Formation of communicative competence in teaching a professionally oriented foreign language // Foreign languages: linguistic and methodological aspects. Tver state. un-t, Tver. 2018. No. 41. P. 39-44.

THE USE OF GAMES IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE AT THE UNIVERSITY

Immatova Mukhabbat

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Faculty II
Foreign Language and Literature, a student.

Abstract. The article discusses the possibilities of using word games in the process of teaching a foreign language at a university. The main classifications of games are given, with the main attention being paid to games of a lexical nature. The article substantiates the conditions that allow the most effective use of word games in foreign language classes, and also provides examples of games at different stages of work with students.

Keywords: teaching a foreign language, game method of teaching a foreign language, language games, lexical games, adult learning.

Mastering a foreign language at a university implies the formation of a number of competencies in students. In particular, graduates should be able to communicate orally and in writing in a foreign language and solve problems of interpersonal and intercultural interaction. Therefore, students must have certain knowledge (for example, knowledge of language means) and skills (use the formulas of verbal communication, formulate their point of view, etc.), as well as be able to correlate linguistic means with specific situations of intercultural speech communication. The solution of this complex, "global" problem occurs during the entire period of teaching a foreign language at a university and requires the use of rational and effective approaches and technologies, forms and methods of teaching. Knowledge and possession of language means by students, their use in communication depends on how effectively this material was presented, consolidated, worked out. The method that allows: a) to motivate students to study the subject, b) contributes to the development of language and speech competence, c) contributes to faster and stronger assimilation of the material, is a game. In modern science, games are considered as a method that can be effectively used in teaching a foreign language to both children and adults. It would be appropriate to give classifications of games that will allow you to find out which games can contribute to the development of certain language skills as the following types of games:

1. Lexical.
2. Grammar.
3. Phonetic.
4. Spelling.
5. Creative.

The first four can be classified as so-called language, the purpose of which is the formation of relevant skills. Creative games are complex in nature, they imply the creative application of acquired knowledge and skills in a game situation. The following games can be called "word games" - they are all related to the word, its spelling, meaning, compatibility with other words. Word games allow students to: - expand vocabulary, getting acquainted with new lexical units; - it is stronger to assimilate already familiar lexical units; - work out the spelling of words; - to activate verbal-thinking activity; - gets acquainted with the compatibility of lexical units, set expressions, phraseological units. Word games include:

1. Anagrams
2. Crosswords
3. Search for words among alphabetic chaos (Wordsearch)

4. "Gallows" (Hangman)
5. "Words" (composing shorter words from one long one, often for a while).
6. "Unscramble" (composing a word from an existing set of letters).
7. Wordchain (compiling a list of words by replacing one letter in each subsequent word, possibly based on definitions).
8. Constructor (composing words from morphemes presented on separate cards).
9. "One letter - many words" (students name the words they know for a certain letter of the alphabet).
10. "Last letter" (name a word that begins with the last letter of the previous one; it is worth noting that in English, taking into account the unpronounceable -e at the end of a word, it may be suggested to start a word with the last sound of the previous one).
11. "Missing letters" (guess the word only by vowels / consonants).
12. Hot Chair (guess the word by its definition, synonyms, antonyms, etc.) and others.

Some of the games involve group work, team competition (for example, Hot Chair, Constructor, etc.), some work in pairs; such games as "Gallows", "Anagrams", "Wordchain" are appropriate to carry out frontally, presenting the material on the board.

It is necessary to encourage students to express ideas in a foreign language, so they are involved in communication, work out the skills of constructing sentences, certain speech formulas. And in this case, the use of the game in a foreign language lesson actually becomes an effective technique.

Used literature.

1. Stronin M. F. Educational games in the English lesson. M. : Education, 1984. 112 p.
2. Н. Х. Авлиякулов. Педагогическая технология. - Ташкент, 2009.
3. К. Ismanova. Amaliy dars mashg'ulotlarini innovatsion usullar yordamida tashkil etish. - Ta'lim muammolari jurnali. 2-son, 2012-yil.

THE IMPORTANCE OF LINGUISTICS IN THE THEORY OF TRANSLATION

Jumaeva Mukarrama

Student of Samarkand state institute of foreign languages

Abstract: The article provides detailed information on what is required in the translation process and the importance of linguistics in this process. In addition that, the benefits of studying linguistics are also discussed.

Keywords: translation, theory, linguistics, practice, information, expression, linguistics, culture, essence, function.

Introduction: Linguistics plays an important role in translating a document from one language to another. Translating information does not involve changing every word from its original language to another. It is also required to open all aspects and functions of the original language in the new language. Here, of course, the study and understanding of linguistics plays an important role in translation. The study of linguistics is mainly the study of human language. It can be divided into several subcategories. Accurate translation of one language into another requires reference to all the functions of linguistics. It is necessary to determine the grammar used, the meaning of the words as a separate component, as well as the phrases and sentences they create, how these phrases fit into time and history, and so on. Each language is different with its own linguistic functions, but there are also commonalities between languages. The correct translation should determine where the similarities and differences are. For example, relying on just one area, such as grammar, does not produce the best translation. In fact, if other functions are not fully performed, then there may be a lack of vital information. The careful use of the tools provided by linguists increases the quality and accuracy of the translated document.

The study of linguistics introduced me not only to the Indo-European family, but also to language families all over the world: Afro-Asian (Hebrew, Arabic), Ural (Finnish, Hungarian) and other small families. I was introduced to different types of syntax. Even from Old Ireland, I learned that sometimes a letter exists only to change the pronunciation of the previous one. It also taught me that sometimes there are no individual correspondences between words in different languages, i.e. one language can take two or three words to tell what can be said in one language in another. Although words have similar meanings, they do not have to replace each other. It is also not difficult to know that language can give a person an understanding of his culture. However, one of the biggest advantages of studying linguistics is the ability to break these sentences down into components. A scientific description of the translation process as an inter linguistic interpretation is a linguistic theory of translation. It is like translating a text into another language without losing meaning and maintaining its equivalence. The task of linguistic theory is to build the process of translation, that is, the process of translating a text from one language into another. We can say that linguistic theory is a clear scheme that reflects all the processes and manipulations with translation. When it comes to theoretical modeling, linguistic theory, like any theoretical model, demonstrates not all but the known and most important features of the translation process. This means that not everything in the original language and the language of translation is influenced by translation theory, only its regular repetition and regularity. A careful analysis of the source and output text reveals many chaotic and unrepeatable language references that are not influenced by the linguistic theory of translation. It is these unstable and chaotic correspondences that

cause great difficulty for the translator. The creative nature of translation work is in the ability to find exactly one thing. To date, there are a number of translation models in modern linguistic theory. They are all true from a certain point of view, because each model has its own mandate for the same event, but this is only used for part of it. Of course, no model can be global and require precision. Often, they complement each other, their commonality allows us to present all the complexities and types of the translation process. Let's try to answer a simple and at the same time difficult question: do you need to know translation theory to work as a translator? First of all, it should be noted that knowledge of the linguistic theory of translation helps the translator to be convinced of the objectivity of the decisions made. Second, modern translations cannot be made without the use of translation theory terminology, which helps the translator to express in a single word the complex phenomenon that occurs in translation, and not for composition, but to make the translation more concise and understandable. In our modern civilized world, there are "losers" in every profession, and the field of translation is no exception. The presence of such performers in the field of linguistic service causes great harm not only to others but also to themselves. In the constantly evolving infrastructure of the translation industry, modern requirements for a person are very high and only a professional who knows what the translation process is and its theoretical results can be entrusted with serious work. Only a translator who knows the linguistic theory of translation can determine the characteristics and essence of the translation task, which is the third. The key to successful translation to date is, of course, to know and understand translation theory. The essence of translation is to work with two texts or spoken words using interlingual variations. Completeness and consistency help determine the quality of translation. The versatility and precision in conveying the original meaning in the translated language and the methodological conformity to it mean the perfection of the translation. There are two ways to transfer form along with content: to reconstruct the properties of the original copy forms and to form a functional relationship to these properties. Therefore, when making a translation, it is necessary to take into account the specific nature of the original, the characteristic style of the text, not just copy the form of the source material. There are a variety of texts in the work of a translator or translation agency, some of which may provide lexical and grammatical features of the original in several variants, which should be taken into account when working with. To get a high-quality translation, the performer has to overcome a number of challenges. The interpreter's relationship with thinking and language comprehension has a huge impact on the outcome. These factors help the performer to overcome translation difficulties on a psycholinguistic plan. Depending on one's way of thinking, translation difficulties can have different solutions and they are presented in a completely different way. The essence of the matter lies in a different worldview and perception. In order to translate sufficiently, the latest dictionaries, relevant literature, the translator himself must have the knowledge, skills and experience.

Conclusion: In short, translation should not only translate this simple sentence into another language with full vocabulary, but also pay special attention to the culture, origin, and dialect of the people to whom that language belongs. Because every word has its own meaning. Therefore, knowledge of linguistics during translation is the key to our success.

References:

1. Antologia. Krakow: Znak. Catford, J.C. 1965. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press.
2. Bukowski, P., M. Heydel (eds). 2009. Wspolczesna teoria przekladu.

3. Fawcett, P. 1997. Translation and Language. Linguistic theories explained. Manchester: St Jerome Publishing.
4. Fillmore, Ch. J. 1977. "Scenes-and-frames semantics."
5. Jakobson, R. 1959. "On linguistic aspects of translation" In: L. Venuti, (ed.) 2000, The Translation Studies Reader. London: Routledge, 113-118.
6. Mukarrama Bekzodovna Jumayeva (2021). INTERACTIVE METHODS USED IN PRIMARY SCHOOLS. Scientific progress, 2 (4), 881-885.

ZULFIYA NIGOHIDA BAHOR**Mamirjonova O'g'iloy**

Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek she'riyatida katta iz qoldirgan, o'z she'rlari bilan ko'plab o'quvchilarning qalbidan joy olgan O'zbek xalq shoirasi Zulfiyaning ijod namunalarida bahor tasvirining o'ziga xos o'rni, badiiy tasvirning yorqin ko'rinishlari, shoiraning ijodi talqin qilinadi.

Kalit so'zlar. Shoira, bahor, ichki kechinma, tuyg'ular, badiiy olam, bahor nafasi.

Kirish. Quyoshli O'zbekistonimizga bahor fasli 1-martdan kirib keladi. Tabiat qish libosini bahorning go'zalligiga almashtiradi. Bahor fasllar ichra maftunkori, shoirlarni she'r yozishga, rassomlarni rasm chizishga, barcha san'atkorlarni ijod qilishga undovchidir. She'riyatda bu fasl deyarli barcha shoirlar tomonida tarannum etilgan. Jumladan, Muhammad Yusuf, Zulfiya, Hamid Olimjon, Oybek, Abdulla Ori pov va h.k. Har bir ijodkor bahorni har xil tasvirlaydi. Shoirlar ichida bahor faslini hammadanda ko'proq sevuvchi, uni boshqalardan ko'ra o'zgacha tarannum etuvchi shoira bu Zulfiyadir. Uning aksariyat she'rlarida bahor nafasi ufurib turadi, ushbu faslga bo'lgan mehr-muhabbat kuchli ekanligi yaqqol sezilib turadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Zulfiya she'riyati, shoiraning poetik timsol yaratish, shoira badiiy olami borasidagi mahoratini N.Karimov, I.G'afurov, A.Akbarov, O.Sharafiddinov, H.Umurov, O.Hojieva, M.Ulug'ova, N.Jabborov, D.To'raev kabi adabiyotshunos olimlarimiz, ijodkorlarimiz alohida ta'kidlaganlar va Zulfiya ijodiga yuksak baho berganlar. Shuningdek, G. Umarovning "Shoira Zulfiyaning badiiy olami" nomli monografiyada, "Zulfiya lirikasida tuyg'ular tadriji", "Zulfiya badiiy mahoratining ba'zi qirralari" kabi maqolalarida shoira Zulfiya badiiy olami va uning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Natijalar. Zulfiya she'rlari hissiy ta'sirchanligi, ayollik nafosati ufirib turishi bilan ajralib turadi. Shoira she'rlarida bahor mavzusida yozilganlari o'quvchilar tominidan sevib o'qiladi. Zulfiya sadoqatli o'zbek ayoli sifatida namoyon bo'lsada, biz shoirani bahor kuychisi sifatida ham e'tirof eta olamiz. Zulfiyaxonim bahorning ilk kuni 1-martda tug'ilganlii she'rlarida shu faslni yorqin tasvirlashiga sabab bo'lishi mumkin.

Muhokama. Shuni aytib o'tish joizki, shoira Zulfiyaning har bir she'ri o'zgacha tarix. Uning she'rlarini o'qigan har bir inson shoiraning nozik dil torlarini anglaydi. Butun hayoti davomida uchratgan yorug', muhabbatli, quvonch-shodlik kunlarini, yoki hayotida yuz bergan ayanchli hodisalar, g'am-anduhlar, ayriliq damlarini hissiyotiga qo'shib qog'ozga tushirgan satrlar Zulfiyaning turmushi, hayoti qanday kechganidan dalolat beradi. "20-30 she'r yozib, gazeta-jurnallarda bostirgan odam, - shoir bo'lavermaydi, albatta, - deydi Zulfiya o'z tarjimayi holidi. - Buni yoshlikda anglash qiyin. Men ham ko'p yozdim, she'rlarimda ma'lum adabiy tashbihlar takrorlanayotganini payqamasdim. Shu bois birinchi to'plamimni tavkkal " Hayot varaqlari" deb ataganman". Haqiqatan ham o'zi aytganidek Zulfiya ko'p yozdi ammo xo'b yozdi. Shoira she'rlarini, asosan, o'zining ichki kechinmalari tashkil etadi. Tabiatga bo'lagm munosabatini juda go'zal tasvirlaydi, unga bo'lgan mehrini o'quvchiga to'liq his qildiradi. Shoiraning bahorga atalgan "Shoir sevgan o'lka ko'ksida", "Xushbo'y bahor kezib yuradi..."(1980) - "Bahorda tug'ildim!", "Unga esh", "Yashashning qonuni qonimda..." (1981) - "Sindi qish to'qigan muz hisli qafas" " Mana, yana qushlar chug'urlab qoldi" (1983) she'rlarida bahor motivi yetakchilik qiladi.

Tabiat go'zalliklaridan behad chuqur hayajonga tushush, o'z tuyg'ularini tabiatdagi tovlanishlar surati orqali berish Zulfiya ijodiga xos xususiyatlardan biridir. Shoiraning

hayot haqidagi falsafiy fikrlari lirik kechinma yo'nalishi hamda tabiat tasviri bilan hamohang teranlashib, tiniqlashib boradi. Fikr bilan tuyg'u uyg'unligi inson umrining abadiylikka daxldorligi mohiyatini ochadi:

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam
Tunlar tushumdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham.

Shoira Zulfiya "Salom tansiq bahor" she'rida bahor mavzusiga bag'ishlangan she'rida o'z lirik qahramonining ma'naviy dunyosini tabiat manzaralari tasviri poetik timsollar orqali kengroq yoritib bera olgan:

Yana ko'k tubida sayraydi qushlar,
Yana erda ko'hna yam-yashil ko'rpa.
Yana tandan ketdi mudrashu tushlar,
Yana yoshday dilda o'ylar ming turfa.
Gar ibora qadim, qofiya siyqa,
Ajdod o'lmasligin haqiqati bu.
Bahor deding - birdan olam antiqa,
Va senda eng yolqin, tiniq bu tuyg'u

Inson qalbi va tabiat tovlanishlarining ma'nosi nozik kuzatishlar va teran falsafiy umumlashmalar uchun katta imkoniyat yaratadi. Bahor timsolida shoira lirik qahramon tabiat husnini, hayot go'zalligini, tinchlik, osoyishtalikni, insonlarning quvonchini, orzu intilishlarini ko'radi. Ayni chog'da bahor insonning qalb manzaralarini ko'rish va kuzatish uchun ham vosita bo'lib xizmat qiladi.

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

"Bahor keldi seni so'roqlab" she'ri ham boshqalarining ichida his-tuyg'uning kuchliligi hamda hajm jihatdan ajralib turadi. She'rda shoira Hamid Olimjonga to'g'ridan-to'g'ri emas, bahor fasli orqali uni sog'ingani, muhabbatini va cheksiz hurmatini ko'rsatib bergan. Zulfiya bahorni aloqachi sifatida talqin etadi.

Bahor bo'lmasaydi, odamzod albat
O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt...

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Zulfiya lirikasi jo'shqin hissiyotlar, vafo, teran tafakkur o'laroq vujudga kelgan. Uning she'rlari ba'zan, o'ychan, ba'zan quvnoq, ba'zida ta'sirchan, ba'zida esa jiddiy. Shoira she'rlaridagi his-tuyg'u hech kimning qalbiga yetib bormay qolmaydi. Zulfiya ma'naviy-ruhiy izlanishlarida, poetik timsol yaratish jarayonida his-tuyg'ular manzarasi, kechinma tarangligi bo'rtib turadi. Unda makon va zamon chegarasining qamrovlari keng, o'tmish, bugun va kelajak voqeligi inson taqdiri, ertasi bilan yondosh tasvirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Умурова Г. Шоира Зулфиянинг бадиий олами. Монография. -Тошкент, "Наврўз", 2014. - 156 б.
2. Умурова Г. Зулфия лирикасида туйғулар тадрижи // Хорижий филология. - Самарқанд, 2018. - №4.- Б.83-88
3. Умурова Г. Зулфия бадиий маҳоратининг баъзи қирралари //Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2017. - №5. -Б.85-90.
4. Зулфия. Асарлар. 3-жилд. Камалак. - Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. - Б. 125-126.

5.Зулфия. Тонг билан шом аро. Сайланма. - Тошкент: Шарқ, 2006. 168-б.

6.Zulfiya. Bahor keldi seni so'roqlab: she'rlar / Zulfiya Isroilova. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.- 192 b.

MUHAMMAD RIZO OGAHIYNING "EY, SHO'X, KO'Z-U QOSHINGGA OLAM GADO, MAN HAM GADO" RADIFLI G'AZALIDA BADIY SAN'ATLARNING QO'LLANILISHI

Norbekova Gulira'no Muxitdin qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 3-bosqich talabasi
guliranno@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Muhammad Rizo Ogahiy ijodi haqida so'z boradi. Uni tarixchi olim, mohir tarjimon sifatida tanitgan asarlari qayd etilib, lirik ijodiga alohida urg'u beriladi. Ogahiyning lirik shoir sifatidagi mahorati "Ey, Sho'x, ko'z-u qoshinga olam gado, man ham gado" radifli g'azali asnosida ochib berilgan. Ushbu g'azalning ma'no-mazmuni, unda ishlatilgan badiiy san'at turlari chuqur tahlil etilib, o'quvchiga tushunarli tarzda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Muhammad Rizo Ogahiy, tarixiy asar, tazod, mubolag'a, matla', yakpora g'azal.

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy (1809-1874) XIX asrning yirik siymolaridan biri hisoblanadi. Ogahiy 1809-yilda 17 dekabrda Xiva atrofidagi Qiyot qishlog'ida dunyoga kelgan. U otasi Erniyozbek vafotidan so'ng, tog'asi Munis uni o'z tarbiyasiga oladi. Ogahiy dastlabki bilimlarni tog'asi Munisdan oladi. Munis atrofida to'plangan adabiy muhit Ogahiy ijodiga juda katta ta'sir ko'rsatdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Tog'asi Munisning vafotidan so'ng, Xiva xoni Olloqulixon uning o'rniga Ogahiy bosh mirob lavozimiga tayinlaydi. Muhammad Rizo Ogahiy g'azallarida asosan ishq mavzusi ustuvorlik qiladi. Bundan tashqari u o'z g'azallarida, Vatan ishq, tabiat tasviri, amaldorlar xatti-harakatlari, davlatchilik asoslari va hukmdorning qanday xislatlarga ega bo'lishi qanday illatlardan uzoqda yurishi kerakligi, ma'sum xalq dardlari, yor go'zalligi, oshiq ko'ngil iztiroblarini haqiqiy g'azalnavis sifatida badiiy uslublardan samarali foydalangan holda bayon etgan. Masalan, uning "Ey, Sho'x, ko'z-u qoshinga olam gado, man ham gado" radifli g'azalini tahlil qilish asosida shoir ijodiga nazar tashlaylik. Mazkur g'azalda shoir dilbarning afsonaviy tasvirini beradi. Uning olamni gado qilgulik portretini chizadi. Shu asnoda oshiqni unga bog'lab turgan insoniy rishtalarni ham ko'rsatadi. Oshiq javobsiz, umid qilmaydigan muhabbati bilan yorga intiladi. U ma'shuqaga yetishishdan emas, balki intilishning o'zidan masrurligini ifodalaydi. G'azal to'qqiz baytdan tashkil topgan. Quyida g'azalning matla'siga nazar tashlaymiz:

Ey, Sho'x, ko'z-u qoshinga olam gado, man ham gado,
La'li labi durposhinga olam gado, man ham gado.

Ogahiy lirik qahramonning ichiga sig'may ketgan ruhiy holatini aks ettirish uchun "Ey, Sho'x" ya'ni nido san'atidan foydalanib yorga murojaat etadi. Nido boshqa she'riy san'atlardan bevosita inson qalbidagi his-hayajonlarni oshkora va jarangdor tarzda tasvirlab berishi bilan ajralib turadi. Insonning ichki tuyg'ulari po'rtana misoli junbushga kelganida lirik qahramon olamdagi har qanday narsa-hodisalarga, tabiatdagi jamiyki mavjudotlarga, o'z qalbiga, tinglovchiga murojaat etadi.

Gohi qapog'ing jon olur, gohi qoshing yag'mo solur,
Bo'yla qapog'-u qoshinga olam gado, man ham gado.

Birinchi misradagi qapog', qosh so'zlari orqali shoir ushbu so'zlarni jonlantirmoqda. Bu misrada shoir tashxis ya'ni, jonlantirish badiiy san'atidan unumli foydalangan.

Qadd-u labing fosh-u nihon, eldin olur tob-u tavon,
Ushbu nihon-u foshinga olam gado, man ham gado.

Birinchi misradagi fosh va nihon so'zlari o'zaro tazod badiiy san'atini hosil qiladi.

Tazod, mutobiqa, mustazod (arabcha zidlash) badiiy tasvirning ta'sirchan va keng qo'llanadigan vositalaridan biri bo'lib, nasrda ham, nazmda ham uchraydi. Ushbu badiiy san'at o'zaro zid tushunchalarni ifodalovchi so'z yoki iboralarni ishlatishda ko'zga tashlanadi.

Boshdin ayoqing jon erur, jonlar sanga qurbon erur,

Jono, ayoq-u boshinga olam gado, man ham gado.

E'tibor beradigan bo'lsangiz ushbu g'azalimiz boshdan oyoq tazod va tashxis san'ati asosida qurilgan. Yorni go'zal visoliga yetishmoqlikni juda go'zal tarzda ifodalab berilgan hisoblanadi. Ushbu baytda ham bosh va oyoq so'zlari o'zaro tazod badiiy san'atini hosil qilgan.

Har necha otsang o'q-u tosh, aylab g'azab olamg'a fosh,

Bo'lg usi o'q-u toshinga olam gado, man ham gado.

Bu misradagi o'q tosh olam so'zlari o'zaro tanosub badiiy san'atini hosil qilgan. Tanosub - she'r baytlarida bir-biriga bog'liq va bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash san'ati. Biror narsani o'ylaganimizda ko'z oldimizga uning belgilari, xususiyatlari keladi.

Jonlarda fikri surating, ko'zlarda naqshi qomating

Suratgar-u naqqoshinga olam gado, man ham gado.

Ushbu baytda esa surat, naqsh, suratgar, naqqosh so'zlari o'zaro ishtiyoq badiiy san'atini hosil qilgan. Ishtiyoq (so'zdan so'zni ajratmoq) - she'r baytlarida o'zakdosh so'zlarni qo'llash san'ati.

O'n to'rtin yoshing o'tub, husning jahonni yorutub,

Bu husning-u bu yoshinga olam gado, man ham gado.

Ushbu baytning birinchi misrasidagi husning jahonni yorutub soz birikmasi mubolag'a husning-u bu yoshinga olam gado, man ham gado. Mubolag'a bu obrazli ifoda hisoblanadi, ya'ni yor vasli bo'rttirib, obrazli qilib tasvirlangan. Ushbu baytning o'zidayoq shoirning lirik mahorati naqadar yuksak ekanligi seziladi.

Oh-u yoshingga, Ogahiy, rahm etti ul xo'blar shahi,

Ta'siri oh-u yoshinga olam gado, man ham gado.

G'azal maqtasida ham shoh va gado so'zlari orqali tazod san'ati hosil qilingan. Shoir o'z ismini keltirish bilan nido san'ati yuzaga keltirilgan. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bular buyuk mutafakkir ijodidagi daryodan bir tomchiga xolos. Ogahiy lirikasini o'rganish dolzarb muammolardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Rizo Ogahiy. Ogahiy she'riyatidan. - T., 1983.
2. R. Majidiy. Ogahiy lirikasi. - T., 1961.
3. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot 9-sinf, I qism. - T, O'zbekiston. 2011y. b 144-147.
4. M. Safarboyev. Ogahiyning ijtimoiy-siyosiy va estetik qarashlari. - T., 1993.
5. Ogahiy hayoti va ijodi - yoshlar tarbiyasi uchun namuna. Respublika konferensiyasi to'plami. - Toshkent 2020
6. Badiiy san'atlar: [Lug'at-ma'lumotnoma] A. Asallayev, V. Rahmonov, F. Musurmonqulov. - T. Tafakkur, 2015 - 24 b.

RASMIY USLUBNING O'ZIGA XOS ASOSIY XUSUSIYATLARI**Obidjonov Xojimurod Xudoyberdi o'g'li**

O'zga tilli guruhlarda rus tili yo'nalishi 2-kurs talabasi, Andijon davlat universiteti

*Annotatsiya: maqolada rasmiy uslub va ularning ishlatilishi haqida ma'lumot berilgan bo'lib uning ahamiyati yuzasidan fikrlar berilgan.**Kalit so'zlar: frazeologik, ariza, tilxat, hayfsan.*

Kishilar o'z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha vositalardan - fonetik, grammatik, leksik, frazeologik birliklardan foydalanganlarida, avvalo, ularni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va qo'llaydilar. Tilimizdagi vositalarning bir necha ko'rinishlarga ega bo'lishi, sinonimik rang-baranglik shunday yo'l tutishga imkon beradi. Mana shu tanlash nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos uslubiy chegaralanishi taqozo qiladi. Til birliklarini ijtimoiy muhitda tanlab ishlatish zarurati va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish uslubshunoslikni yuzaga keltirdi. O'zbek tilida quyidagi uslublar mavjud: so'zlashuv, badiiy, ilmiy, rasmiy va publitsistik.

Biz ushbu maqolamizda rasmiy uslub haqida va ularning qo'llanish o'rinlari haqida ma'lumot bermoqchimiz. Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma'lumotnoma, chaqiruv qog'ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimayi hol, e'lon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilar ham shu uslubda yoziladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq va barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubning asosiy belgisi jummalarning bir qolipda va bir xil shaklda bo'lishidan iborat. Rasmiy uslubda so'zlar o'z ma'nosida qo'llanadi, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar ishlatiladi, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi, qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi, yuklatilsin, tayinlansin kabi so'z va so'z birikmalari qo'llaniladi. Rasmiy-idoraviy uslubda ko'pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko'rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi va gap bo'laklarining odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qilinadi: O'z lavozimi suiiste'mol qilganligi uchun M.Ahmedovga hayfsan e'lon qilinsin.

Bu uslubda fe'lning harakat nomi shakli faol qo'llaniladi, gapning kesimi ko'pincha hozirgi zamonning majhul nisbatida ifodalanadi, hujjatning xarakteriga qarab shart mayli shakliga tez-tez murojaat qilinadi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mutlaq vakolatlari" haqidagi 78-moddasida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, qabul qilish, belgilash, tasdiqlash, tartibga solish, o'zgartirish, joriy qilish, komissiyasini tuzish, saylov kunini tayinlash, saylash, ozod etish, ta'sis etish, amalga oshirish singari fe'lli birikmalardan foydalanilgan. Shu o'rinda rasmiy uslubda yozilgan matnlar uchun barcha morfologik vositalar va kategoriyalarning qo'llanilishi bir xil darajada emasligini ta'kidlash ham maqsadga muvofiq. Masalan, sonlar va olmoshlar bu uslubda boshqa so'z turkumlariga qaraganda ikkinchi darajali omil hisoblanadi.

Ish qog'ozlari va hujjatlarning xilma-xilligiga qarab ularga oid atamalarning me'yorlashuvi va chegaralanuvi ham kuzatiladi. Qiyos uchun diplomatik munoasabatlar doirasidagi so'z va iboralarga ko'z yugurtiraylik: ahdlashuvchi oliy tomonlar, elchi, elchixonona, muxtor elchi, muxtor vakil. Ishonchli vakil, nota, ratifikatsiya, shartnoma, bayonot, qo'shma bayonot, deklaratsiya, tashrif, qarorgoh kabilar. Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy so'zlashuvga xos so'zlar, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarning ishlatilishi me'yor sanalmaydi va shu jihati bilan boshqa uslublardan keskin farq qiladi. Rasmiy uslubning sintaktik alomatlar ham matnda darhol ko'zga tashlanadi.

Unda, ayniqsa, darak gapning qo'shma shakli ko'p ishlatiladi. Yoyiq va murakkab so'z birikmalari mahsuldor hisoblanadi, murakkab tipdagi nomlar keng qo'llaniladi. Gap tuzilishida o'zbek tilidagi odatdagi me'yorlarga amal qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, uslublarni bilish va o'rganish barcha uchun birdek muhimdir. Chunki nutqimizning chiroyli, mazmundor chiqishida uslublarning alohida o'rni bor. Adabiy kechalarni rasmiy uchrashuvga aylantirmaslik uchun adabiy me'yorlar asosida so'zlashishimiz lozim yoki ilmiy kengashlarda so'zlashuv uslubida ma'ruza qilish ham kulguli holat bo'ladi. Har bir shaxs eng kamida o'z sohasi tilini, uslubini o'rganib qo'ygani foydadan holi bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammadiev S. O'zbek tili funksional stillarini belgilash to'g'risida // O'zbek tili va adabiyoti. 1983.

2. Qo'ng'irov R., Karimov S.A., Qurbonov T.I. O'zbek tilining funksional stillari.

3. O'rinboyev B. O'zbek tilining so'zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. Toshkent: Fan, 1975.

MAKSUD SHAYKHZODA IS A MULTI-DISCIPLINARY POET

**Ochilov Bahodir Ramozon ugli
Yaxshiyev Shahzod Sherali ugli**
(Tashkent state transport university)

Abstract. This article provides information about the life and work of Maksud Shaykhzoda, the socio-political processes of his time, and his work in the field of poetry. The poet explains the subtleties of poetry and their significance. The factors that played an important role in the expansion of the poet's worldview are explained. Maksud Shaykhzoda, a representative of Uzbek literature of the twentieth century, will be introduced to the study of all aspects of his work, in particular, in the fields of poetry, epic, drama, translation, and literature.

Keywords poetry, ballad, analysis, word artist, epic, dramaturgy, translation, literary criticism, life and creative environment, Uzbek literature, literary monuments

МАКСУД ШАЙХЗОДА - МНОГОПРОФИЛЬНЫЙ ПОЭТ

**Очилов Баходир Рамазон угли
Яхшиев Шахзод Шерали угли**
(Ташкентский государственный транспортный университет)

Аннотация: В данной статье представлена информация о жизни и творчестве принца Максуда, общественно-политических процессах его времени и его деятельности в области поэзии. Поэт объясняет тонкости поэзии и их значение. Объяснены факторы, сыгравшие важную роль в расширении мировоззрения поэта. Максуд Шайхзода, представитель узбекской литературы XX века, познакомится с изучением всех аспектов его творчества, в частности, в области поэзии, эпоса, драмы, перевода и литературы.

Ключевые слова поэзия, баллада, анализ, художник слова, эпос, драматургия, перевод, литературоведение, жизненная и творческая среда, узбекская литература, литературные памятники

MAQSUD SHAYXZODA - SERQIRRA IJOD SOHIBI

**Ochilov Bahodir Ramozon o'g'li
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li**
(Toshkent davlat transport universiteti)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi, u yashagan davrdagi ijtimoiy- siyosiy jarayonlar hamda uning she'riyat yo'nalishida qilgan ishlari haqida ma'lumot beriladi. Shoir ijodida she'riyatning nozik qirralari hamda ularning ahamiyati tushuntiriladi. Shoir dunyoqarashi kengayishida muhim ta'sir ko'rsatgan omillar izohlanadi. XX asr o'zbek adabiyoti namoyandasi hisoblanmish Maqsud Shayxzoda ijodining barcha qirralari, xususan, she'riyat, dostonchilik, dramaturgiya, tarjimonlik, adabiyotshunoslik yo'nalishlarida qilgan ijod mahsulini o'rganish, tadqiq qilish to'g'risida tushuncha beriladi.

Kalit so'zlar she'riyat, ballada, tahlil, so'z san'atkori, dostonchilik, dramaturgiya, tarjimonlik, adabiyotshunoslik, hayot va ijod muhiti, o'zbek adabiyoti, adabiy obidalar

Yigirmanchi asr o'zbek adabiyotining taniqli vakili, serqirra ijod sohibi Maqsud

Shayxzoda 1908-yil Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topgan. Dastlabki ma`lumotni Oqtoshdagi maktabda olgan. U 1925-yildan boshlab muallimlik qilgan. Ayni vaqtda, Boku oliy pedagogika institutini sirdan o'qib bitirgan.

1925-yilda millatchi sifatida ayblanib, ustidan jinoiy ish qo'zg'atilgan, bo'lajak shoir Kavkaz ortidan chiqarilib yuborilgan.

Taqdir shoirni minglab tengqurlari singari hayot dengizining asov to'lqinlari qa`riga tashladi. Yigirma yoshida bu to'lqinlar uni qardosh O'zbekiston tuprog'iga keltirdi. Buyuk Navoiyning, Ulug'bekning muqaddas vatani Maqsud Shayxzodani o'z farzandidek mehribon quchog'iga oldi va uning ulkan shoirlilik iste`dodiga qo'sh qanot baxsh etdi.

Maqsud Shayxzoda o'zbek tili va san`atini, o'zbek adabiyotini astoydil muhabbat bilan o'rgandi. Bu qadim, boy madaniyat chashmasidan bahramand bo'lib, ko'ngillarga quvonch bag'ishlovchi barkamol asarlar yaratdi. O'z davrida uning "O'n she`r" (1932), "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1935) to'plamlarining nashr etilishi adabiyotga o'ziga xos obrazli shoir kirib kelayotganligidan darak bergan bo'lsa, "Kurash nechun" (1941), "Jang va qo'shiq" (1942), "Kapitan Gastello" (1941), "Ko'ngil deydiki" kabi she`riy to'plamlari, "Jaloliddin Manguberdi" (1944) tarixiy dramasi, 300 dan ortiq ilmiy-publitsistik asarlarining chop etilishi uni serqirra ijod sohibi sifatida elga tanitdi.

Bundan tashqari, adibning ko'hna va ayni chog'da navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan, uning tarixi, o'tmishdagi madaniyati va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi "Toshkentnoma" (1958) lirik dostoni, "Mirzo Ulug'bek" (1960) tragediyasi adabiyot olamida o'ziga xos o'rin va yuksak mavqega sazovor bo'ldi.

Maqsud Shayxzoda ijodiy faoliyatida kelgan bir misra she`rdan tartib dostonigacha, balladadan tortib she`riy dramalarga qadar barcha asarlarda falsafiy mushohadaning teranligi, qo'yilgan muammoni yechishdagi mantiqiy izchillik, tuyg'ularning samimiyligi, fikrning parvozi va uslubning muayyanligi kabi a`lo xislat va noyob fazilatlarini tufayli o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Shoir inson ruhini tarbiyalash, odamda yaxshilik unsurlarini ko'paytirish, xalqqa go'zallik va nafosat tuyg'usini yanada baland darajada ko'tarishni san`atning muqaddas vazifasi deb biladi va bu muqaddas vazifaga o'rtoqlari qatorida o'zi ham bir qatra hissa qo'shgan bo'lsa, demak, dunyoda behud yashamabman deb hisoblaydi.

Maqsud Shayxzoda qoldirgan merosni elimizning badiiy tarixi, adabiy qomusi, mujassam lirik yonishi deyish mumkin. Ana shu ijod sahifalarini birma-bir varaqlar ekanmiz, ilhom parisi Maqsud Shayxzodaga hamisha sirdosh, oshno bo'lganligiga amin bo'lamiz.

Darhaqiqat, shoir muttasil ijodiy mehnat dardi va izlanish zahmati bilan umr kechirdi. Uning ta`biricha:

Kunlarimni oldim yelkaga,
Bordim karvon bilan yo'limdan.
Kunlar ortdi, uzaydi bo'yim,
Soz suhbatim mavzui emas,
Kishilikdir o'ylagan o'yim, -

degan g'oyalari uning butun ijodiy faoliyati uchun asosiy mezon bo'ldi.

Maqsud Shayxzoda she`riyati, dostonlari, uning dramatik va ilmiy asarlari yozilgan. Lekin, bizningcha, yozuvchi asarlari, uning ijodi haqida yana ham aniqroq va kengroq tasavvur beruvchi tanqidchi va tadqiqotchi bu yozuvchining o'zi bo'lsa kerak.

Badiiy so'zning hikmatini butun vujudi bilan his etgan va uning inson ma`naviy olamiga ta`sir qudratini teran anglagan, shu boisdan o'ziga ham, boshqalarga ham qat`iy talabchan bo'lgan shoir: "She`r bilan nasr orasidagi farqni shoirlarimiz ham, tanqidchilarimiz ham sinchkovlik bilan aniqlab olmaganlaricha "adab bozorida" so'lg'in va yovg'on baytlar haqiqiy yurak poeziyasiga g'ov bo'lib turg'usidir", degan fikrni qayta-

qayta takrorlar edi. Shoirning bu oqilona o'g'itnasihati adabiyotimizning yosh avlodi uchun saboq bo'lishi kerak. Shoir degan ediki:

She`riyat dunyosin shoirlarimiz,
Har uy, har ko'ngilga baytlar bo'lsin yor!
Elga dastyor bo'lsa she`rlarimiz -
Demakki, umrimiz o'tmabdi bekor!

Ha, badiiy tafakkur mulkinging chin sohiblari hech qachon qarimaydi. Aksincha, ular yaratgan bebaho xazina oradan vaqt o'tgach sari o'zining yangidan-yangi qirralarini namoyon qiladi hamda adabiyotshunos olimlar tomonidan tadqiq etiladi.

Yuqorida Maqsud Shayxzoda ijodiyoti haqida adabiyotshunoslik va tanqidchilikda qator ishlar qilinganligini ta`kidlab o'tdik. Bular ichida filologiya fanlari doktori kandidatlari N.M.Mallayev, O.Sharafiddinov, H.Olimjonova, M.Zokirov singari olimlarning qator maqolalari va kitoblarida qilingan tahlillar ajralib turadi.

Maqsud Shayxzoda ijodiga chuqur hurmat va ehtirom bilan yozilgan bu ishlarda uning adabiyotimizda tutgan o'rni belgilab beriladi va shoir ijodining asosiy bosqichlari yoritib o'tiladi.

Professor N.M.Mallayev Maqsud Shayxzodaning ijodiy faoliyati haqida quyidagilarni ta`kidlaydi: "Maqsud Shayxzoda nihoyatda hozirjavob, chinakamiga xalq shoiri edi. U hayot poeziyasini chuqur his va idrok etar, voqelikning eng muhim jihatlarini tez payqab olar, o'zini doimo keng omma ichida ko'rar, xalqning turli toifalari bilan inoqlashib ketar, ular bilan til va dil topa olardi.

Darhaqiqat, shoir hayot qonuniyatlarini teran anglab, ularni badiiy hal qilishga intiluvchi so'z san`atkoridir. Uning she`riyati bilan tanishar ekanmiz, ularda ifodalanga qisqagina fikrda falsafiy lirikaning mohiyati ochilganday ko'rinadi. Shoir she`rlaridagi ehtiros to'la baytlar va quyma misralar qalblarda chuqur iz qoldirib, ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi.

Shuning uchun ham, Maqsud Shayxzoda ijodi o'lmas. Uni inson ruhiy olamining to'laqonli, hamisha boyib mukammallashib boruvchi qomusidir, desak xato qilmaymiz. Bu qomusda oydin kechalarning rassomona tasviri, sevinch va qayg'u shiddatlari, kurash va yengish ilhomlari, kishilarning jasoratli ishlari - barchasi yuksak ijodiy mahorat bilan ko'zga tashlanib turadi. Shuning uchun ham adibning qalamidan bunyodga kelgan qutlug' adabiy obidalar o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin egallay bilgan. Bu fikrlarimizga ustozning ijodi to'la kafil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.Naim Karimov "Maqsud Shayxzoda" tarixiy - bibliografik roman

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SO'Z VA IBORALARNING SEMANTIK TASNIFI

Pratova Gulshoda O'tkirbek qizi
Andijon davlat universiteti
Filologiya fakulteti II bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu tezisda ingliz va o'zbek tili o'zaro qiyoslangan va nazariy ma'lumotlar berilgan. Qiyoslashga asos qilib esa leksik birliklar olingan.

Kalit so'zlar: Frezeologik birlik, ibora,idioma,semantika,ingiliz tili.

O'zbek va ingliz tillaridagi so'zlarning ma'nolari miqdor jihatdan ikkala tilde har doim ham muvofiq kelavermaydi. Masalan, o'zbek tilidagi o'qimoq so'zi ham „o'qimoq“, ham „organmoq“ ma'nolarini beradi. Ingliz tilida esa bu ikki ma'no ikki xil so'z (learning, reading) bilan ifodalanadi. X. Abdullayevning „Wisdom lug'ati“ da keltirilishicha, go so'zining 51 ta ma'nosi berilgan, o'zbek tilidagi bormoq so'zi esa „O'zbek tilining izohli lug'ati“ da berilishiga ko'ra, oltita ma'noga ega. Umuman olganda esa ko'p ma'nolilik xususiyati har ikkala tildagi so'zlarga ham xos bo'lib, ularning aksariyat qismi o'zbek tilida ham, ingliz tilida ham eng qadimgi leksik qatlamlarga mansubdir. Ayrim hollarda o'zbek tilidagi polesemantik so'zlarining bosh va hosila ma'nolari ingliz tilidagiga aynan mos keladi. Masalan: oltinsoch- gold hair, oltinuy- gold house, oltinkuz- gold autumn, yokitemirodam- iron man, temireshik- iron door. Yuqorida keltirilgan misollardagi oltin, temir so'zlari ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan birikmalarda ham bosh, ham hosila ma'nolarini saqlab qolgan. Bundan ko'rinadiki, har ikkala tilda ham so'z ma'nolari birikishida nisbatan yaqinlik mavjud. Bundan tashqari, ingliz tilida bir so'zning boshqa ma'nolari bilan tafovutlarini farqlab beruvchi turli xil bo'limlari ham mavjud, buning isboti yuqorida ta'kidlab o'tilgan „Wisdom lug'ati“dagi Treasure va Difference bo'limlari orqali ifodalanilgan. Qo'shimcha tarzda, so'zga oid metafora va madaniyatlarini yoritib beruvchi mos ravishda, Metaforeva Culture bo'limlari so'zlardagi o'xshashliklarni va ingliz tilidagi ma'lum iboralarni ma'nosini har jihatdan uyg'unlashtiradi. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi ajdodlardan avlodlarga o'tib kelar ekan, asrlar davomida yashab, takomillashib, kengayib, boyib boraveradi. Idioma tushunchasi mavjud. Idioma deb ma'nosi tarkibidagi so'zlar ma'nolarining yig'indisidan kelib chiqmaydigan so'z birikmalariga aytiladi. Idiomatik iboralar, asosan, kundalik muloqotlarda qo'llaniladi. Bunday iboralar tezda yodda saqlanib qolib, o'ziga funksional jihatdan teng bo'ladi. Ma'lum bir til o'rganilayotganda idiomalar, iboralar uning eng murakkab sohalaridan deb hisoblaniladi, ayniqsa, qiyoslanayotgan ingliz va o'zbek tillaridagi iboralar alohida yondashuv talab qiladi. Ba'zida iboralarni to'g'ridan to'g'ri bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilayotganimizda, aynan ma'nosi kelib chiqmaydi. Misol uchun, Og'zini tanobi qochmoq- to avoid self-denial, yoki Og'zi qulog'iga yetmoq- reaching the mouth to the ear. Shuningdek, O'zbek tili ham turlicha iboralar, maqollar, matallar va turg'un birikmalarga boy bo'lib, ularda xalqimizning tarixi, madaniyati, urf-odati va ma'naviyati o'z ifodasini topganligini turli xil manbalar orqali, yoki ota-bobolarimiz orqali bilishimiz mumkin. Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topib, yaxlit bir ma'no ifodalaydigan lug'aviy birliklarni biz iboralar yoki frezeologizmlar yoxud frezeologik birliklar deymiz. Odatda, iboralar ma'nosi bir so'z (leksema) ga teng keladigan birliklar sifatida baholanishi ma'lum. To'g'ri, o'zaro birikib, turg'un birikmani, ya'ni iborani tashkil qilgan birliklar, asosan, yaxlit bir ma'no bir tushunchani ifodalaydi, ammo bunda leksemadagidan ortiqroq bo'yoqlar va bo'rtirma sifatlar orqali ifodalanish anchayin ko'proq va aynan shuning uchun leksik

ma'no frezeologik ma'noga teng bo'lolmaydi.

O'zbek va ingliz tillaridagi iboralarning tuzilishi va tarkibi, o'zaro qiyoslanganda ular o'rtasida quyidagi o'xshashliklar borligi aniqlanganligini quyida ko'rib o'tamiz:

1. Har ikkala tilda ham iboralar ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topadi: Adabini bermoq-giving etiquett.

2. So'z birikmasi yoki gapga teng keladi: Biri bog'dan kelsa, ikkinchisi to'dan keladi- One comes from the forest and the other comes from the mountain.

3. Har ikkala tilda ham iboralar bir butun lug'aviy birlik holatida bo'ladi va ularning tarkibidagi so'zni o'zgartirib bo'lmaydi, turg'un birikma hisoblanadi.

4. Har ikki tilda ham frezeologik birliklar biror sintaktik vazifada kela oladi: Qishlog'imiz faxri bo'lgani uchun, uni hamma ko'kka ko'taradi- As the pride of our village, everyone raises it to the heaven (Ma'lumot o'rnida shuni aytish joizki, iboralarning aynan tarjimai emas, ingliz tilidagi ekvivalentlari beriladi).

5. Har ikkala tilda ham iboralar nutq momentida hosil qilinmaydi, aksincha tilde tayyor holda, lisoniy birlik sifatida yashaydi,

O'zbek va ingliz tillaridagi frazeologizmlar semantik jihatdan o'zaro farqlanganda quyidagi holatlar namoyon bo'ladi:

1. Ayrim o'zbek tilidagi iboralar ingliz tilidagi iboralarga, ham ma'naviy, ham shakliy jihatdan muvofiq keladi: Ko'z qorachig'idek asramoq- to preserve like the puple of the eye, Tepasochi tikka bo'ldi- hair to be on straight.

2. Har ikkala til iboralari ma'noviy jihatidan o'xshash bo'lsa-da, ularning tarkibidagi so'zlar bir-biriga mutlaqo mos kelmaydi. Bunday iboralarda mahalliy va milliy bo'yoqlari turlicha bo'ladi: To'rt tomoni qibla- the door is open, Tomiriga tushmoq- get into the vein. Bunday iboralar ko'pchilikni tashkil etadi.

3. Ibora va idiomatic birliklar o'zaro bir-biriga yaqin turadi, ya'ni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinganda ma'no yaxlitligiga, ifoda xususiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Demak, ingliz va o'zbek tillari leksikasini qiyoslashda ko'proq so'zlardan emas, kattaroq birliklardan, aniqrog'i, gap va matnlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki tildagi quyi sath birliklariga nisbatan yuqori sath birliklari bir-biriga uncha katta bo'lmagan tafovutlar orqali yaqin turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. X. Abdullayev. A. Xusanov. Wisdom lug'ati. - Toshkent. 2012.
2. Z. Radjabova. Ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy tahlili. - Samarqand. 2014.
3. A. Hojiyev. O'zbek tilining izohli lug'ati. - Toshkent. 1981.
4. A. L. Yusupov. Inglizcha-o'zbekcha idiomlar lug'ati. - Toshkent. 2014.

BOLALAR NUTQINI O'STIRISHDA BOLALAR ADABIYOTINING ROLI**Qipchoqova Sevinch Farhodjon qizi**

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani pedagogika kolleji o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalar nutqini o'stirish vositalari hamda bolalar adabiyotining nutq o'stirishdagi o'рни haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy jarayon, bolalar nutqi, bolalar adabiyoti, ertaklar, topishmoqlar, qo'shiqlar.

Bola nutqini o'stirish jarayonlari, o'z navbatida, ota-onaning sa'y-harakatlari, shuningdek, maktabgacha ta'lim jarayonidagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar adabiyoti, musiqali asarlar, xalq og'zaki ijodi, she'rlar va boshqalar bolaning nutqini o'stirishda yaxshi yordamchi bo'lishi mumkin. Bola yangi tug'ilgandan buni boshlash mumkin. Go'dakni kiyintirayotganingizda, cho'miltirish yoki massaj qilish vaqtida bu harakatlaringizni albatta quvnoq hikoyalar yoki she'rlar bilan to'ldiring. Sal keyinroq, bola bir yoshga to'lganda uning so'z boyligi bir necha so'zlardan iborat bo'ladi. Shunda kitoblarni ham jalb qilish mumkin. Bola uchun oddiy ertaklar tanlang. Sizning o'qiganlaringizni eshitish mobaynida bola nutq tuzilishini qabul qila boshlaydi, yangi so'zlarni va ayniqsa ularni talaffuz qilish qoidalarini o'rganadi. Go'dak yura boshlagandan keyin, o'stirishga bolalar qo'shiqlarini ham qo'shish mumkin. Ularni bolaga qo'yib bering va u bilan birga raqsga tushing. Bunday ovunchoqlar vestibulyar apparatning rivojlanishiga yordam berishdan tashqari bolaning nutqini ham kuchaytiradi. Bolaning o'yinchoqlari o'rtasida ko'rinishlar ijro eting. Agar bolaning o'yinchog'i sizning qo'lingizda birdan jonga kirsa va buning ustiga gapirsa, go'dak quvonchining cheki bo'lmaydi. Ikki personaj qatnashadigan eng oson suhbatlar va ko'rinishlardan boshlang. Asta-sekinlik bilan personajlar sonini oshirib va mavzuni murakkablashtirib boring. Shunday sodda o'yinlar yordamida bola odamlar orasidagi suhbat qanday shakllanishini bilib oladi.

Lug'at boyligining miqdoriy o'sishi D. B. Elkoninning ko'rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. So'nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug'at tarkibini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlandi. Jumladan, V. Loginaning ma'lumotlariga ko'ra 3 yoshga kelib, bola lug'atida 1200 ta so'z mavjud bo'ladi, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 3000-3500 so'zni o'z ichiga oladi. Vaholanki, 40-60 yil oldin o'tkazilgan tadqiqotlarda 3 yoshli bolaning lug'ati 400-600 so'zdan, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 2500-3000 so'zdan iborat deb ko'rsatilgan edi. Nutq madaniyati - bu, avvalo, tarbiyachida bo'lishi shart va majburiy sifatlardan hisoblanadi. Bu tarbiyachidagi nutqiy ko'nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko'nikma tarbiyachi faoliyatida takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi. Bolalar nutq madaniyatiga o'zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun esa tarbiyachi adabiy qoidalarini bilish, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o'qib borishi, she'rlar yod olishi va bolalar bilan suhbatlar o'tkazish muhimdir. Situatsion - ishchan muloqot shaklidagi bolalar leksikasi (nutqi) konkret predmetli vaziyat bilan bog'liq. Bu holat shunda ko'rinadiki, bolaning nutqida ot so'z turkumiga oid so'zlar ko'p bo'ladi. Sifat turkumidagi so'zlar yoki umuman uchramaydi, yoki buyumlarning faqat tashqi xususiyatlari: rangi, o'lchami (barcha sifatlarning 96,4 %)ni ifodalaydi. 98 % fe'llar faqatgina konkret predmetli harakatlarga nisbatan ishlatiladi. Bolalarning nosituativ - bilishga yo'naltirilgan (vaziyatga - situatsiyaga bog'liq bo'lmagan) muloqotida ular kattalardan har xil narsa va hodisalar haqida axborot olishga bog'liqlikdan ozod bo'ladi. Asta sekin

atrof-olamdagi narsalarning turli xususiyatlarini aks ettiruvchi so'zlar zahirasi kengayib boradi. Agar maktabgacha yoshdagi ya'ni 3-7 yoshdagiboladan berilgan topshiriqda nutqiy faoliyatning elementi bo'lmish so'z bilan muayyan amallarni bajarish talab etilsa, masalan, gap tarkibidan so'zlarni ajratib olish vazifasi berilsa, S. N. Karpovanning tadqiqoti ko'rsatishicha, bolada unga aytilgan gap belgilaydigan vaziyatga orientir olishning ancha barqaror moyilligi kuzatiladi. Berilgan so'z tarkibida nechta so'z mavjud degan savolga bolalar gapni "boshdan oyoq" qaytadan takrorlaydi. Masalan, "Koptok yumalab ketdi" degan gap berilsa, bola bu gapda bitta so'z "Koptok yumalab ketdi" degan so'z borligini aytadi. Ayni 5-9 yoshda bolalar xuddi shunday ifodalaydi. S. N. Karpovanning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolada gap tarkibidan barcha turdagi so'zlarni ajratib olish ko'nikmasini shakllantirish mumkin. Buning uchun ularga so'zlarning mezonlarini, ya'ni so'z tovushlarining majmuasidan iboratligini, so'z doim muayyan mazmunga egaligini anglashi lozim. Albatta buning uchun bolaning yoshiga mos keluvchi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilinganday qilinganda, yoshidan qat'iy nazar bolalarda so'z haqida adektiv va anglangan tasavvurlar paydo bo'ladi.

Adabiyot:

1. Babayeva D. R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. -Toshkent, 2018. -334 b.
2. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. -T.: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi", 2006. - B. 68.
3. Qodirova F. R., Toshpo'latova Sh.Q., Qayumova N. M., A'zamova M. N. Maktabgacha pedagogika. -T.: "Tafakkur", 2019. -B. 107.
4. Zokirova, S.M. (2016). About the congruent phenomenon in the contrastive linguistics. Sciences of Europe , (8-2 (8)).

SADRIDDIN AYNIY - ZULLISONAYN ADIB**Raxshona Muslixiddinova,**

NavDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) N.J.Yarashova

Annotatsiya: Maqolada XIX asr adabiyotining zullisonayn shoiri, yozuvchisi Sadridin Ayniyning ikki tilda yaratilgan badiiy asarlari, she'rlari, hajviy to'plamlari xususida fikr yuritiladi.

Abstract: The article discusses the bilingual works of art and poetry of the 19th century poet and writer Sadridin Aini.

Kalit so'zlar: jadidchilik, "Doxunda" romani, she'riy to'plam, adabiy til lug'at, "Oyna" jurnali.

Keywords: Jadidism, Doxunda, a collection of poems, a dictionary of literary language, "Oyna".

XX asr o'zbek va tojik adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan adib Sadridin Ayniy 1878-yil Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida Sokter qishlog'ida tug'ilgan. "Akam turkman tilinigina emas, balki o'zbekchani ham yaxshi bilmas edi". . Zero, geografik va til jihatdan mahalliy til asosan tojik tili bo'lgan muhitda ulg'aygan adib o'z xotiralarida Navoiy, Bedillarni bolaligidanoq bilganini, she'rlarini o'qiganini aytadi. Buxoro madrasasida ta'lim olgan S.Ayniy keyinchalik jaddichilar harakatida faol bo'ladi, yangi usul maktablarida o'qitmak uchun maxsus she'r va hikoyalardan iborat "Tahsib us-siyobon" - "Yoshlar tarbiyasi" (1909) darsligini yozadi.

Darhaqiqat, Ayniy qaysi bir asarini o'zbek, boshqasini tojik tilida mohirona yozgan, har ikki tilda ijod qila olgan adibdir. Masalan, yirik asari "Buxoro jallodlari" 1922-yil o'zbek tilida yozgan bo'lsa, 1927-29 yillarda yirik romani "Doxunda"ni tojik tilida yozdi. 1934-yilda esa o'zbek tilida "Qullar" romanini yaratdi.

U oktabr to'ntarishi yillarida o'zbek va tojik tillarida inqilobiy she'rlar, marshlar yaratadi. "Inqilob uchqunlari" to'plamida shu ijod na'munalarini ko'rish mumkin.

Shuningdek uning o'zbek tilida Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasiga bag'ishlab "Behbudiy ruhig'a" (Shabi hijron havosig'a), "Behbudiy afandini esga tushirib, qatl va qatlgohiga xitoban" she'rlari mavjud.

"Yana bu qaysi go'rdan chiqdi", "Ye, to'nim", "Bilganim yo'q", "Kengash" kabi o'zbekcha feletonlari, hajviy she'r va maqolalari ham bor.

Adibning "Sahargohon" (Sahargohonki bulbul dar navo shud, Gul az shodi shukuftu g'uncha vo shud.), "Maktab" (Az fayzi yazdon xon ast maktab, Bar la'li irfon kon ast maktab.), "Boz maktab" (Ro'y idorat matob az dari maktab, To ki shavi komyob az dari maktab.), "Masnavi dar vasfi maktab" (Ey monda qadam ba rohi maktab, Olist maqomu chohi maktab.), "Qasidayi forsi", "Zamzamai dabiston" (Mavsimi barfu fasli zimiston Bog' digar shudu sahni dabiston.) singari fors-tojikcha she'rlari mavjud.

Ayniyning ilmiy-ijodiy merosini adabiyot, tarix, pedagogika yoki adabiyotshunoslik nuqtai nazaridagina emas, balki tilshunoslik jabhasidan ham baholash lozim bo'ladi. Tojikistonda nashr etilgan Ayniy kulliyotining 12-jildidan u tuzgan tojik adabiy tilining lug'ati o'rin olgan. Ayniyning o'zbek adabiyotida xizmati nechog'lik katta bo'lsa, tojik badiiy adabiyoti, tilshunosligida undan ham ziyodadir.

Uning "Oyna" jurnalida chop etilgan "Har bir millat o'z tili ila faxr etar" degan maqolasi muallifning 1915-yildayoq Turkiston xalqlari o'rtasida o'zbek tilining mavqeini ko'tarish vazifasini o'z oldiga qo'yganini namoyish etdi. U shu davrda nazariy ishlar bilan band bo'lib qolmay, fors-tojik tilida "Buxoroyi sharif", o'zbek tilida "Turon" gazetalarini

nashr etishning tashabbuskorlaridan biri bo'ldi. Adabiyotshunos olimlar ta'kidlagani singari jadidchilik ishlarida faol bo'lgan Ayniy ikki tilda ham xalq uchun jurnal yuritishga harakat qilganz, fikrimizcha, Buxoro aholisining aynan mana shu ikki tilda so'zlashuvi sabab bo'lgan bo'lsa ne ajab.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sadriddin Ayniy. Qisqacha tarjimai holim. O'zSSRdavlat badiiy adabiyot nashriyoti. - Toshkent. 1960.
- 2.Sobir Mirvaliyev. O'zbek adiblari. - Toshkent: Fan. 1993.
- 3.Ma'naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.Toshkent.1999.
- 4.<https://kh-davron.uz/kutubxona/>

IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA METAFORALARNING TUTGAN O'RNI**Yoqubboyeva Shoxista To'raxon qizi**Andijon davlat universiteti
Filologiya fakulteti III bosqich talabasi

Anotatsiya: ushbu maqolada yuksak mahoratga ega shoirlardan biri Iqbol Mirzoning she'riyatida qo'llangan metaforalar tahlil qilingan va she'riy to'plamlarida metaforaga oid namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: metaforik ma'no, o'xshatish, lingvopoetik vosita, obrazlilik, lirik qahramon.

So'z san'ati bo'lmish adabiyotning istalgan turi borki, o'zining badiiy yangiligi bilan o'quvchini hayratlantira oladi. Adabiy yangilik bu badiiy topilma, yangi qofiya, yangi obraz, favqulodda topilgan badiiy detal, yangi fikr, chuqur ochib berilgan o'zgacha xarakter bo'lishi mumkin. She'rga aniq ta'rif berib bo'lmaydi, zero she'riyat tuyg'u ekanini ta'kidlash bilan cheklanamiz. She'r o'quvchiga ta'sir qilishi uchun tuyg'uning baland harorati bilan birga bir qancha unsurlar ham xizmat qiladi. She'r metafora bilan go'zallashadi, she'r metafora bilan yuksaladi, she'r metafora bilan hayratga soladi.

Metafora yunoncha metaphora so'zidan olingan bo'lib, ko'chirish, ko'chirma, istiora degan ma'nolarni anglatadi. Metafora so'zni ko'chma ma'noda qo'llashning bir turidir. "Metaforada ma'lum predmet yoki voqea-hodisaning biron tomoni yoki ayrim belgisi bilan boshqa predmet yoki voqea-hodisaning o'xshashligi aniqlanadi. Bunday holda predmetlarning rang, shakl, harakat-holat xarakteri, o'rin va paytga munosabati jihatdan o'xshashligiga asoslaniladi. Metaforada so'z ma'nosi o'zgaradi, tushuncha yo tasavvur esa tamoman o'zgarmay, balki uning dastlabki ma'lum belgisi qolgan bo'ladi".

Siyohdonni olib, muallimning yuziga otdim. Tegmadi. Keyin tashqari otildim.

Ushbu misolda otildim so'zi orqali metaforik ma'no ko'chishi yuz bergan, ya'ni otilmoq so'zining asl ma'nosi biror narsani uzoq joyga ulotirish ma'nosini anglatadi. Bu gapda esa otilmoq so'zi ko'chma ma'noda qo'llanilib, harakatga nisbatan o'xshashlikni bildirgan va yugurmoq ma'nosida qo'llangan.

Metafora ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan o'xshashlik ko'chim bo'lsa, metonimiya ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshashsiz ko'chimdir. Metafora qo'llash - so'zni o'z ma'nosidan ko'chirib, o'z xususiyatlari va ayrim tomonlari bilan shu so'zda ifodalangan narsaga o'xshagan biror predmet yoki hodisani ta'riflash demakdir. A.Avelivechning fikricha, metafora so'zlovchining quyidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi: birinchidan, bir narsani nomlash, ikkinchidan, nomlanganda ham nomning "gapiradigan bo'lish zaruriyati".

Yuksak iste'dodga ega shoirlardan biri hisoblangan Iqbol Mirzo she'rlarining har birida yangi bir topilma, yangi bir metaforaga duch kelamiz. Shoir qo'llagan metaforalar ba'zan butun bir she'rga, ba'zan butun bir bandga yoyib yuborilgan bo'ladi va o'sha she'r yoki band zamirida yaxlit bir metafora bo'ladi. Shoirning "Boychechak" nomli she'rining har bir bandida metaforani uchratishimiz mumkin:

Qadamida gul ungan,

Afsona qiz, ertak qiz,

Yuzlaridan kun kulgan,

Yagona qiz, erka qiz,

Boychechagim boylandi ("Yurakning shakli" she'riy to'plami, 2-bet).

Ushbu misralarni tahlil qiladigan bo'lsak, qiz, ya'ni suyukli yor shu darajada go'zal ekanki, har qadam yurganida gullarning unishi, o'zining yuzidan esa xuddi quyosh

o'z nurlarini sochsa kun yorishganday, yorning yuzi ham yorituvchi ekanligiga ishora qilinmoqda.

Quyida u yoriga nisbatan "gulim", "atirgulim" metaforalarini qo'llaydi:

Sevmading san, atirgulim,

Sevgi asli nadir, gulim?

U singan ignadir, gulim,

Singan chaqmoq sevmish mani ("Sizni kuylayman" she'riy to'plami, 108-bet).

Bu misralarda yorga nisbatan go'zal metafora berishdan tashqari shoir sevgini singan ignaga ham o'xshatadi. Ya'ni sevgi munosabatlarida ajralish, xiyonat kabi hodisalar sodir bo'lsa yoki she'rda ta'kidlanganidek lirik qahramon yorni sevsa, lekin yor oshiqqa befarq bo'lsa sevgi xuddi singan ignaga o'xshab qoladi, deyish orqali o'zgacha metafora yuzaga kelgan.

Iqbol Mirzo ijodida qo'llanilgan metaforalar birgina shoirning ifodalamoqchi bo'lgan fikrlari pardozi sifatida ko'rinmay, shoirning ruhiyati, ichki kechinmalari va his-tuyg'ularining obrazlilik bilan yaxlit holda o'quvchiga yetkaziladi.

Ma'lumki, badiiy matnlarda shoir tomonidan muomalaga kiritilgan ma'noning tabiat va jamiyatdagi ma'lum bir o'xshashlik asosida ko'chishi metaforaning asosiy va muhim belgilaridan hisoblanadi. Og'zaki va yozma nutqda, ayniqsa, inson ruhiyati, kechinmalari tasviriga asoslangan poetik matnlarda emotsional-ekspressiv munosabat ifodalashning eng qulay vositasi bo'lgan metaforalar obrazlilikka asoslanadi. Quyidagi misollarga e'tibor beraylik:

Sarpoychan daraxtlar dardim bilmadi,

Muzlagan kurtaklar bag'rim tiladi,

Ko'ngil bir gullagan fasl tiladi,

Ko'ngilni quyoshga bog'lagim keldi,

Oyog'ingni quchib yig'lagim keldi ("Sizni kuylayman" she'riy to'plami, 59-bet).

Yoki tabiat hodisalari ishtirok etgan boshqa bir she'riga yuzlanaylik:

Chaqmoq kalit bo'ldi qulfi dilimga,

Tegmagan bir qizning zulfi dilimga.

Sizdan o'zga xon yo'q mulki dilimga,

Istaysizmi-yo'qmi sizni sevaman.

Boshingizda yaproq bo'lib aytaman,

Poyingizda tuproq bo'lib aytaman...("Sizni kuylayman" she'riy to'plami, 3-bet).

Iqbol Mirzo she'rlaridagi lirik qahramon va yor quyidagi metaforalar orqali ta'riflangan:

1.O'zi (lirik qahramon) -

a)yaproqqa o'xshatadi:

Atirgulning qonli yaprog'iman men,

Yaprog'ining so'nggi titrog'iman men.

b)gadoga o'xshatadi:

Gulgun qo'shiqlarning mamlakatida

O'tli o'lan aytib o't-o'lan aro

Tillaqo'ng'izlarning saltanatida

Xonqizi bo'lursan, men, mayli, gado.

c)kemaga o'xshatadi:

Shul kimsaning yonida men nimaman,

Balki uning yukin ortgan kemaman.

d)ildizga o'xshatadi:

Bir kun kelib, barmoqlaring shox bo'ladi,

Tirnoqlaring bittadan yaproq bo'ladi,

Besamar bosh qo'yganim - tuproq bo'ladi,
O'shanda ham bitta man ildiz bo'laman.

2.Yor -

a)kapalakka o'xshatadi:

Seni obqochib ketaman!

Yerni aylantirar tuyuqning zarbi,

G'ildirar osmonning adoqlarida.

G'uncha quchoqlagan kapalak kabi

Yasharsan labimning ardoqlarida.

b)xonqiziga o'xshatadi:

Gulgun qo'shiqlarning mamlakatida

O'tli o'lan aytib o't-o'lan aro

Tillaqo'ng'izlarning saltanatida

Xonqizi bo'lursan, men, mayli, gado.

c)shoxga o'xshatadi:

Bir kun kelib, barmoqlaring shox bo'ladi,

Tirnoqlaring bittadan yaproq bo'ladi,

Besamar bosh qo'yganim - tuproq bo'ladi,

O'shanda ham bitta man ildiz bo'laman.

d)g'unchaga o'xshatadi:

Xudoyim men uchun yaratgan g'uncha,

Kimlarga duch kelding menga kelguncha.

Iqbol Mirzo she'rlari, avvalo, mavzu qamrovligi, shakl rang-barangligi va poetik ma'no hamda shoir nigohining o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Ularning barchasiga xos mushtarak xususiyat esa voqelikka faol munosabat, undan chuqur hayotiy mazmun topish va uni go'zal, ta'sirchan ifodalashdir.

Xulosa qilish mumkinki, lingvopoetik vositalardan biri bo'lgan metaforalar Iqbol Mirzo she'riyatida faol qo'llanilib, she'riy asarlar tilining o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qiladi hamda shoirning hayotiy voqea-hodisalarga, insoniy munosabatlarga, ijodiy yondashuviga bog'liq holda hosil bo'ladi. Metaforalar poetik matnlarda obrazlilik hosil qiluvchi vosita sifatida Iqbol Mirzoning badiiy-estetik tafakkuri hosilasi sifatida uning o'ziga xos individual uslubini belgilab beradi. Ular she'riy matnlarda kutilmagan obrazlilik hosil qiladi, shoirga fikr ifodalashda ancha qulaylik yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Y.Pinjasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent. 1969.

2.A.K.Авеличев. Заметки о метафора. Вест. - Москва. Ун-та. Сер. 10.Филология. 1973-N1-с. 25-28.

3.Iqbol Mirzo. Yurakning shakli. - Toshkent. 1993.

4.Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. - Toshkent. 2007.

GYOTENING "VERTER"INI O'QIB

Xayitova Yulduzxon

Andijon davlat universiteti filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada taniqli nemis adibi Yoxann Volfgang Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" asarining badiiy qiymati, yaratilish tarixi va asarga yozuvchining zamondoshlari bergan qimmatli fikrlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: epistolyar uslub, 1774-yil, Yevropa yoshlari, Lessing, Tomas Mann, Verter, Lotta, "Bo'ron va hujumchilar", Sharlotta Buff.

Nemis yozuvchisi Yoxann Volfgang Gyotening qalamidan yaralgan har bir satr kitobxonni teran fikrlashga undashi tabiiy hol. Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" asari ham jahon adabiyotida boshqa biron bir asarga nasib etmagan shon-shuhrat bilan yo'g'rildi. 1774-yil tarixda ana shu kitob yaratilgan sana sifatida mashhurdir. Roman bosilib chiqqanidanoq qo'ldan qo'lga o'tib, tez orada yuzlab tillarga tarjima qilinib, jahon bo'ylab tarqalib ketdi.

Asar epistolyar, ya'ni xatlardan iborat romandir. Bunda shakl ham dramatik, ham she'riy, ham nasriy asarga xos xususiyatlarni birlashtirgan bo'lib qahramonning ruhiy o'z-o'zini anglashi, tanqid va tahlil qilish uchun har taraflama imkoniyatlar yaratadi. O'sha paytda ushbu janr kun tartibida turardi. Ayniqsa, asr o'rtarida ingliz epistolyar romanlari mashhur edi. "Verter" aynan mana shunday sentimental romanlar ta'sirida yozildi. Buning o'sha romanlardan farqi shunda ediki, ular qahramonlarning bir-biriga yozgan xatlaridan iborat bo'lsa, Gyoteda faqat Verter yozadi. Xatlar asosan Vilxelm degan do'stiga, ayrimlari esa Albertga va Lottaga yozilgan. Tomas Mann o'zining "Gyotening Verter" I nomli maqolasida shunday bir voqeani keltiradi: Bir ingliz ancha yillar keyin Vaymarga kelganida yo'ldan o'tib borayotgan Gyoteni ko'rib qolib, ko'cha o'rtasida behush yiqilgan ekan, negaki "Verter" muallifining naq o'zini ko'rish uning uchun kutilmagan va hayratangiz bir voqea bo'lgan. Verterning o'sha zamondagi Yevropa yoshlariga ta'siri shu darajada bo'ldiki, ayrim yigitlar Verterga taqlid qilib, hatto o'z-o'zini o'ldirishdi ham. Buni guvohi bo'lgan o'sha davr olmon adabiyotining iste'dodli vakili bo'lgan shoir Lessing shunday degan: "Tasavvur qiling-a! Birorta rim yoki yunon yigiti shu tahlit o'z joninga qasd qilsaya! Hech aqlga to'g'ri kelmaydi!" Lessi bu bilan Gyotega qarshi chiqdi. Ammo tez orada san'atshunos Zulser tomonidan romanning qadr-qimmatini, ma'naviyatini ulug'lashdagi ahamiyati alohida ta'kidlandi.

"Yosh Verterning iztiroblari" romani Gyotening dastlabki nasriy asari hisoblanadi. Asarning yaratilish tarixi obyektiv sabablarga ko'ra, uju "Bo'ron va hujum" deb nomlangan adabiy oqim vakillari bo'lmish, bo'ronchilar-hujumkor, jo'shqin tabiatli, kuch-qudratli, fojiviy bo'lsa, hujumchilar-ehtirosli, xayolparast, abadiy ozodlikni qo'msovchi qahramon bo'lishi kerak edi. "Hujumchilar" ning oldingi safida bo'lgan yosh Gyote o'z asarlarida bu xislatlarning barchasini mujassam etgan adabiy obrazlarni yaratdi. Bular orasida Verter adabiy obrazi ham bor edi. Zukko va sezgir qalbli yigitning goh junbushga keltiruvchi, goho o'ta ruhiy tushkunlikka yuz tutuvchi tuyg'ular erkinligi, tabiat qo'yniga intilish, tabiatdan oziq olish va hamma narsani tabiat bilan bir qatorga qo'yish, kishilarni chegaralovchi, tabaqalarga ajratuvchi har qanday qonunlarni inkor etish, san'atni va ma'naviy erkinlikni targ'ib qilish kabi muammolar "Verter" ning asosiy mag'zini tashkil etadi.

"Verter" ning dunyoga kelishiga subyektiv sabab esa Gyotening Sharlotta Buffga bo'lgan javobsiz sevgisidir. Xuddi Lotta Albertni tanlab, Verterga rozilik bermagani kabidir.

Verterning tabiatga bo'lgan muhabbatini ushbu satrlarda ham ko'rishimiz mumkin: "Ko'z

oldim qorong'ulashib, tevarak-atrof va samo o'z tasvirini sevgilim qiyofasi singari qalbinga jo etganida-o'shanda,azizim,meni bir tuyg'u qamrab oladi-da:"Eh,buni ifodalay olsam edim,yuragimda tug'yon urgan narsani to'laligicha qog'ozga tushira olsam edim,qalbim mutlaq Tangrining aksi bo'lganidek,bu ham mening qalbinning aksi bo'lardi!..."degim keladi".

Verter Lottani uchratgan kundan boshlab juda qattiq sevgi tug'yoniga g'arq bo'ladi.Ammo qalbidagi barcha sof tuyg'ularni Albert sabab umrining so'nggi nafasigacha yashiradi. Axiyri Verter Lottaga sevgisini garchand Lotta qabul qilmasligini bilsa ham oshkor etadi.So'ngi daqiqalarda arosatda qolgan Lotta Verterning javobsiz sevgisini rad etib,Verterni o'z joniga qasd qilishiga sababchi bo'lib qoladi.Verterning so'nggi, Lottaga bo'lgan ayanchli maktubini o'qib kitobxon beixtiyor ko'ziga yosh oladi

Roman o'zbek tilida bosilib chiqqandan keyin gazeta va jurnallar sahifalarida kata-kichik bir qator taqrizlar bosilib chiqdi.Ulardan eng yirigi M.Abdurahmonovning "Yosh Verterning iztiroblari"o'zbek tilida"nomli maqolasidir.Bundan tashqari Shavkat Karimovning "Dillardan dillarga"kitobida ham "Verter" romani va uning tarjimasiga bir necha sahifa ajratilgan.

Ushbu roman yaratilganiga 240 yildan oshgan bo'lsa-da,hali hanuz insonlar qalbi va ma'naviyatini abadiy boyitib,jahon adabiyoti durdonalaridan biri bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Gyote Yosh Verterning iztiroblari romani.Toshkent,2018.
- 2.Mann T.,Es geht um den Menschen,1976,c.-25.
- 3.Zulser San'atning umumiy nazariyasi,1774.

XURSHID DAVRON IJODI LEKSIK XUSUSIYATLARINING INDIVIDUALLIGI

Qurbonova Muharram Jurabekovna
SamDU 407-guruh talabasi

Annotatsiya: Bu maqola o'zbek tilshunosligida tilning unsurlari, leksik xususiyatlar va bular orqali adabiyotda ularning ahamiyatini izohlaydi. Shu bilan birgalikda, til va adabiyotning aloqasi uzviyligi tahlil etar ekan, til hodisalari yordamida inson ruhiyatining ochib berilishi tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: leksika, qora, poeziya, estetik mazmun, matn.

Shoir she'rlarini tahlil etar ekanmiz, til unsurlariga xos ko'pgina xususiyatlarni o'zida mujassam etganining guvohi bo'lamiz. Umuman olganda, badiiy asar mutolaa qilar ekanmiz, bu jarayonda adabiyot va tilning bevosita bog'liqligini, ularning go'yo qush muvozanatini saqlovchi ikki qanotga o'xshash ekanligining namoyon bo'ladi. Tilning har bir elementi poeziyada asarning pafosini, badiiy nafasini yoritib turadi. Aynan adib ijodi ham rang-baranglikka boy, u tilning har bir elementidan mohirona foydalanadi, ma'noning yuzaga chiqishida til unsurlari tirgak vazifasini o'taydi. Jumladan, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ham ijodkorni shunday ta'riflaydilar: "Xurshidning shoirona nazarida ham, tashbehlarida, she'ring vaznida ham behalovat kechinmalar ruhi va to'liqini sezilib turadi. Uning satrlarida yoshlikka xos otash bor, tug'yon bor"

Shu yuzasidan fikr borar ekan, ijodkor qo'llagan badiiy o'xshatishlar va til unsurlarining birlamchi ma'nosi va vazifasining o'rnini almashtirib qo'ymaslik kerak. Ya'ni lug'aviy jihatdan bir ma'noni anglatgan so'z matn-ijodkor qalami ostida boshqa bir yangicha, o'ziga xos bo'lgan ma'noni ifodalashi mumkin. "Badiiy matn mazmuni haqida gap borar ekan, ikki xil mazmun turini farqlash lozim: obyektiv (neytral) mazmun ya'ni badiiy matnda bevosita ifodalangan mazmun va badiiy (estetik) mazmun, ya'ni turli usullar hamda tegishli ishoralar bilan ifodalangan mazmun, to'g'rirog'i, muallifning aytmoqchi bo'lgan asosiy gapi fikr-g'oyasi". Muallif fikricha, badiiy ma'no faqat matnda yuzaga keladi, bunday ma'noni to'g'ri idrok etish uchun ba'zan yaxlit jumla, ba'zan supersintaktik birlik, asarning bir bobi, hatto tugal asar matni bilan tanishishga to'g'ri keladi. Keling, shoir Xurshid Davron ijodida til unsurlarining qisqacha o'ziga xosliklarini ko'rib chiqamiz.

Shoir ijodidagi leksik xususiyatlarni o'rganar ekanmiz, rang-tasvirni bildiruvchi so'zlardan "qora" so'zi eng ko'p qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, "Bahordan bir kun oldin" she'riy to'plamidagi ijod namunalariga diqqatimizni qaratar ekanmiz, "Bilmadim ko'nglimni yupatgay kimlar" she'rida shoir dunyoni qaro deydi va bu bilan atrofimizda bo'layotgan hodisalarni qoralaydi va aynan erk, vatan deya qon jo'shmasa inson-inson emas deya ta'kidlaydi:

"Bu dunyo qarodir, bu dunyo yolg'on,
Vatan, deb jo'shmasa tomirlarda qon,
Hurriyat quyoshi qolmagay omon
Dilni yoritmasa o'ch to'la hislar!"
Yoki boshqa bir "She'r yozganda" she'riga diqqatimizni qarataylik:
"She'r yozganda qorlarni
Eritaman nafasim bilan,
Unib ko'zga ko'rina boshlar
Qora rangli chechaklar birdan"

Bu yerda shoir haqiqat urug'ini ekililishini shunday tasvirlaydi, chunki biz bilamizki, haqiqat yaxshi ammo, achchiq bo'ladi. Shoir erksizlikka qarshi kurash jarayonini shunday

ifodalaydi. Bu yerdagi aynan "qora" soʻzi haqiqat bilan unib oʻsgan gulni ifodalamoqda. Keyingi baytga diqqatimizni qarataylik:

"Moviy-orzu,
Qora-qismat,
Oppoq-ishonch.
Shovillaydi Boltiq-soʻngsiz,
mahzun quvonch".

Bu yerda insonga xos boʻlgan jamiki hislar ranglar yordamida ochib berilgan, qora rang esa qismatga qiyoslangan, bu ijodda yangiliklardan biri hisoblanadi.

"Abdulhamid Choʻlpon" sheʼrida esa zindon va qamoq qora rang bilan uygʻunlashtirilgan: "Qamoqdan qoʻrqmaydi, axir u bilar:

Vujudi zindondir, vujudi-qamoq.
Shoirlik vujuddan-qora zindondan
Hasrat qushlarini ozod aylamoq".

Bu yerda ijodkor sheʼrga asavvufona ohanglarni ham jo etgan. Inson foniy dunyo hislariga berilib, haqiqiy dunyoni, insoniylik burchini unutadi. Shoir aynan shu jihatni shour hur fikrli inson, u tana va dunyo ehtiyojlaridan oʻzini halos etib yurakdagi chin fikrlarni ifodalay oladi deydi. Aynan qora rang orqali insonni va unda mujassam xususiyatlarni ifoda etgan. Yoki keyingi baytga qarasak:

"Qora qamoqxona koʻksini tilib
Yogʻdu quyulgandek derazalarda,
Olis xotiralar yurtidan kelib
Nurdek sitiladi yosh koʻzlaridan".

Bu baytda esa qamoqxonani ifodalash uchun, undagi zimiqlik muhitni qora rang bilan qiyoslaydi.

"Qrim elegiyasi" sheʼrida esa qora rang orqali bulut va yomgʻirni tasvirlaydi:

"Qoratogʻni qora bulut
Chirmab kela boshladi.
Dengiz yoqdan muzdek, beburd
Shamol yela boshladi".

Shoir bu yerda tabiat hodisalari orqali kishining ruhiy holatini ifodalagan. Bulutni qora, shamolni muz kabi deydi. Keyingi baytda esa:

"Mayli, qora yomgʻir yogʻsin,
U dilga bas kelolmas.
Dilimdagi yorugʻlikni
Zulmat tortib ololmas".

Bu sheʼrning eng soʻnggi bandi boʻlib, u orqali ijodkor fikr tugalligini yuzaga chiqargan sanaladi. Qora boʻlib kirib kelgan bulut hodisasi qora yomgʻir bilan tugaydi. Demak, fikrimizni yakunlar ekanmiz, shoirning ijodkorlik qobiliyati va uning soʻz qoʻllash mahoratining guvohi boʻlamiz. Yaʼni shoir qora soʻzi orqali ajib jarayonlarni va ruhiy holatlarni shoir tasvirlaydi. Qora zindon, qora qamoqxona, qora bulut, qora yomgʻir, qora qismat kabi tasvirlar keltirilar ekan, ular bilan inson, tabiat, erk, haqiqat kabi tushunchalar ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Каримов Суюн Амирович. Бадиий услуб ва тилининг ифода тасвир воситалари.- Самарқанд. 1994.
- 2.Каримов Суюн Амирович.Ўзбек тилинингбадиий услуби. -Самарқанд: Зарафшон, 1992.
- 3.Хуршид Даврон. Ваҳрдан бир кун oldin. -Ташкент: Шарқ, 1997.

"BOBURNOMA" DA KELTIRILGAN IJODKORLAR TAVSIFI**Yo'ldoshaliyeva Muyassarxon Yo'ldoshboy qizi**

Andijon davlat universiteti filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: bu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida keltirilgan ijodkorlar va ularning taxallusi, yozgan ijod namunalaridan keltirilgan. Har bir shoir va yozuvchilarga alohida to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, shoir, taxallus, bayt, antraponimlar.

"Boburnoma" - millatimizning rahnamosi, Andijonimizning suyukli farzandi, Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansubdir. Ijodkor asarni o'n ikki yoshida otasi- Umarshayx Mirzo vafotidan so'ng, taxtga o'tirgach yoza boshlagan. Asarni umrining oxirida yakunlagan. "Boburnoma"-esdalik asar hisoblanadi. Boburnoma - jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlikdir. O'zbek adabiyotida dastlabki nasriy, memuar va tarixiy-ilmiiy asar. Asar eski o'zbekcha, ya'ni chig'atoy tilida yozilgan taxminan 1518/19-1530-yillarga to'g'ri keladi.. "Boburiya", "Voqeoti Bobur", "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Tabaqoti Boburiy", "Tavorixi Boburiy" kabi nomlar bilan ham ma'lum. Boburning o'zi esa "Vaqoye" va "Tarix" degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiy, siyosiy voqealar yilma-yil o'ta aniqlik bilan bayon qilingan bo'lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog'likdir. Asar keng qamrovli bo'lib, turli sohalar haqida ma'lumot beradi. Kitobxonga din va shariat, etnografiya, insonshunoslik, astronomiya, tabobat, harb ilmi, xalq og'zaki ijodi, matematika, bog'shunoslik, shahar qurilishi, tush ta'birigacha o'nlab ilmlardan muhim va qiziqarli ma'lumotlar beradi. Bu asar mazmuni, voqealariga e'tibor bergan kitobxon: "Boburning qiziqmagan va bilmagan sohasi yo'q ekan", degan xulosaga kelishi mumkin. Darhaqiqat, bu ajoyib fazilatlar uning ko'p qirrali faoliyatiga xos va mosdir. Shu sababli ham asar qomusiy deb aytiladi.

Antrapologiya- nomshunoslikning kishi ismlarini o'rganuvchi bo'limi. Ular tarkibiga otasining ismi, familiyasi, laqabi va taxallusi kiradi. Asarda juda ko'plab tarixiy shaxslar berilgan. Biz bulardan ayrimlari bilan tanishib o'tamiz.

Boburning amakilari Sulton Mahmud va Sulton Ahmadlar bo'lgan. Kichik amakisi Sulton Mahmudning "Olachaxon" degan ikkinchi ismi ham bo'lgan. Bizda nega bunday deyilgan savoli tug'ilishi tabiiy. Bunga sabab qalmoq va mo'g'ul tillarida "qotil"ni "olacha" deb atashidir. Umrining ko'p qismi janglarda o'tgan Sulton Ahmad bir necha marta qalmoqlar yurtini bosib olgan, ko'p odamlarni qirib tashlagan. Olachaxon nomi ham qalmoqlar tomonidan berilgan.

Mastam, ey muhtasib, imroz zi man dast bidor

Extisobam bikun, on ro'z ki yobi xushyor.

Bu fors-tojik tilida yozilgan g'azal Sulton Malik Koshg'ariyning o'g'li Ahmad Xojabek qalamiga mansub. Amakisi vafotidan so'ng Samarqand hukumatini boshqargan. Xojabek xushta'b va mardona kishi bo'lgan. "Vafoiy" taxallusi bilan she'rlar yozib devon tartib bergan. Navoiy Hirotdan Samarqandga kelgan paytlari ular bilan hamsuhbat bo'lar edi.

Sulton Abusaid huzurida xurosonlik tunqo'riqchilar ham bo'lgan. Ana shunday shaxslardan biri Ayub bo'lgan. Sulton Mahmudga xizmat qilgan. Hazilkash va so'zamolligi uchun, Sulton Mahmud Mirzo unga "Behayo" laqabi bilan xitob qilgan.

Asarda Boysung'ur Mirzoga ham alohida tavsif berib o'tilgan. Adolatli, xushchaqchaq, kamtar va fazilatli inson bo'lgan. Ichkilik ichmagan paytda namozlarini to'la-to'kis ado etar edi. Nasta'liq xatida chiroyli baytlar bitgan.

Soyalar az notavoni jo-bajo meo'ftam

Gar nagiram ro'i devorr zi po meo'ftam.

Bu baytlari el orasida mashhur bo'lgan. Boysu urush Mirzo el orasida " Odiliy" taxallusi bilan ijod etgan, biroq devon tuza olmagan. Yana bir buyuk ijodkor Temuriylar vakili Husayniydir. Husayn Bayqaroning ayrim hislatlari Umarshayx Mirzoga o'xshab ketadi. Ikkisi ham kabutarbozlikka qiziqishgan, o'z parrandaxonalarida turli xildagi kabutarlarni boqishgan. Mohir va baquvvat askar bo'lishgan. Husayn Boyqaro " Husayniy" taxallusi bilan ijod qilgan. She'rlarini barchasini bir vaznda yozgan. Devon tartib qilgan. Uning o'g'li shoh G'arib Mirzo jismonan zaif bo'lsa-da, she'riyatda kuchli va iqtidorli ijodkor edi. " G'aribiy" taxallusi bilan fors va turkiyda ajoyib she'rlar yozgan.

Darguzar didam pari po'y shudamdevonavash,

Chist nomi o', boshad nadanam xonaash.

Yuqoridagi baytlar Garibiyning ijod mahsulidir.

Alisher Navoiy betakror ijodkor. Navoiy turkiy she'riyatimizdagi naziri yo'q edi. U she'rlariga ikki taxallus qo'llagan. Turkiy she'riyatiga " Navoiy"- navo qiluvchi va forsiy she'rlariga -" Foniyy", ya'ni o'tkinchi demakdir. "Boburnoma"da muallif Navoiyga bir gap bilan : " Turkiy she'riyatda hech kim unchalik ko'p va ho'p yozgan emas" deb ta'riflaydi.

O'rta asrlar she'riyatiga qo'rqinchli so'z va ma'nolari bilan iz qoldirgan , she'rni g'alati qilib aytuvchi Shayximbek ham "Suxayliy" taxallusi bilan she'rlar bitgan.

G'am kechasi ohimning quyuni osmonni o'rnidan qo'zg'atdi

Ko'z-yoshim semining ajdahosi yer yuzini yutib yubordi.

Har bir ijodkor o'z kasbi, shajarasiga qarab taxallus tanlagan.Osafiy Vazir o'g'li bo'lgani uchun "Osafiy", ya'ni " Vazir" taxallusini olgan . Garchi she'rlari ishq-muhabbat va ehtirosdan bahrasiz bo'lsa-da, tasvir jilolari va ma'nodan holi emas.

Binoiyning otasi Ustoz Muhammad Sabz binokor bo'lgani uchun Binoiy taxallusi bilan she'rlar mashq qilib turgan.G'azallarida rang va kayfiyat sezilib turadi. Mevalar haqida doston yozgan, lekin unchalik yoqimli bo'lmagan.

O'tmish adabiyot va tarix, musiqa va san'atdan yaxshi xabardor bo'lgan, diniy ta'limotga chin ixlos qo'ygan Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo'ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtiram ko'rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib turdi. Ijod va san'at ahliga bunday mehrli munosabat aslo bejiz bo'lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug'ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to'xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Bobur. Tanlangan asarlari. T.: 1958.
- 2.Bobur, Boburnoma. T.: 1960, 1989.
- 3.www.ziyouz.com.kutubxonasi

РАНГ КОМПОНЕНТЛИ ТИЛ БИРЛИКЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ- МАДАНИЙ ВА КОНЦЕПТУАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ (ИСПАН ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МАТЕРИАЛИДА)

Ачилова Мадина Шерзод қизи

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

3-босқич (бакалавр) талабаси

Toshpo'latovaMadina@mail.uz

Мустақил республикамизнинг жаҳон майдонида обрўси ошиб, ташқи алоқалар, маданий ва иқтисодий муносабатлар ривожланиб бораётган бир даврда хорижий тилларни ўрганиш бу тилларда оғзаки ва ёзма мулоқотни амалга ошириш ҳамда эркин фикр алмашиш компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантиришга ёрдам беради. Муайян тилни мукамал ўрганишда удаги фразеологик бирликларини яхши билиш муҳим аҳамият касб этади. Зеро тилдаги фразеологик бирликлар ҳар бир халқнинг ўзига хос урф-одатлари, психологияси, турмуш тарзи, менталитети кабилар билан чамбарчас боғлиқдир. "Тилнинг фразеологик фонди халқнинг маданияти ва менталитети ҳақидаги энг қимматли манбадир, унда халқнинг афсоналари, урф-одатлари, маросимлари, байрамлари, одобахлоқи ва ҳоказолар мужассамлашган", - деб ёзади В.А.Маслова. Узоқ муддатли тараққиёт маҳсули ҳисобланган фразеологизмлар жамият тажрибасини акс эттириб, уни бир авлоддан иккинчисига етказди, шу боисдан улар нафақат коммуникация воситаси сифатида, балки турлитуман ижтимоий жиҳатдан аҳамиятли маълумотлар манбаи сифатида ҳам муҳим ўрин тутди. Шу жиҳатдан олганда, тилнинг миллий маданий семантикаси - бу тарихий ривожланиш натижаси бўлиб, у маданий ўтмишни ҳам ўз ичига оладики, халқ тарихи қанчалик бой бўлса, унинг тилига хос бирликлар шунчалик ёрқин ва мазмунан кўп қиррали бўлаверади. Турли тиллар фразеологиясини қиёсий жиҳатдан ўрганиш эса ҳар иккала тилнинг ҳам тузилишини чуқур англаб етиш, бу тил соҳиблари бўлган инсонларнинг феъли, маданияти, адабиёти, тарихи, урф-одатлари тўғрисидаги билимларнинг бойитилишига хизмат қилади. Ранг компонентли тил бирликларининг образлиликни, экспрессивлик ва эмоционалликни юзага келтирувчи муҳим воситалар бўлиб, улар бадиий публицистик матнларнинг ифодавий таъсирчанлигини оширишга хизмат қилади. Шунинг учун ранг компонентли тил бирликлари стилистик жиҳатдан ҳам муҳим ўрин тутди. Ранг компонентли тил бирликлари ихчам, маъно жиҳатидан салмоқдор ва таъсирчан бирликлар сифатида давр руҳига мос келади. Бу эса, ўз навбатида, фразеологияга доир тадқиқотларнинг ҳозирги вақтда долзарб ва муҳимлигини яна бир қарра исботлайди. Жамиятдаги муносабатларни, ҳодиса ва ҳолатларни соддароқ, ойдинроқ ва образлироқ ифодалаш мақсадида фразеологик бирликлардан табиатдаги ўз хусусиятлари билан шунга мос келадиган турли воситалар, жумладан, ранг компонентли тил бирликларидан усталик билан фойдаланилган. Испан тилидаги ранг компонентли тил бирликлари кенг ўрганилган соҳа бўлсада, уларнинг семантик ва тузилишига оид хусусиятлари испан тилида етарлича тадқиқ қилинган, деб бўлмайди. Ранг компонентли тил бирликларини ўрганиш, шунингдек, уларнинг инсон ҳаётида қандай ўрин тутишини аниқлашга имкон беради. Испан тили фразеологизмлари кенг қамровли бўлиб, уларни турли нуқтаи назардан таҳлил этиш мумкин. Шу маънода, машҳур тилшунос Фердинандо Лозарио коммуникатив компетенцияни шакллантириш ва уни ривожлантиришда маданиятлараро мулоқот ёндашувини

қўллашнинг самарали йўллари ҳақида ўз фикрларини билдириб ўтади.

Тушунча фикрлаш жараёнининг натижаси сифатида инсонга нисбатан белгиланади ва асосан, умуммиллий хусусиятга эга бўлади. Лексик маънога хос умумлаштириш эса ҳар бир тилнинг ўз доирасида ҳосил бўлади. Лексик маънодаги умумлаштиришнинг ҳар бир тилга хос, миллийлик характериға эға эканлиги полисемия ходисасида яққолроқ, кўринади. Полисемияда маъноларнинг муайян лексемада умумлашиши ҳар бир тил доирасида юз беради. Масалан, узбек тилидаги кўк лексемасида тўртта рангни ифодаловчи маънолар умумлаштирилган.

- 1) тиник; осмон ранги, мовий ранг: кўк осмон;
- 2) кўк ранг, тўк, мовий ранг: кўк бўёк;
- 3) кулранг: кўк бўри, кўк каптар
- 4) яшил ранг: кўк ўт, кўк дала.

Испан тилида ушбу ранглар айнан бир хил маъно қасиб этиши албатта қувонарлидир, тилларни ўрганиш жараёнида ушбу тил маданиятини ва айниқса ранглар бераоладиган маъноларни чуқур ўрганиш, ўрганилаётган тилга нисбатан чуқур хурмат маносини билдиради.

Испан тили дарсларида талабалар одатда бир неча тилда сўзлашувчи талабалар бўладилар ва тилни ўз юртида яшаган холда ў р г а н а д и л а р. Уларда ўрганаётган тилнинг маданиятини ўрганишга маданиятлараро мулоқот компетенциясини ривожлантиришга етарли даражада имконият йўк. Маданиятлараро ёндашув шуни тақозо этадики, тил ўрганишга турлича ёндашиш мумкин ва бунга ҳаётий зарур бўлган билим ва кўникмани ривожлантиришга эътибор қаратилиши керак. Тилни яхши ўрганиш талабалардан ўрганилаётган тил маданиятини билишни талаб қилади. Тил билиб аммо шу тилда сўзлашувчиларнинг маданиятидан беҳабар холда қолиш сўзлашаётганда баъзи ноқулай вазиятларни келтириб чиқариши мумкин. Испан тилини чет тили сифатида ўрганаётган талабалар турли дунё маданиятлари тўғрисида кучли билимга эға бўлишлари ва шу билимлар асосида ўз маданиятлари билан таққослай олишлари керак.

Бундан ташқари талабаларнинг хорижий тил бўйича эғаллаган билим, кўникма, малакаларини қасбий ва илмий фаолиятда эркин қўллай олишларини таъминлашга хизмат қилади. Маданиятлараро мулоқот, халқаро маданий компетентлик, маданиятлар ўртасидаги тафовутнинг тил ўрганиш ва ўқитишдаги ахамияти, маданиятлараро мулоқотнинг экстралингвистик жихдлари (дунёқараш, маросимлар, урф одатлар, инсон аъзолари тили, табулар, стереотиплар, кўп миллатли маданиятларда жамиятнинг ўрни, имиджи, рамзлар ва албатта ранглар), маданиятлараро мулоқотда маданиятга хос хусусиятларни (саломлашув, мулозаматни акс этириш йўллари, мурожаат қилиш йўллари, идиомалар ва хоказо) ўринли ишлатиш, ўзга тил маданиятига хос жихатларни ўқитиш учун ўқув материаллари яратиш, мавжудларини таҳлил қилиш, мослаштириш малакаларини эғаллашга ёрдам беради.

Хулоса қилиб айтганда ранг компонентли тил бирликларини ўрганиш тили ўрганилаётган мамлакат маданияти ва ўз маданиятларини қиёслаш ва таққослаш малакасини ривожлантиришда ёрдам беради. Маданий муҳитнинг тилни қўллашдаги таъсири ҳақидаги ўз тушунчаларини ошириб боради. Ўзга маданиятни тушуниш ва унга нисбатан бағрикенглик хислатини шакллантиради. Маданиятлараро мулоқот компетенциясини ривожлантириш орқали дарслар давомида реал ҳаёт учун зарур бўлган кўникмалар ҳам ривожланади. Маданиятлараро мулоқотни шакллантиришга йўналтирилган кўникмалар устида ишлаш, масалан: - кузатиш ва аниқлаш-қиёслаш ва таққослаш-мазмунни таҳлил қилиш - ноаниқликни бартараф этиш ва ижобий ёндашиш - маълумотларни туғри

талқин этиш, тушунмовчиликларнинг олдини олиш - ўз нуқтаъи назарини бошқаларнинг фикрларини ҳам хурмат қилган холда илгари суриш - тафовутларни тан олишдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати :

- 1.Э. Макаев, Общая теория сравнительного языкознания. М., 1977
- 2.Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологические аспекты. - М., 1996.
- 3.Тарасов И. П. Структура смысла и структура личности коммуниканта//Вопросы языкознания. 1992№4
- 4.Степанов Ю.С. Константы. Словарь Русской культуры. Опыт исследования. - М.: Языки русской культуры. М. 997.
- 5.Топорова. Т.В. Семантическая структура древнегерманской модели мира . М.: Радикс. 1994
- 6.Курилович Е. Заметки о значении слова // Вопросы языкознания. - 1975. - №3. - С. 71-87.

HIKOYA JANRI USTASI.

N.Qurbonova
BDU

Annotatsiya: Ushbu tezisda Amerika adabiyotida qisqa hikoya janri ustasi sifatida nom qoldirgan O'Henri ijodining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi, shunindek yozuvchining bir nechta hikoyasi tahlilga tortigan.

Kalit so'z va iboralar: yumor, kinoya, insoniylik, hayotga muhabbat, kutilmagan yakun.

Jahon adabiyotida O' Henri nomi bilan iz qoldirgan mashhur amerikalik adib, kichik hikoya ustasi Uilyam Sidney Porter o'zining o'tkir qalami, jo'shqin fikrlari-yu, yengil yumoristik uslubi va kutilmagan yakunga ega bo'lgan hikoyalari bilan kitobxonlarni o'ziga rom etgan. O' Henri amerika hikoyachiligining o'ziga xos turini yaratgan. Yumorning kuchliligi, kinoya, taqqoslash, parodiya kabi usullarning ko'p ishlatilganligi, muallifning "kichik inson"ga muhabbati, oliyjanoblik va sofdillilikni madh etish kabi xususiyatlar O' Henri hikoyalariga olamshumul shuhrat keltirdi. Uning ko'plab asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. G'afur G'ulom va Abdulla Qahhor o'zbek hikoyachiligini O' Henri ijodining ilg'or tomonlari bilan boyitganlar. O' Henri o'z asarlarida yuqori tabaqa vakillaridan uzoqlashib, ko'pincha oddiy xalq vakillari hayotini tasvirlagan. U o'z muxlislarini kutilmagan yakunga ega asarlari bilan maftun etgan. Har bir kitobxon asarni o'qish jarayonida uning taxminiy yakuni to'g'risida fikrga ega bo'ladi, ammo O' Henri asarlari yakunini oldindan bashorat qilib bo'lmaydi. Adib har bir asari so'ngida shunday burilish yasaydiki, bu barcha kitob ishqibozlarini hayratda qoldiradi.

O' Henrining dunyoga mashhur kichik hikoyalaridan biri "The gift of Magi" haqida fikr yuritilsa, hikoyaning asosiy qahramonlari Jim va Della Rojdestvo arafasida bir-birlarini xushnud qilish maqsadida sovg'a olish taraddudiga tushib, o'zlari uchun eng qimmatli bo'lgan narsalardan voz kechib, sovg'a xarid qilishadi. Hikoyani o'qish jarayonida kitobxon yosh oilaning yashash sharoitini, bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbatini, e'tiborini his qiladi, ammo asarning bu tarzda kulgili va hayratlanarli yakun topishi to'g'risida o'ylamaydi ham. O'zining qimmatli sochlaridan voz kechib, turmush o'rtog'i uchun tilla soatni ilib qo'yadigan platina zanjir xarid qilgan Della va ota-bobosidan meros soatni Della uchun soch tog'nog'ichga sarflagan Jim xarid qilingan sovg'alar endi yaroqsizligidan qayg'uga botishadi. Endi ularda juda ajoyib platina zanjir va qimmatbaho soch to'g'nog'ichi bor edi, ammo shu sovg'alarga munosib soat va soch rojdestvo kuniga bag'ishlab xarid qilingan narsalar uchun qurbonlik bo'lgandi. Yozuvchi hikoya so'ngida o'z xulosasini shunday bayon etadi: "Men bu yerda sizlarga o'zlarining bebaho boyliklarini bir-birlariga aqlga mutlaqo zid bo'lgan yo'sinda fido etgan ikki tentakning sarguzashtini so'zlab berdim. Ammo zamonamizdagi donishmandlarga o'git tariqasida aytib qo'yishim kerakki, barcha tuhfa beruvchilardan eng donishmandi shular edi. Barcha tuhfa baxsh etuvchi va oluvchilar orasida mana shularga o'xshaganlari chinakam donishmandlardir. Afsungarlar ham ana shular". Hikoya yakunida kitobxon qalbini bir - biriga zid tuyg'ular : yengil kulgu va achinish, hayrat va havas egallaydi. O' Henri asarlari mana shu jihati bilan barcha kitob shinavandalarini o'ziga rom etadi.

Adibning kutilmagan yakunga ega asarlari bir vaqtlar uni "Gay de Mopassantga Amerika javobi" nomini olishiga sabab bo'lgan. Uilyam Sidney Porterning o'zbek ahliga "Ishbilarmon kishilar" nomi bilan mashhur bo'lgan hikoyasi " The Ransom of Red Chief" ham ana shunday o'ziga xos jihati bilan tomoshabinlarning qalbidan o'rin egallagan. Bu hikoya pul undirish maqsadida 10 yoshli bolani o'g'irlab ketgan ikki kishining sarguzashtlarini

bayon qiladi. Yozuvchi bu hikoya orqali qora niyatli qahramonlardan "o'ch oladi". Pul undirishni maqsad qilgan qaroqchilar, asar so'ngida shumtaka bolani olib ketishi uchun uning otasiga ikki yuz ellik dollar miqdorida pul berishga majbur bo'lishadi. O'g'irlangan bola aqlga sig'mas darajada sho'x bo'lib, o'g'rilarni ming bir balolarga giriftor qiladi. Shunday qilib, adib hikoya qahramonlarini "jazolaydi". Hikoya boshida voqealar rivoji asar oxiriga kelib bu darajada o'zgarib ketishi hech bir kitobxonning hayoliga kelmaydi va aynan shu jihati bilan u barchaga manzur asar hisoblanadi.

O' Henri asarlari chuqur mazmunga egaligi bilan ajralib turadi, u so'zlardan shunchalik unumli foydalanadiki, sanoqli gaplardan tuzilgan matn ham xuddi katta bir kitob beradigan ma'no kabi kengdir. Yozuvchi o'zining ushbu fazilatini yana bir kichik hikoyasida namoyon etadi : "Haydovchi chekib turgandi, qancha yonilg'i qolganini bilish uchun benzobakka qaradi. Marhum 23 yoshda edi". Bor- yo'gi uchta gapdan iborat bu hikoya kishida hayrat, achinish, afsus hislarini uyg'otadi.

O' Henri o'z hikoyalari yuksak insoniylik sifatlarini, odamiylik, insonparvarlik kabi beg'ubor tuyg'ularni madh etadi. "The last leaf" hikoyasi o'z umrini bir qizchani hayotini saqlab qolish maqsadida fido qilgan oliyjanob kishi, uning mardonavor ishi, insonning hayotga bo'lgan umidi va ishonchi haqida yozilgan. Pnevmoniya kasalligiga chalingan bemor hayotining so'nggi kunini derazasidan ko'rinib turgan darxtning qolgan barglari bilan taqqoslaydi. So'nggi barg uzilganda hayoti ham nihoyasiga yetishini kutgan Johnsny ko'zlarini o'sha daraxtdan uzmay yotadi. Buni bilgan do'sti va kekxa rassom uning hayotini saqlab qolish uchun barcha choralarni ko'rishadi. Kekxa rassom derazaga o'sha bir bargi osilib turgan daraxt rasmini chizadi, shu tarzda Johnsny o'sha hali uzilmagan bargdan ruhlanib, sog'aya boshlaydi, ammo pnevmoniya bilan kasallangan rassom tuni bilan derazaga rasm solgani uchun ahvoli og'irlashib, tunda hayotdan ko'z yumadi. U butun umri mobaynida bir maqsad bilan, o'zining shoh asarini yaratish maqsadi bilan yashaydi va Johnsnyning hayotini saqlash maqsadida derazaga chizgan rasmi uning shoh asari bo'ladi. Garchi asar kekxa rassomning vafoti bilan tugasada, kitobxon bundan tushkunlikka tushmaydi, aksincha, hayotga muhabbat kuchayib, inson umri uchun umid qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligi haqida o'ylaydi.

O' Henri asarlari aynan shu jihatlari uchun barcha kitobxonlarni maftun etgan, uning asarlari jahon adabiyotida mangu yashaydi.

Adabiyotlar:

- 1.Chisholm, Hugh. "Henry, O". Encyclopedia Britannica, London, 1922.
- 2.O.Henry. "The Gift of Magi". New- York: Higher School Publishing House, 2006.
- 3.O'zbek adabiyoti ensiklopediyasi.
- 4.WWW.Ziyonet.uz

НЕМИС ТИЛИ АНТРОПОНИМЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ ШАКЛЛАНИШИ

Суяров Адҳам Бегмурадович

Қарши Муҳандислик-Иқтисодиёт Институтини

Аннотация: Ушбу мақолада тилшуносликнинг таркибий қисмларидан бири бўлган антропономика ҳақида фикр юритилган. Антропономлар турли ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар таъсири остида шаклланади ва шу сабабли ҳам уларни жамият ойнаси деб аташ мумкин.

Калитсўзлар: антропономика, усул, амалий натижа, лингвистик, структур-семантик, социо-лингвистик, мантиқий фикрлаш, немис тили антропономлари, олмон қабилалари, исмлар, немис ономастикаси, оттенкали фразеологик бирликлар, Ханноверда фамилия-лар, ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар

Республикамизда бўлаётган туб ислохотларнинг асосида комил инсонни вояга етказиш ва тарбиялаш масалалари турибди. Тарбиянинг негизи бўлган таълим тизимидаги ўзгаришларнинг барчаси ёш авлодга мукамал билим бериш ва республикамиз ривожига ўзининг муносиб ўрнини эгаллашларига кўмаклашишдан иборатдир. Таълим соҳасидаги бундай ўзгаришлар ёш авлод тарбиясида таълим берувчиларнинг сифати, ўқитиш тизимидаги янги қараш-лар асосида дарс беришлари ҳам назарда тутилган. Шунинг учун ҳам Респуб-ликамикда ўқитиш сифатини янада яхшилаш учун таълим берувчиларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш курсларида замон талабларига мос ҳолда билим олишларига барча шарт-шароитларнинг яратилиши, бежиз эмас. Таълимда интерфаол усуллар ва инновацион технологиялардан фойдаланган ҳолда дарс ўтиш бугунги кунда янгилик ҳисобланмайди. Чунки ривожланиш даврида барча соҳаларда бўлгани каби таълимда ҳам дарс ўтишнинг замона-вий методларидан, ўқитишнинг барча усулларидан ўринли фойдаланган ҳолда олиб бориш, таълим берувчиларнинг доимий амалга ошириб келаётган ишларидан биридир. Бугунги кунда барча таълим йўналишларида ўқити-лаётган фанлар бўйича интерфаол усуллардан фойдаланган ҳолда дарс олиб борилмоқда.

Антропономика тилшуносликнинг таркибий қисмларидан бири сифатида шаклланишидан кўп вақт ўтмаган бўлсада, у инсоният томонидан қадим даврлардан бери ўрганилиб келинмоқда. Ҳар бир халқ антропономлари ўша халқ яшаш тарзи, анъана ва удумлари таъсири остида шаклланган бўлади.

Европа халқлари антропономик тизимлари ўзаро яқинлиги-таркиби бир хил элементлардан иборат эканлиги, фамилиянинг авлоддан-авлодга ўтиши каби хусусиятлар билан характерланади. Лекин ҳар бир тил антропо-номик тизими ўзига хос лингвистик, структур-семантик, социоллингвистик жиҳатлари билан бошқа халқлар антропономикасида фарқланади.

Агар тил ўргатиш жараёнида нутқий мулоқотни амалга оширишда олдиндан фаҳмлаб интеграция йўли билан нутқни тайёрлашга эришилса, дискурсивлик (*мулоҳаза юритиши*) ёрдамида гапиришнинг ухлуксиз бориш жараёни бошқарилади, гапирувчининг нутқий тактикаси ва стратегияси амалга оширилади. Бунда мантиқий фикрлашга асосланиб, талаба онгли ҳолда нутқий вазиятни чамалаш, суҳбатдоши фикрини тўғри идрок этб, уни новербал муомуласини илғаб, унга мувофиқ жавоб қайтариши, гапириш моҳияти ва вазиятга оид билимларни ишга солиши мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Шунинг учун ҳозирги даврда тил бирикмаларини омсиологик таҳлили кучаймоқда. Натижада тил бирликларини прагматик тадқиқ этиш долзарблик белгилайди. Шу жиҳатдан ҳар бир тил бирлиги ва нутқ жараёни интеграция асосида прагматик тадқиқ этилса, тилшуносликдаги муаммолар ҳал қилинади.

Биз тадқиқ этаётган немис тили антропономлари ҳам асрлар давомида турли лингвистик ўзгаришларга учраш ҳамда бошқа тиллардан ўтган сўзлар ҳисобига шаклланган. Мазкур тил антропономларининг маълум қисми қадимги олмон номлари бўлса, қолган қисмини турли даврларда тарли ижти-мой, сиёсий ўзгаришлар натижасида немис тилига ўзлашган атоқли отлар ташкил этади.

Қадимги олмон қабилаларида дастлабки исмларнинг пайдо бўлиш даври эраиздан аввалги IV-VII асрларга тўғри келади. Мазкур исмлар икки қисмдан иборат бўлиб, улар сеҳрли кучга эга, исм эгаси тақдирига таъсир қилади, шунингдек, исмлар одамга куч, жасурлик бахш этади, ғолиблик олиб келади ҳамда у худолар паноҳида бўлади, деб ишонишган:

Eberhart – ёввойи қўнғиз каби кучли; *Bärhart* – айиқ каби кучли, бақувват; *Wolfgang* – бўрига ўхшаб юрадиган ... [3,18]. Шунингдек немис тилшуноси Конрад Кунце ўзининг „*Vor- und Familiennamen im deutschen Sprachgebiet*“ асарида [1,17] дастлабки олмон исмлари қадимги грек ва рим адиблари асарларида қайд этиганлигини ва *Catumer*, *Catvald*, *Siegmond* каби олмон тилларига хос исмлар антик давр тарихчиси Такитуснинг милoddан аввалги „100 йилга оид“ асарида учрашини таъкидлайди.

VIII асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб ҳозирги Италия худудидан хрис-тианлик билан боғлиқ исмлар кириб кела бошлайди. Қадимги еврей тилидан – *Adam*, *Susanne*, грек тилидан – *Andreas* (*жасур*); *Agathe* (*шафқатли*); *Katharina* (*озода*); лотин тилидан – *Viktor* (*ғолиб*); *Beate* (*бахтли*) [4].

Замонавий немис тили антропонимлари ичида ҳам бошқа тиллардан ўзлашган исмлар кўп учрайди:

Араб тилидан – *Amber*, *Ali*, *Muhammed*;

Инглиз тилидан – *Brian*, *Dylan*, *Kermit*, *Tara*;

Грек тилидан – *Angel*, *Christopher*, *George*;

Славян тилларидан – *Boris*, *Nadia*, *Vera*;

Испан тилидан – *Dolores*, *Linda*, *Rio*.

Статистик маълумотларга кўра, Германияда ўғил болалар исмларидан *Ben*, *Paul*, *Lukas*, *Jons*, *Luis*, *Alexander*; қизлар исмларидан эса *Mia*, *Emma*, *Hanna*, *Sophia*, *Lena*, *Lina*, *Lara* қабилар халқ орасида энг сеvimли исмлар ҳисоб-ланади.

Худди ўзбек тилида бшлгани каби немис ономастикасида ҳам икки қисмдан иборат исмлар мавжуд. Қизлар исмлари: *Aisha* – *Elisabetta*, *Alesandra* – *Silvia*, *Alexandra* – *Lea*, *Alexandra* – *Sophia*, *Alisa* – *Klara*, *Alina* – *Amalia* ;

Ўғил болалар исмлари: *Adrian* – *Maurice*, *Alessandro* – *Luis*, *Alexander* – *Maximilian*, *Ben* – *Luca*, *Ben* – *Joris*, *Ben* – *Toni*, *Julian* – *Karl*, *Julian* – *Christian*

Тилда атоқли отлар турдош от сифатида қўлланилиш ҳодисаси мавжуд бўлиб, бу тил ҳодисасини замонавий немис тили атоқли отлари мисолида ҳам кўриш мумкин:

Hans исми контекстда турли маъноларда келиши мумкин:

Hans im Glück – ein „*glücklicher*“ *Mensch, der bereit ist zu verlieren* – омадли инсон;

Hans Hasenfuß – кўрқок одам;

Ich will Hans heißen (wenn das nicht stimmt) – Мени жинни деб атайсизлар (*агар нотўғри бўлса*);

Hans Ohnesorge – Боқибегам .

Otto исми турдош от бўлиб келганда қуйидаги маъноларни англатиши мумкин:

Doller Otto – жасур, кўркмас;

schräger Otto – шубҳали одам;

von wegen Otto – ҳеч қачон;

Otto – *Otto* – бирор инсонни мақташ мақсадида ишлатилади.

Liese исми қадимдан немисларда оддий оилалар фарзандларига қўядиган исм ҳисобланган. Олий табақадаги инсонлар ўз хизматкорларини мазкур исм билан ҳам аташган. Немис тилида *Liese* асосан салбий маъно оттенкали фразеологик бирликларда қўлланилади:

Eine dumme Liese – ахлоқ қиз; *eine liederliche Liese* – искирт, ифлос, *ein vergessliches Lieschens* – эсар қиз [2:98].

Немис тилида фамилиялар исмлардан кейинроқ пайдо бўлган бўлиб, уларнинг шаклланиши ўрта асрларда бошланган. Улар турли инсонларнинг келиб чиқиши, туғилган жойини англатувчи сўзлар асосида шаклланган, деб айтиш мумкин. Таниқли немис тилшуноси В.Флайшернинг қайд этишича, немис тилида фамилиялар XII асрда даставвал ҳозирги Германиянинг ғарбий қисмидаги шаҳарларда пайдо бўла бошлаган. Шимолда

асосан XIX аср бошларидан бошлаб киритилган. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, немис фамилиялари турли мотивлар асосида шаклланган:

Касб номлари асосида шаклланган немис фамилиялари:

1. Müller (*тегирмончи*), Schmied (*темирчи*), Schneider (*тикувчи*), Fischer (*балиқчи*), Meier (*бошқарувчи*), Weber (*тўқувчи*), Wagner (*каретасоз, аравасоз*), Becker (*нонвой*), Schulz (*қишлоқ оқсоқоли*), Hoffmann (*шоҳ саройидаги аён / амалдор*), Schaffer (*чўпон*), Koch (*ошпаз*), Bauer (*деҳқон*), Richter (*судя*), Schröder (*извошчи*).

2. Инсоннинг ташқи кўриниши ёки характери асосида юзага келган фамилиялар: Klein (*кичик*), Lang (*узун*), Dickmann (*тўлачадан келган одам*), Hinkefuss (*оқсоқланиб юрадиган*), Schnabe (*махмадона одам*), Gut (*яхши*).

3. Шахс номлари асосида шаклланган фамилиялар: Gerhard(s), Konrad(s), Ulrich(s), Hermann(s), Walter(s), Peter(s), Friedrich(s), Albrecht(s), Simon(s), Ludwig(s), Martin(s), Otto(s), Dietrich(s), Thomas.

4. Ҳайвон номларидан ясалган фамилиялар: Wolf (*бўри*), Fuchs (*тулки*), Hahn (*хўроз*), Vogel (*қуш*).

Шуни таъкидлаш керакки, ўрта асрлардан бошлаб немис фамилиялари қўлланилиши одат тусини олган бўлсада, XIX асргача фамилияни ўзгартириш мумкин бўлган. Бугунги кунда фамилияни фақат рухсат этилган ва етарли асос тақдим этилган куйидаги ҳолатлардагина ўзгартириш мумкин:

Агар фамилия ноодатий, одоб доирасидан ташқаридаги сўзлар билан аталган бўлса: *Düvel* ёки *Donnerschlag* - момоқалдиروق гулдуриси, *Deibel* - иблис, шайтон, *Donnerwetter* - жин урсин, лаънати;

Агар бир хил фамилиялар кўп бўлиб, ўзаро мулоқотда адашмовчиликлар-га ва ноқулайликларга сабаб бўладиган сўзлар билан ишлатилган бўлса: *Müller*, *Schmidt* [3,30].

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, антропонимлар турли ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар таъсири остида шаклланади ва шу сабабли ҳам уларни жамият ойнаси деб аташ мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Kunze K. Vor- und Familiennamen im deutschen Sprachgebiet. – Deutscher Taschenbuchverlag, München, 2003. – 225-227 S.

2. Seibike W. Die Personennamen im Deutsch. – Berlin – New-York, 1982. – 138 S.

3. Габдуллина И.Ф. Переход имен собственных в имена нарицательные в английском, немецком и татарском языках. – Казань. Казанский университет, 2003. – 145-147 с.

4. Комарова Р.А. Немецкая антропонимика. – Саратов. Саратовский университет 1979. – 115-117 с.

ИМОМ БУХОРИЙ ВА ИМОМ ТЕРМИЗИЙ ФОЙДАЛАНГАН ҲАДИСШУНОСЛИК ТЕРМИНЛАРИНИНГ СЕМАНТИК ТАҲЛИЛИ

Абдувоси Абдибоқиевич Шоназаров
ТошДШУ 2-курс магистранти
shonazarovabduvosi@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада Имом Бухорий ва Имом Термизийнинг Мусталаҳул ҳадис илмининг ривожланишидаги ўрни ҳақида маълумот берилади. Шунингдек, улар фойдаланган баъзи ҳадисшунослик терминларининг семантик (маъновий) таҳлили манбалар асосида баён этилади.

Калит сўзлар: Ҳадис, ровий, муҳаддис, саҳоба, тобеин, саҳиҳ, муснад, термин, истилоҳ.

Аннотация: В данной статье представлена информация о роли Имама Бухари и Имама Термези в развитии науки Мусталахул хадис. Также на основе источников разъясняется семантический (духовный) анализ некоторых используемых в них терминов хадисов.

Ключевые слова: Хадис, рассказчик, мухаддис, товарищ, последователь, сахиҳ, муснад, срок, истилох.

Abstract: This article provides information about the role of Imam Bukhari and Imam Termezi in the development of the science of Mustalahul hadith. Also, based on the sources, the semantic (spiritual) analysis of some of the hadith terms used in them is explained.

Keywords: Hadith, narrator, muhaddith, companion, follower, sahih, musnad, term, istiloh.

Муҳаддисларнинг илмий жасоратлари бир неча илмларга асос бўлди. Инсоният тарихида ўзининг кенг қўламли ва аниқ экани, ихлос ва покликка қурилгани ҳамда бошқа жиҳатлари билан мисли кўрилмаган бу илмий ҳаракатларга Аллоҳ таоло улкан самаралар берди. Бу самаралар фақат мусулмонлар учун эмас, балки бутун дунё аҳли учун ҳам фойдали экани кундан кунга равшанлашиб бормоқда. Мазкур илмий ҳаракатнинг самараларидан бири Мусталаҳул ҳадис илмининг юзага келиши бўлди.

Мусталаҳул ҳадис илмлардан бир илм бўлиб, унда ҳадисни қабул ёки рад қилиш учун матн ва санаднинг аҳволларини текширишни ўргатадиган қоида ва усуллар ўрганилади [2. 13].

Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил Бухорийнинг "Саҳиҳул Бухорий" китобида Мусталаҳул ҳадис илми ҳақида жуда кўп матнларни учратамиз. Шунингдек, "Тарих" ва "Зуафо" китобларида ҳам кўплаб фойдали маълумотлар бор. Булардан ҳадис илмлари ҳақида жуда фойдали маълумотлар ўзлаштирилади. "Саҳиҳул Бухорий" китобининг баъзи бобларидаги тарожимларда келгани каби [4. 14]. Шунингдек, Имом Бухорий "Саҳиҳул Бухорий" китобининг бир неча жойларида бу илмнинг баъзи масалаларига ишора қилган.

Абу Исо Муҳаммад ибн Исо ибн Савра Термизий ўзининг "Сунани Термизий" китобини ажойиб бир жуз билан тугатди. Бу жуз илм аҳлининг орасида "Ал-Илал ас-сағир" китоби номи билан танилган. Бу китобда Мусталаҳул ҳадис илми ҳақида кўплаб муҳим баҳслар келган.

Имом Бухорий жуда аҳамиятсиз ҳадислар учун *لا أصل له* [ла асла лаху] (бу ҳадиснинг санадини асли йўқ) иборасини ишлатган. Бу иборани яхшилаб ўрганиб чиққанимиздан кейин бирор йўлга кўра Набий соллаллоҳу алайҳи васалламдан собит бўлмаган ҳадисларга ишлатганини билиб оламиз. Санадининг асли йўқ бўлган ҳадисларга мавзу (тўқима) ҳадислар дейилади.

Муҳаддислар бу ибора билан санади бўлмаган ҳадисларни ирода қилади. Агар ҳадиснинг санади бўлмаса, унинг қиймати ҳам бўлмайди ва у эътиборга ҳам олинмайди. Чунки, биз Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламнинг сўзларини ривоят қилишда саҳиҳ санадга ёки унинг ўрнига тушадиган нарсага суянамиз. Агар ундай бўлмаса унинг қиймати бўлмайди [4. 589].

Имом Бухорий баъзи ҳадисларнинг охирида *فيه نظر* [фийҳи назар] (унинг ривоятини текшириб кўриш керак) иборасини келтирган. Имом Заҳабий, Ибн Касир, Ироқий ва бошқалар Имом Бухорий ўз асарларида келтирган бу иборани жарҳ лафзларидан хисоблаган. Бу иборани яхшилаб ўрганиб чиқадиган бўлсак, бошқа маънони ифодалайди. Имом Бухорийнинг ўзи сиқа (ишончли) ровийларга мана шу иборани қўллаган. У киши қанча-қанча ровийлар ҳақида *فيه نظر* [фийҳи назар] деган. Демак, бу ибора ровийнинг ҳолати ҳақида иккиланишга далолат қиладиган енгилгина жарҳ лафзларидандир.

Бу ибора муайян бир ровий ҳақида зикр қилинганда, ундан ирода қилинган маънони билиш учун айнан шу ровий ҳақида бошқа имомларнинг барча сўзларини таққослаш керак бўлади. Хоссатан, Имом Бухорий ўзининг “Тарихул кабир” (2/318) китобида Ҳабиб ибн Солим ҳақида *فيه نظر* [фийҳи назар] иборасини ишлатган. Сўнгра унинг ҳадисларини саҳиҳ деган [4. 551].

Имом Термизийнинг “Сунани Термизий” китобида *حسن صحيح* [ҳасан саҳиҳ] ибораси жуда кўп учрайди. Муҳаддислар Термизий бу иборани келтириш билан нимани мақсад қилгани ҳақида ихтилоф қилган.

Ибн Салоҳ бундай дейди: “Бу масала санадга бориб тақалади. Агар бир ҳадис икки санад билан ривоят қилинса, санадларнинг бири ҳасан, бошқаси саҳиҳ бўлади. Шундай қилиб ҳадисни ҳасан саҳиҳ дейиш дуруст бўлади. Яъни бир санадга нисбатан ҳасан, бошқа санадга нисбатан саҳиҳ бўлади. Бундан ташқари, баъзиларнинг қуйидаги: “Имом Термизий ҳасан деганида ҳасан иборасининг луғавий, нафс моил бўладиган, қалб инкор қилмайдиган деган маъносини назарда тутган, биз ўрганиб турган истилоҳий маносини эмас”, деган гапи ҳам инкор этилмайди. Буни яхшилаб билиб олинг” [1. 39; 4. 315].

Ибн Ҳажар бу масалага икки хил жавоб берган:

Биринчиси: Имом Термизийнинг бундай дейишига сабаб ривоят қилувчи саҳиҳлик шартларини жамладими ёки жамламадими деган иккиланишидир. Бу ҳолат, ривоят қилувчи ёлғиз бўлганида ҳосил бўлади. Бундай ҳолатда Имом Термизий иккиланиш ҳарфини тушуриб кетган. Аслида, ҳасан ёки саҳиҳ дейиши керак эди.

Иккинчиси: Бир ҳадисга икки сифатни ишлатиш икки санад эътиборига кўра бўлади. Яъни санаднинг бири ҳасан, бошқаси саҳиҳ бўлади. Шунга кўра айтиш мумкин, *حسن صحيح* [ҳасан саҳиҳ] атамаси билан сифатланган ҳадис саҳиҳ атамасининг ўзи билан сифатланган ҳадисдан устунроқдир. Зеро, туруқнинг кўплиги ҳадиснинг сиҳиҳлигини кучайтиради [4. 316].

Юқоридаги маълумотлардан *صحيح* [саҳиҳ] ва *حسن صحيح* [ҳасан саҳиҳ] атамалари орасидаги фарқни кўриш мумкин. Саҳиҳликнинг ўзи билан сифатланишда ҳадиснинг маъноси бошқа туруқдан келиши шарт қилинмаган. Шунга кўра *حسن صحيح* [ҳасан саҳиҳ] атамаси фақат саҳиҳ атамасининг ўзидан кўчлироқ. Ҳадиснинг саҳиҳ лизотихи бўлиш жиҳатидан қарайдиган бўлсак, унинг маъноси бошқа туруқдан келиб, уни ўзидан бошқа қўллаб турувчиси бўлади.

Имом Термизий ўзининг “Сунани Термизий” асарида **حسن صحيح غريب** [ҳасан саҳиҳ ғариб] иборасини қўллаган. Агар бу ибора ишлатилган ҳадис фақат санад жиҳатидан ғариб бўладиган бўлса, маъноси қуйидагича бўлади: Ҳадис ўзида ҳам саҳиҳликни ҳам ғарибликни жамлаган бўлади, яъни ровий ҳадисда ёлғиз бўлади. Ғариб деб номланган ҳадис баъзида саҳиҳ, баъзида ҳасан ва баъзида заиф бўлади. Бу иборани ишлатишдан мақсад, бошқа машҳур бўлган санадлардан фарқли ўлароқ ёлғиз бўлганини ифода этишдир [3. 272; 4. 317-318].

Агарда ҳадис санад ва матн жиҳатдан ғариб бўладиган бўлса, бу ўринда шу ҳадиснинг маъносида бошқа ҳадис борлигини ифода этиш мақсадида ҳасан атамасини зикр қилган.

Доктор Нуриддин Итр бундай дейди: “Агар ҳадис ҳам матн ҳам санад жиҳатидан ғариб бўладиган бўлса ва бу ҳадис маъносида бирорта ҳадис топилмаса, у ҳолда бу иборани ишлатиш уламоларнинг ораларидаги хилоф ёки мужтаҳид томондан жазм бўлмагани сабаб ҳадисдаги саҳиҳлик ва ҳасанлик ўртасидаги иккиланишни ифода этади. Бу фикрни Ибн Ҳажар айтган. Лекин шу вақтгача Имом Термизий томонидан охириги вариантга тушадиган мисолни учратмадим” [3. 272; 4. 318].

Имом Термизий ўзининг “Сунани Термизий” асарида яна **حسن غريب** [ҳасан ғариб] иборасини келтирган. Агар ғариблик санадда ҳам матнда ҳам бўладиган бўлса, бу ҳадис ҳасан лизотиҳи бўлади. Бу ҳадиснинг маъносини қўллаб қувватлайдиган далиллар мавжуд бўлгани учун унга ҳасан лизотиҳи ҳукми берилади.

Агар ҳадис фақат санад жиҳатидан ғариб бўладиган бўлса ва унинг маъноси бир нечта кўринишда машҳур бўлиб, сўнгра машҳур бўлмаган туруқдан келса Имом Термизий наздида ҳасан ҳадиснинг таърифи билан бир хилдир. Чунки ўша ҳадиснинг бошқа йўлдан ривоят қилингани тасдиқланади [3. 272; 4. 318].

Юқоридаги маълумотларга кўра Имом Бухорий ва Имом Термизий Мусталаҳул ҳадис илмининг пайдо бўлиши ва ривожланишига катта ҳисса қўшган. Имом Термизий “Сунани Термизий” асарида келтирган баъзи ҳадис истилоҳларини бирорта муҳаддис қўлламаган. Бугунги кунда Имом Бухорий ва Имом Термизийнинг илмий фаолиятини ўрганиш ғоят муҳим аҳамиятга эга. Чунки, бу ёшларимизни илм-маърифатли, хусусан, ҳадис илмига муҳаббатли бўлишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Абу Амр Усмон ибн Абдураҳмон Шаҳразурий. Улумул ҳадис. Доктор Нуриддин Итр таҳқиқи. - Дамашқ: Дорул фикр, 2006.
2. Доктор Маҳмуд Таҳҳон. Тайсиру мусталаҳил ҳадис. - Карачи: Ал-Бушро, 1440/2019.
3. Доктор Нуриддин Итр. Манҳажун нақд фи улумил ҳадис. - Дамашқ: Дорул фикр, 1399/1979.
4. Саййид Абдулмажид Ғаврий. Мўъжамул мусталаҳотил ҳадисия. - Байрут: Дор Ибн Касир, 1428/2007.

О РОЛИ ЯЗЫКОВОГО ЗНАКА В ПРОЦЕССЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ АКТА МЫСЛИ

Якунина Ангелина Алишеровна

Гулистанский государственный университет

Магистрант 1 курса

yakuninaangelina1@gmail.com

Аннотация : В данной статье рассматривается семантическая континуальность знаковых структур обусловленных бесконечным характером познавательного процесса и непрерывностью конструирования концептуальной системы человека, неотъемлемая часть которой является языковое знание, находящее репрезентацию на уровне концептов и различных способов их воплощения посредством языковых знаков. Процесс взаимодействия лингвистической семиотики и семиотической концептологии рассматривается на примере изучения полифункциональных явлений в английском языке.

Ключевые слова: концепт, языковой знак, концептуальная система, полифункциональные единицы, языковое знание.

Язык - это сложная знаковая система являющаяся орудием выражения чувств, мыслей, волеизъявлений и служащая важнейшим средством общения людей, а также включающая операции мышления, приобретение, хранение, преобразование и передачу информации.

Язык как "средство доступа ко всем ментальным процессам, происходящим в голове человека и определяющим его собственное бытие и функционирование в обществе" [Кубрякова 2004: 9] выступает в качестве семиотической системы первого порядка, знаки которой обладают способностью выражать и передавать обладающие динамическим характером значения, репрезентирующие отраженные в человеческом сознании образы предметов и явлений окружающего мира, а также отношений внутри них и между ними. Организующую функцию языка по отношению к мышлению отмечал А.А. Потебня: "Язык есть необходимое условие мысли отдельного лица даже в полном уединении, потому что понятие образуется только посредством слова, а без понятия невозможно истинное мышление" [Потебня 1989: 40]. А.Ф. Лосев писал, что "специфический языковой знак есть не только акт мысли, но и акт определенного понимания тех или других актов мысли, той или другой интерпретации акта мысли" [Лосев 1982: 121], отмечая тот факт, что процесс функционирования языковых знаков непосредственно связан с материальным воплощением мыслительных процессов на уровне языка, представляющего "действительность мысли", данную человеку и используемую им "непосредственно" [Там же: 121-122]. Важным аспектом изучения роли языкового знака в представлении мыслительных процессов с диалектических позиций является проблема континуальности, "бесконечной семантической валентности языкового знака", соотносимой ученым с идеей о бесконечности мышления и отражения в нем действительности, "тоже всегда бесконечной и ничем не ограниченной" [Там же: 123].

Изучение особенностей языкового знака с точки зрения динамики мыслительных процессов и их вербального выражения требует обращения к области взаимодействия лингвистической семиотики и семиотической концептологии, в которой выявляется функционально-когнитивная специфика актуализации знаков

естественного языка, обусловленная процессом реализации основных языковых функций. Обращение к миру концептов, отражающих содержание результатов познавательной деятельности человека, исследователи связывают с фактом обусловленного самим процессом познания непрерывного конструирования концептуальной системы, рассматриваемой в качестве "постоянно присутствующего контекста употребления и понимания языковых выражений". Концепты, выступая как развивающиеся динамические структуры, подлежат конструированию (интерпретации) в индивидуальной концептуальной системе на всех стадиях познания человеком окружающего мира, где естественный человеческий язык реализуется в качестве "кода для концептов и построенных из них структур" [Там же: 109]. Языковые знаки играют определяющую роль не только в процессе кодирования (фиксации на вербальном уровне) концепта, но и в процессах манипуляции и порождения новых концептуальных структур. Естественный язык, символически фиксируя определенные концепты концептуальной системы мира, дает возможность, манипулируя вербальными символами, манипулировать концептами системы. Это значит строить в ней в соответствии с фундаментальным принципом интерпретации новые концептуальные структуры, которые континуально, но опосредованно - через другие концепты и их структуры - соотносены с концептами, отражающими актуальный познавательный опыт индивида"

[Там же: 113-114].

Языковое знание как результат познания человеком языковой системы, принципов и механизмов ее функционирования и т. д. выступает как часть концептуальной системы человека и является весьма неоднородным по своему содержанию [Болдырев 2009; Lombardo 1990].

Важным для данного исследования является тезис о взаимодействии различных типов языкового знания, представленном на уровне соответствующих концептуальных структур и репрезентирующих их языковых знаков. Обращаясь к анализу категории репрезентации английского глагола, А.И. Смирницкий писал: "В одних глагольных формах процесс представляется только как процесс, текущий и продолжающийся во времени; в других формах процесс изображается в соединении с другими признаками, а именно - с известными именными моментами (именные формы): в них процесс, оставаясь процессом, может быть частично представлен как признак (причастие) или же частично опредмечен (инфинитив и герундий)" [Смирницкий 1959: 246]. В данном ряду находятся и рассмотренные нами словоформы на -able, выражающие модальные отношения и функционирующие в языке как емкие в семантическом плане своеобразные модальные причастия со значением возможности, с одной стороны, и как прилагательные в собственном смысле слова, с другой [Вишнякова 2013]. Важно подчеркнуть, что стоящая за данным морфологическим соотношением концептуальная структура, содержательно коррелирующая со значением возможности осуществления действия и находящая языковую репрезентацию на уровне соответствующих знаков, характеризуется выявлением различных смысловых свойств данных знаков, совпадающих по форме и, вместе с тем, существенно различающихся по представлению интерпретирующих их знаковых ситуаций, которые, в свою очередь, могут рассматриваться как детерминанты для определения категориального статуса данных актуализированных языковых значений. В этом плане особую значимость приобретает вопрос о соотношении центральных и периферийных областей концептуальных структур и специфики их знаковой репрезентации в языке.

Подводя итоги, можно сказать, что возвращаясь к указанным теоретическим положениям о бесконечности семантических возможностей языкового знака, а также бесконечной семантической валентности всякой модальной категории, выдвинутым А.Ф. Лосевым [Лосев 1982: 123], представляется необходимым еще раз подчеркнуть актуальность тезиса о взаимодействии концептуальных и лингвосемиотических аспектов языкового функционирования, находящем свою актуализацию в сфере изучения вопросов о способах репрезентации знаний о языке.

Список использованной литературы:

1. Болдырев Н.Н. Проблемы исследования языкового знания // Когнитивные исследования языка. Вып. I. Концептуальный анализ языка: сб. науч. тр. / гл. ред. серии Е.С. Кубрякова, отв. ред. вып. Н.Н. Болдырев. М.: Ин-т языкознания РАН; Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2009. С. 91-103.

2. Вишнякова О.Д. Существует ли "модальное причастие" в английском языке? // Вестник Московского университета. Серия 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2013. № 3. С. 124-136.

3. Гвишиани Н.Б. Полифункциональные слова в языке и речи. М.: Высшая школа, 1979.

4. Кубрякова Е.С. Язык и знание. На пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. М.: Языки славянской культуры, 2004.

5. Лосев А.Ф. О бесконечной смысловой валентности языкового знака // Знак. Символ. Миф. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1982. С. 114-124.

6. Потебня А.А. Мысль и язык // Слово и миф. М.: Изд-во "Правда", 1989. С. 17-200.

LINGUAPRAGMATIC ASPECTS OF ENGLISH AND UZBEK NEWSPAPER HEADLINES

Dilshod Bobojonov Jumaqul o'g'li
Sodikova Bakhtigul Ibodullayevna

Teachers of the department of
Foreign Languages and Literature,

Ergasheva O'g'iloy Jumanazar qizi

Faculty of Social Sciences and Humanities

Denau Institute of entrepreneurship and pedagogy

ogiloyergasheva2@gmail.com

Abstract. The article is concerned with the study of linguapragmatic characteristics of English and Uzbek newspaper headlines. Newspapers are considered sources of information and means of persuasion. One of the main functions of newspapers is informative. This function can be expressed briefly in the newspaper headline which indicates the nature of the article below it. A headline's purpose is to draw attention to the story quickly and briefly and to excite the readers' interest. It is known that a newspaper headline is a specific linguistic phenomenon. It is a subject of numerous scientific works; it has its peculiarities in different languages. Previous researches and studies in this area of investigation have been gathered and analyzed. Several points of the issue have been taken into consideration and concluded that there are some linguapragmatic aspects of English and Uzbek newspaper headlines which can be similar and different, as well.

Key words: Linguapragmatics, linguistics, pragmatics, headline, newspaper, reader's attention.

Introduction

One of the most conspicuous direction of linguistics in the XXI century is a connection between linguistics and pragmatics in both structure and logical meaning. This issue should be viewed and analyzed from multiple perspectives.

How language represents the world has long been, and still is, a major concern of philosophers of language.

Many philosophers, such as Leibniz, Frege, Russell, the early Wittgenstein, and Carnap, have thought that understanding the structure of language could illuminate the nature of reality; they developed the so-called referential theory of meaning. At first Pirs wrote about pragmatics in XIX century, but the main parameters linked to philosophy of pragmatics was formulated by Morris in 1920. Later, modern linguistic oriented pragmatics was developed under influenced ideas of Nitgenshteyn and the theory of speech acts.

According to Ariel —Pragmatics derives via Latin pragmaticus from the Greek πραγματικός (pragmatikos), meaning amongst others "fit for action", which comes from πράγμα (pragma), "deed, act", and that from πράσσω (prassō), "to pass over, to practice, to achieve".¹

Linguistics in pragmatics: the study of features of language use related to speakers' knowledge of the structure and expressive resources of the language itself rather than of the social context.²

Taking all things into consideration, we can say that Linguopragmatics is one of the trends of communicative linguistics, which in its general sense can be defined as a science studying language factors within the sphere of human activity with an accent on psychological, social and cultural aspects of language functioning.

Linguapragmatic characteristics of English and Uzbek newspaper headlines

The word newspaper suggests that its main function is to give news. Despite this, it is used to educate, enlighten or entertain people. The newspaper also seeks to influence public opinion on political, economic and other matters. Newspapers can provide a medium of information to those who do not have television, radio or the internet.

As a window of newspapers, headlines play an extremely important role and always receive the most attention from readers.

According to J. Tunstall as cited by D. Reah, there are three types of newspapers:

1. The broadsheet newspapers (e.g., the Telegraph, the Independent, the Times and the Guardian);
2. The middle-range tabloids (e.g., the Express and the Daily Mail);
3. Tabloids (e.g., the Sun, the Mirror, the Star).

A headline for newspapers is often the most important element on a page as it gives the reader an overall picture of the newspaper. The main goal of a headline is to grab the reader's attention so various stylistic devices are used. A headline should be gripping in order to attract people to read the newspaper.

Most newspapers now use headlines that say what has to be said in a minimum of words. Headlines are usually written in a sensational way in order to arouse the reader's curiosity. As headline writers try to catch the reader's eye by using as few words as possible. It seems that newspaper headlines provide a summary of the newspaper. However, this function of a headline seems to be narrow and some linguists suggest a more precise division. A headline can not only summarize, but sometimes highlight or quote. It can be considered that this writing style of headlines that includes as minimum word as possible and has the specific writing style is called headlinesese.

As we compare the headlines of English and Uzbek newspapers, we have discovered some similarities and differences, as well. It would be much clearer, if discoveries have analyzed in a detailed way with some examples.

1. The headline of both English and Uzbek newspapers can serve as a description of its main function. For example, one of the famous and best-seller newspapers in Britain is "The Daily Telegraph". From the headline, it is clear that it can give daily news about business, sport, comment, lifestyle and other issues. Another example is "Education Week", which can discuss different issues and news related to the education. Uzbek newspapers "Sug`diyona" and "Salomatlik Sandig`i" can be discussed. From the headline of the newspaper "Sug`diyona", we can easily comprehend that it is a newspaper which can attract women`s attention, and it can discuss some issues related to women`s role in the society. "Salomatlik sandig`i" can include the information about certain diseases and treatments, interviews with specialists, how to be healthy, how to create a healthy lifestyle and other related issues.

2. One of the main issues in Linguapragmatics is to attract reader`s attention. So, in order to draw the attention of the reader, both English and Uzbek newspaper headlines are specially designed.

"ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ"

English newspapers	Uzbek newspapers
	
	

Conclusion

In conclusion, we can say that in this article, some linguapragmatic characteristics of English and Uzbek newspaper headlines have been discussed. Particularly, two issues have been analyzed: The design of the English and Uzbek newspaper headlines and the connection of the headline with the function of the newspaper. The arguments were represented in a detailed way with clear examples. The further study of linguapragmatic aspects of English and Uzbek newspaper headlines can be connected with the analysis of their linguistic peculiarities depending on the topic they present, for example politics, culture, finance, sport and so on.

References.

1. Ariel Mira. Research survey in linguistics. Cambridge University Press. 2010
2. Oxford Living Dictionaries. online dictionary. en.oxforddictionaries.com.
3. Reah, D., 1991. Language in the News. Routledge
4. Sh.Safarov. Cognitive linguistics.-Jizzakh:Sangzor,. -91 p Прагмалингвистика. -
Т.: ЁЗМЕ, 2006, - 286

EVROOSIYO MINTAQASIDA MADANIYATLARARO ALOQANING XUSUSIYATLARI

Umedova Oyxon Sultonovna

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti
oyxon.umedova.89@mail.ru

Annotatsiya: Madaniy integratsiya boshqa odamlarning madaniyatini o'zlashtirishda madaniyatning o'ziga xosligini saqlab qolish vositasi sifatida qaraladi. Evroosiyo mintaqasida dinlararo va madaniyatlararo muloqot qobiliyati ta'kidlangan. Yevrosiyoning umumiy axborot va madaniy makonini shakllantirish sohasida ommaviy axborot vositalari, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar, davlat idoralari va samarali hamkorligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo aloqa, integratsiya, madaniyatlararo hamkorlik

Shaxs odatda boshqa odamlardan ajratilgan holda mavjud bo'lolmaydi, shuning uchun hech bir madaniyat boshqa odamlarning madaniy yutuqlaridan ajratilgan holda to'liq ishlashga qodir emas. Hayotlari davomida ular doimo o'tmishlariga yoki boshqa madaniyatlar tajribasiga murojaat qilishga majbur. Hozirgi vaqtda dunyodan butunlay ajratilgan madaniy jamoalar deyarli yo'q. Bugungi kunda har qanday millat birovning madaniy tajribasini idrok etishga ochiq bo'lsa va shu bilan birga u o'z madaniyati mahsulotlarini boshqa odamlar bilan baham ko'rishga tayyor bo'lsa, vaziyat tabiiydir. Tug'ilgandan boshlab, inson ko'plab guruhlariga kiradi va ularda uning kommunikativ kompetensiyasi shakllanadi. Odatda madaniyatlar deb ataladigan katta guruhlar asosan kommunikativ faoliyatning kognitiv va pragmatik asoslarini belgilaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yuqori madaniyatlararo vakolatlariga erishishning eng muvaffaqiyatli strategiyasi bu integratsiya - boshqa odamlar madaniyatini o'zlashtirishda o'z madaniyatining o'ziga xosligini saqlab qolishdir. Evroosiyoda yashovchi odamlar madaniyatlararo munosabatlarning boy tarixiga ega. Asrlar davomida ushbu hududda turli etnik guruhlar va turli madaniyatlar o'zaro aloqada bo'lib kelgan. Ko'p asrlik tarix asosida diniy bag'rikenglik va o'zaro hamjihatlik tamoyillari shakllandi; bundan tashqari, har bir xalq boshqa xalqlar bilan o'zaro munosabatlar natijasida o'z madaniyatini o'ziga xos tarzda boyitdi. Shunday qilib, ming yillar davomida Evroosiyo makonida konfessiyalararo, sivilizatsiyalararo muloqot qobiliyati shakllangan-bu haqiqatan ham barcha Evroosiyo davlatlari uchun birlashtiruvchi omil bo'lishi mumkin. Bugungi kunda xalqimiz madaniy, diniy va lingvistik xilma-xilligi bilan, ammo samarali iqtisodiy hamkorlik va yaxshi qo'shnichilik istagi bilan rivojlanayotgan Evroosiyo o'ziga xosligining bir qismini tobora ko'proq his qilmoqda. Barchamiz nafaqat o'tmishning boy tajribasiga, balki kelajakning ajralmas umumiy tarixiga ega bo'lgan yangi noyob Evroosiyo hamjamiyatining tug'ilishining guvohi bo'lmoqdamiz. Ammo ijtimoiy-madaniy hamkorlik ko'pincha boshqa platformalarda, boshqa formatlarda va asosan mamlakatlar o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik doirasida muhokama qilinadi. Evroosiyo identifikatori rivojlanayotgan umumevropa identifikatoridan kam bo'lmagan asos va tarixga ega. Madaniy xilma-xillik, chet tiliga, madaniyatiga hurmat Evroosiyo makonida ancha vaqtdan beri amal qilib kelmoqda. Hatto 70 yil davomida mavjud bo'lgan Sovet loyihasining formati ham muhim mafkuraviy tarkibiy qismga qaramay, Sovet odami deb nomlangan odamni yaratishga urinish, shunga qaramay madaniy, milliy xilma-xillikni ta'minladi. Erituvchi idish modeli yo'q edi, hali ham milliy tillar, fan va madaniyat uchun ustuvorliklar mavjud edi. Bugungi kunga qadar madaniyatlararo aloqa sohasidagi ilmiy tadqiqotlar til faoliyatida madaniy jihatdan aniqlangan farqlarga va ushbu farqlarning oqibatlariga duch keladigan xatti-harakatlarga qaratilgan. Yevrosiyoda integratsiyasiga bo'lgan qiziqishni

